
R.RASULOV, Q.MO'YDINOV

# NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

R.RASULOV, Q.MO‘YDINOV

# NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATI

*Respublika oily o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakulteti bakalavr va magistrantlari uchun darslik*

Toshkent
«Book trade 2022»
2025

UO‘K 808.5;37.0
KBK 8.12-8;74
R-31

R.RASULOV, Q.MO‘YDINOV. NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATI. Darslik. – T.: “Book trade 2022”, 2025. 190 b.

Darslikda nutq madaniyati, til va nutq, nutq birliklari, til madaniyati, til ideali, madaniy nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq texnikasi, diplomatik nutq kabi jiddiy masalalar haqida fikr yuritiladi. Nutq madaniyatiga oid nazariy ma’lumotlar amaliyot bilan mustahkamlanadi.

Shuningdek, darslikda notiqlik san’ati, g‘arb va sharq notiqligi, buyuk allomalarning ushbu san’at haqidagi fikirlari ham beriladi.

Darslik oliy o‘quv yurti talabalari: bakalavr va magistrantlari uchun mo‘ljallangan. Ayni vaqtda darslikdan nutq madaniyati va notiqlik san’ati muammolari bilan shug‘ullanuvchilar va qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

**Mas‘ul muharrir**:
**I.Yo‘ldoshev** – *filologiya fanlari doktori, professor.*

**Taqrizchi:**
**J.Yoqubov** – *filologiya fanlari doktori, professor.*

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 14 apreldagi 136-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etildi.

**UO‘K 808.5;37.0**
**KBK 8.12-8;74**

ISBN 978-9910-8650-2-2

## KIRISH

Mustaqillik tufayli xalqimiz dunyoga yuz tutdi va jahon bizni tanidi. Biz tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshladik hamda yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal qilishga kirishdik.

Barcha sohalar singari ona tilimiz va u bilan bog‘liq muammolar ham asta-sekin yechimini topmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning mehnatlari, izlanishlari tahsinga loyiqdir.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizning «Davlat tili» haqidagi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunlari, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa hujjatlarda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Nutq madaniyati – tilshunoslik fanining eng faol, dolzarb muammolaridan biridir. U adabiy tilni, adabiy til me’yorlarini, til va nutq madaniyatini, nutq turlarini tadqiq qiladi, undagi yangiliklarni, o‘zgarishlarni kuzatadi, nutq faoliyatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Mazkur fan talaba-o‘quvchilarda nutq madaniyatiga – madaniy nutqqa oid ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga, takomillashtirishga xizmat qiladi.

Nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolarni hal etish oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, o‘rta maktablarda ta’lim jarayonini yanada yaxshilash, takomillashtirish imkonini beradi. Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati fanining oliy o‘quv

yurtlarida o‘qitilishi quvonarlidir. Chunki nutq madaniyati va notiqlik san’ati sirlarini bilish, o‘rganish barcha soha vakillari, mutaxassislari uchun, umuman, har qanday ziyoli inson uchun ham muhimdir.



## «NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATI» FANINING MAQSADI, VAZIFALARI, MUAMMOLARI

Nutq madaniyati haqidagi ta’limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo‘lsa ham, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo‘lganligi notiqlik san’ati tajribasidan ma’lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san’at darajasiga ko‘tardi. Chunki u vaqtlarda davlat arboblarining obro‘-e’tibori va yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog‘liq bo‘lgan. Notiqlik san’ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug‘langan.[1] Mashhur notiq Sitseron: «Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo‘lish kerak», degan. Bu gapda katta hikmat bor. G‘arb sarkardasining itoatida ko‘p sonli lashkar bo‘lganini tasavvur qilsak, ushbu fikrning tasodifiy emasligiga amin bo‘lamiz. Yunon va Rim notiqlari Aristotel, Demosfen, Sitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular ritorika va notiqlik san’atining o‘ziga xos maktabini yaratdilar. Sitseronning «Notiqlik haqida», «Notiq», «Brut» asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning «Notiq bilimi haqida», Aristotelning «Ritorika» kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko‘rsatadi.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o‘ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya’ni va’zxonlik «Qur’on»ni targ‘ib qilish bilan mushtarak holda so‘zning ahamiyati, ma’nosi va undan o‘rinli foydalanish borasida ko‘p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, «Nutq odobi», «Muomala madaniyati» nomlari bilan

[1] R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: 1992. 6-bet.

yuritilib kelingan «nutq madaniyati» tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan: Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e'tibor berish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozganlar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilidir.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilim-larning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman....».

Kaykovus tomonidan 1082–1083-yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 6-, 7-boblari so'z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o'quvchini yoqimli, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko'z oldiga keltirib, gapirish kerakligini, kishi kamtar bo'lishi, o'zini xalq orasida oddiy tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko'p gapirish donolik belgisi emasligini shunday ifodalaydi: «Ey farzand, agar har nechakim suxandon



bo'lsang, o'zingni bilg'ondan kamroq tutg'il, to so'zlash vaqtida nodon va beburd bo'lib qolmag'aysan. Ko'p bilib, oz so'zlag'il va kam bilib ko'p so'z demag'il. Nima uchunki, aqlsiz shundoq kishi bo'ladur – u ko'p so'zlar. Debdurlarki, xomushliq salomatlik sababidur. Chunki ko'p so'zlaguchi oqil kishi bo'lsa ham, avom uni aqlsiz derlar».[2]

Ulug' shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida: «Bilib so'zlasa so'z bilig sanalur» degan edi. Qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida:

Ugush so'zlama so'z biror so'zla oz,
Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz,

deydi. Mazmuni: so'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla. Tuman (ming) so'z tugunini shu bir so'z bilan yech. Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

O'qub so'zla so'zni eva so'zlama,
So'zung kizla kedin, boshing kizlama.

---

[2] Kaykovus Qobusnoma. –T.: 1986, 45-bet.

Mazmuni: (So‘zni o‘qib so‘zla, shoshib gapirma, keraksiz yaramas so‘zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma)[3].

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, ezmalik, yolg‘onchilik, tilyog‘lamalikni qoralash haqida so‘z boradi.

O‘rta Osiyo notiqligining o‘ziga xosligi shundaki, u, eng avvalo, o‘sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik sa’nati ustalarini nadimlar, qissago‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, go‘yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqaxizmat qilishini to‘g‘ri anglovchi sog‘lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to‘g‘ri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqidaaytgan fikrlari buning dalilidir. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mahbub ul-qulub», «Nazm ul-javohir» asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga uning mukammallashishiga ham katta hissa qo‘shdi. U o‘zining «Mahbub ul-qulub» asarida shunday deydi: «Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur...»[4] ya’ni, til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir.

Alisher Navoiy mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so‘zlash odobi haqida shunday yozadi: «So‘zni ko‘nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa,

[3] Qarang: Ahmad Yugnakiy, Hibatul – haqoyiq. –T.: 1971, 78-bet.
[4] Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. 14-tom, –T.: 1998, 94-bet.



tilga surma». Mazmuni («So‘zni ko‘nglingda pishitib olmaguncha, so‘zlama, ko‘nglingda bo‘lgan har qanday fikni ham ayta berma»).

O‘zbek badiiy nutqi tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur alohidao‘rin tutadi. Shoirning nazmi va «Boburnoma»si o‘zbek nutqining go‘zal namunalaridir. Bobur o‘zi hammabop yozish bilan birga boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o‘g‘li Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuborilgan maktubni muallifning o‘zi bir necha bor o‘qib ko‘rishiga, uning ravonligiga, so‘zlarning ko‘zda tutilgan ma’noni to‘g‘ri aks ettirganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng jo‘natishga chaqiradi.

Ko‘rinadiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxtao‘rganish, uning lug‘aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so‘zlashni o‘rganish, nutqni ichki (mazmun) va tashqi (shakl) ko‘rinishiga birday e’tibor berish, go‘zal va ta’sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamdao‘rinli ishlatish vazifalarini qo‘yadilar va ularning ijrosini kuzatadilar, chuqur tahlil etadilar.

«Nutq madaniyati va notiqlik san’ati» fani o‘ziga xos nazariy va amaliy soha sifatida tilshunoslik sohalaridan olingan bilimlarga suyangan holda to‘g‘ri, ta’sirli nutq tuzish yo‘llarini o‘rgatadi. U til, til me’yorlari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutq talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

«Nutq madaniyati va notiqlik san’ati» fani o‘zining tadqiq obyekti va predmetiga ega. Uning tekshirish obyekti adabiy til va adabiy til asoslanadigan, adabiy til faolligini, til sistemasida yetakchiligini ta’minlaydigan adabiy til me’yorlaridir. Aytish mumkinki, nutq madaniyati fani nazariyasida adabiy til, adabiy til me’yorlari, nutq birliklari eng asosiy, eng muhim tushunchalar sifatida xizmat qiladi.

Ushbu fan adabiy til me'yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishini undagi ba'zi birliklarning eskirishi, ular o'rnida yangi me'yoriy birliklarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy me'yorlarni yaratmaydi, ba'zi bir hodisalarni me'yor sifatida majburan kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obyektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.[5]

«Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» fani hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganar ekan, shu adabiy til asosida vujudga keladigan barcha nutq turlari, adabiy tilga asos bo'luvchi xalq tili shevalari ham uning obyektiga daxldordir. Nutq madaniyati sohasi adabiyotshunoslik, poetika, estetika, etika, pedagogika, mantiq, ruhshunoslik, siyosatshunoslik sohalari bilan bog'liq. Milliy mustaqillik mafkurasining tarkibiy qismi hisoblanmish Davlat tili siyosati va unga oid huquqiy hujjatlar nutq madaniyatining asosiy ashyolaridandir. Notiqlik va voizlik san'tiga oid asarlar, o'zbek madaniy nutqiga asos bo'lgan milliy adabiy meros namunalari, o'zbek milliy hujjatchiligi hamda davlat tilida ish yuritish qonun - qoidalari majmuasi nutq madaniyati fanining asosiy obyektlaridandir.

Nutq madaniayti fanining predmeti bo'lib, nutqning lisoniy qurilishi, tuzilishi, nutq birliklari nutqning kommunikativ-aloqaviy sifatlari, nutq boyligi, nutq texnikasi va nutq odobi – nutqiy etiket hisoblanadi.

Nutq madaniayti fanining maqsadi nutq so'zlovchilarda – notiqlarda madaniy nutqni, madaniy nutq bo'yicha muayyan ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan, takomillashtirishdan iboratdir. Nutq madaniayti fanining vazifasi esa ularga fan obyekti, predmeti va maqsadi nimalardan iborat ekanligini tushuntirish,

[5] T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. –T.: 1993, 15-16-betlar.



madaniy nutq tuzishda qanday talablarga – nutqning qanday kommunikativ sifatlariga amal qilish lozimligini yetkazishdir. Shuningdek, nutq madaniyati fanining vazifasi adabiy til me'yorlari talablariga javob beradigan nutqlarni – madaniy nutqni tuzishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishdir.

Nutq madaniyati sohasini mukammal o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizdagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga to'la muvofiqdir. Chunki, nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, kishilarni yuksak madaniyat sohibi bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qayerda shakllangan?
2. Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullangan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
3. «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» fanining maqsad va vazifasi nimalardan iborat?

**Tayanch tushunchalar**

1. Nutq – (arabcha) fikrni so'z orqali ifodalash.
2. Madaniyat – (arabcha) ta'lim va tarbiya olganlik, ziyolilik.
3. Nutq madaniyati – tilshunoslik fanining eng faol sohasi. U adabiy tilni, adabiy til me'yorlarini, nutq turlarini tadqiq qiladi, undagi yangiliklarni, o'zgarishlarni kuzatadi, nutq tuzishda yo'l

qo'yilgan kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.



## NUTQ MADANIYATI VA MULOQOT MADANIYATI

Nutq madaniyati ham, muloqot madaniyati ham – har ikkisi jamiyat hayotida amalda, faollikda. Ammo nutq madaniyati tushunchasi fan nomi sifatida, shak-shubhasiz, yetakchi. Bu jihatdan muloqot madaniyati tushunchasi nutq madaniyati tushunchasiga teng ham kelolmaydi, uning o'rnini bosolmaydi ham. Negaki, nutq termini klassik – barchaga ma'lum va mashhur so'z bo'lib, u nazariy tilshunoslikning ham, amaliy tilshunoslikning ham eng qudratli, eng faol birligi hisoblanadi. Shuningdek, nutq termini til termini bilan dialektik munosabatda bo'lib, ya'ni til va nutq dialektikasini hosil qilib, jamiyatning eng muhim, eng asosiy aloqa quroli sifatida fikr almashish jarayonini ta'minlaydi, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

Nutq madaniyati qamrovi keng, umumiy tushuncha bo'lib, u muloqot madaniyati tushunchasini ham o'z ichiga oladi. Chunki muloqot so'zi aslida uchrashish, ko'rishish[6] kabi ma'nolarni beradi. Shunday ekan, uchrashish esa, so'zsiz, til (nutq) orqali amalga oshadi. Demak, nutqiy muloqot jarayoni kechadi. Ayni vaqtda, yuqoridagi terminlardan muloqot madaniyati tushunchasini qo'llamaslik, ishlatmaslik kerak degan fikr aslo kelib chiqmaydi.

Muloqot madaniyati tushunchasi eng xalqchil, eng ommabop birikma sifatida joyiga qarab, vaziyatga qarab keng foydalanilishi, qo'llanilishi kerak. Hozirda shunday bo'lmoqda ham. Bu maqsadga muvofiq va e'tiborga loyiq. Shuningdek, muloqot madaniyati tushunchasi lo'ndaligi, yoqimli ta'sir qilishi, «yumshoqligi» bilan, ijobiy konnotatsiyasiga ko'ra ham ajralib turadi. Shunga qaramasdan u fan nomi sifatida, aytilganidek, nutq madaniyati terminining o'rnini bosolmaydi. Chunki unda nutq madaniyati

[6] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2006. 636-bet

terminiga nisbatan olganda, u bilan qiyoslaganda, unda fanga oidlik, ya'ni ilmiylik belgisi, ilmiylik quvvati kuchsiz. Muloqot madaniyati tushunchasida xalqchillik belgisi yetakchilik qiladi. Shunga ko'ra hozirda muloqot so'zi xalqimiz hayotida, kundalik fikr almashish jarayonida eng ko'p qo'llanilayotgan so'zlardan biriga aylanadi. Bu – davr talabi, siyosatimizning talabi.

Aytmoqchimizki, muloqot so'zining qo'llanishiga ko'ra faol birlikka aylanishi, shak-shubhasiz, 2017-yilning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilinishi bilan bog'liqdir.

Nutq madaniyati va muloqot madaniyati tushunchalari bir-birini to'ldirgan, o'zaro chambarchas bog'langan holda, ya'ni hamkorlikda jamiyatga, lisoniy aloqa jarayoniga xizmat qilmoqda.

Til imkoniyati orqali amalga oshadigan nutqiy muloqot so'zlovchi va tinglovchilarning aqliy, fikriy faoliyati, fikr almashish harakatidir, kommunikantlarning informativ-ekspressiv, psixo-fiziologik, emotiv, paralingvistik faolligidir.

Demak, muloqot nutq bilan hamkorlikdagina, u bilan bog'-langandagina – so'z birikmasini hosil qilgandagina muhim ahamiyatga, ijtimoiy-amaliy qimmatga, aqliy-maqsadli faoliyatga aylanadi, shunga ega bo'ladi. Demak, nutq – birlamchi, muloqot – ikkilamchi.

Shuningdek, nutqiy muloqot ham, nutq madaniyati kabi, sistem xarakterga ega bo'lib, o'zining tarkibiy qismlariga, ya'ni «lisoniy (verbal) va nolisoniy (etik, estetik, etnografik)»[7] kabi tarkibiy qismlariga egadir.

[7] Toirova G.I. O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –T. 2017, 13-bet



Nutq madaniyati tushunchasi fan, muayyan soha nomi sifatida qat'iy o'rin egallagan, tilning terminologik lug'at tarkibiga kirgan.

Nutq madaniyati shunday madaniyatki, unda inson faktori yetakchilik qiladi. Chunki nutq madaniyati hazrati insonga – jamiyatga xizmat qiladi, hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Nutq madaniyati shunday madaniyatki, u jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi, muhim jihatidir. Yunon notig'i Sitseron «Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lishi kerak» degan. Aniqki, yaxshi notiq, shunchaki, nutq so'zlovchi inson emas, aksincha, nutq madaniyatini – notiqlik san'atini mukammal egallagan insondir.

Nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi ekan, u jamiyatning yuksak madaniyat sohibi, ya'ni nutq madaniyati sohibi bo'lishini belgilaydi.

Nutq madaniyati nutqqa – tovushga, talaffuzga, urg'uga so'z qo'llashga, so'z tarkibiga, so'z birikmasi va gaplarni tuzishga alohida e'tibor beradi, nutq tuzishda talab qilingan me'yorlarga amal qilishga «chaqiradi».

## NUTQ MADANIYATI VA ADABIY TIL

Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o‘ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko‘rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala, so‘zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o‘z ichiga oladi, ular orqali voqelikka aylanadi, ta’sir qilish quvvatiga ega bo‘ladi.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

1) madaniy nutqning, ya’ni nutqiy hodisaning nomi;

2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog‘liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi;

3) nutq madaniyati muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo‘limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko‘rinishlariga, qirralariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim.[8]

Shunday qilib: mazkur muammolarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchilar nutq madaniyatiga quyidagicha ta’rif berishadi.

1. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri (Praga lingvistik maktabi).

2. Nutq madaniyati (til madaniyati) bu adabiy til me’yorlarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo‘lgan faoliyat, ya’ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi).

3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.).

[8] E.Begmatov, A.Boboyeva, M.Asomiddinova, B.Umurqulov, O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. – T.: 1998, 31-bet.



4. Nutq madaniyati kishilarning o‘zaro to‘liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir (B.N.Golovin va b.).

5. Nutq madaniyati faqat to‘g‘ri nutqgina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir (G.O.Vinokur va b.).

6. Nutq madaniyati til vositalaridan o‘rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so‘zlash va yoza olish san’atidir. (A.I.Yefimov).

7. Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D.Y.Rozental va boshqalar)

8. Milliy o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir. (M.Agafonova).[9]

Xulosa shuki, nutq madaniyati tilni – aloqa – aralashuv qurolini ishlatishga bo‘lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi boshqa omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo‘lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo‘lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori, aksincha esa, past saviyada bo‘ladi.

Nutq madaniyati adabiy tilga yondoshadi, ya’ni adabiy til rivojiga ongli aralashadi. Adabiy til xalq tilining sayqal berilgan, qayta ishlangan (silliqlangan), grammatik qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma’lum me’yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to‘g‘ri qo‘llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tildir. Adabiy til jamiyatning ilm-fan, ta’lim, adabiyot, diplomatiya, huquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilotlar va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy til ko‘rinishidir.[10] Demak, adabiy til ma’lum me’yorga solingan, asoslangan til sifatida jamiyatga xizmat qiladi.

[9] E.Begmatov va b. O‘sha asar, 45-bet.

[10] H.Ne'matov, B.Jo'rayeva. Sotsiolingvistika. Buxoro. 2004, 10-bet

O‘zbek adabiy tili olimlar, ziyolilar, adiblarning og‘zaki va yozma adabiyotning asosiy ijodkorlari bo‘lgan xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur o‘rganishi borasidagi xizmatlari evaziga turkiy tillar oilasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘ldi. Bu tilda juda ko‘p o‘lmas badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ham o‘zbek tilining madaniy tillar qatoridan o‘rin olishini ta’minladi.

Qadimdan ma’lumki, til eng muhim aloqa-aralashuv, fikr almashuv qurolidir. Bu qurol qator boshqa vazifalarni ham bajaradi: u yoki bu xalq tarixi yoki umuman voqelik haqida xabar beradi, ularni avloddan – avlodga yetkazadi, kishilar ongiga ta’sir etadi, estetik zavq bag‘ishlaydi. Shuningdek, u bilim berish yoki bilim olish quroli hamdir.

Ana shunday qator vazifalarni bajaruvchi hamda funksional imkoniyati yanadaortib borayotgan bu qurolning – o‘zbek adabiy tilining ishlatilishi, uning qay darajada sayqal topganligi, o‘tkirligi, muayyan vazifani bajarishga xoslanganligi, tuzilishi, mohiyati bilan shaklining mutanosibligi, go‘zal va ixchamliligi kabilar uning qudratli madaniy jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Tilni yaratish va unga sayqal berish esa shu tilga mansub bo‘lgan xalq vakillarining, ziyolilar, adiblar, shu qurolni ishlatishga ehtiyoji bor bo‘lgan barcha kishilar va nihoyat, shu ish bilan maxsus shug‘ullanuvchi mutaxassislarning ishidir.

Darhaqiqat, nutq – bu til deb atalmish noyob quroldan foydalanish jarayoni. Demak, nutqiy jarayon – tilning o‘z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma’lum ma’noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir.



«Qobusnoma»da Kaykovus hamma hunarlar ichida so‘z hunari – notiqlikni a’lo deb bilgan: «Bilgilkim, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi»[11].

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton «Adabiy asarning mazmuni, undagi g‘oyaning oliyjanobligi, tasvir qilingan odamlar va hodisalarning go‘zalligi yoki xunukligi – hammasi o‘quvchiga asarning tili orqali yetadi. Shu sababli til sohasidagi mahorat yozuvchi qobiliyatining eng yorqin alomatidir», - deganida, eng avvalo, til qurolidan foydalanish mahorati haqida fikr yuritgan.

Demak, hamma uchun baravar xizmat qiladigan til – aloqa – aralashuv quroli vositasida go‘zal, yaxshi, namunali nutq tuzish ham, qo‘pol, yoqimsiz, nojo‘ya, tuturuqsiz, quruq nutq tuzish ham mumkin. Bularning birinchisi madaniy nutq, ikkinchisi esa nomadaniy, «xunuk» nutqdir.

Tilshunos S.I.Ojegov yaxshi nutq haqida gapirar ekan, «Yuqori darajadagi nutq, yuqori nutq madaniyati – bu o‘z fikrini til vositalari orqali to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir», - deydi.[12] Bunday qobiliyatga o‘z ona tilini chuqur sevish va hurmat qilish, uni mukammal bilish orqali erishiladi. Shuning uchun ham har bir kishining madaniylik darajasi, o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og‘zaki nutqidan bilinadi, nutq madaniyatiga e’tibor faqat notiqdangina emas, balki har bir jamiyat a’zosidan talab qilinadi.

Tilda so‘z miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, o‘sha tilni boy til deb talqin qilish keng tarqalgan. Bu fikr ma’lum ma’nodagina to‘g‘ridir. Chunki tildagi so‘z miqdori til boyligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lsa ham, til boyligi shu bilangina cheklanmaydi. Bu o‘rinda, albatta, o‘zbek tilining sinonimlarga,

[11] Kaykovus. O‘sha asar. 32-bet.
[12] R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. O‘sha asar. –T.: 1992. 8-bet.

frazeologizmlarga, parafrazalarga nihoyatda boy ekanligi, ular ma'nolarining, shuningdek, umuman o'zbek tilidagi so'zlarning ko'p ma'noliligi nihoyatda yuqori darajada ekanligi ham hisobga olinadi.

Shunday bo'lsa-da, ana shular bilan bir qatorda, u yoki bu tilni boy til deb belgilaganda, shu tilning turli-tuman ifoda vositalariga egaligini ko'zda tutamiz. O'zbek tilida so'zdagi unli tovushni cho'zish yoki undosh tovushni ikkilantirish (geminatsiya) hodisasi ham ifoda vositasi hisoblanadi: to'yga mashhur xonanda kelgan shekilli, odam!; Mazam yo'qroq, ertaga ishga borolmayman; Mazza qilib dam oling, yaxshilab sog'ayib keting, keyin gaplashamiz. Bu misollardagi «odam» so'zi alohida urg'u bilan aytiladi, shuningdek, so'zdagi **o** tovushi ba'zan esa, keyingi bo'g'indagi **a** tovushi cho'zib talaffuz qilinadi. Ana shu cho'ziqlik, kuchli ohang bilan aytish alohida ma'no kasb etadi, ya'ni ushbu tarzdaaytilganda, ayni so'zdan odamning ko'pligi, tasirchanlik, his-hayajon kabilar ifodalanadi. Keyingi gapdagi «mazza» so'zida «z» undoshining ikkilantirilishi ham ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

O'zbek tili ana shunday imkoniyatlarga nihoyatda boydir. O'zbek tilida takrorning ikki turi mavjud:

a) grammatik takror;

b) badiiy takror.

Takrorning birinchi turi grammatik takrorda ma'no odatda ko'plik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: mashina-mashina qovun tushirdik; qop-qop un yopishadi; gapirib-gapirib uxlab qoldi; yugurib-yugurib charchadi; yaxshi-yaxshi gapiring kabi.

Takrorning ikkinchisi turli xil ma'nolarni ifodalaydi: Tong yaqin, oppoq tong yaqin (G'.G'ulom). Gapiring, gapiring, deyapman, gapirsangizchi!



O'zbek tilida so'zlar tarkibidagi turli xil tovush o'zgarishlari, masalan: qora-qaro, ora-aro, ko'ngil-kangul...; oshino-oshno, oshiyon-oshyon, sen bilan-sen ila- senla, ustiga-ustina, bog'in-bog'ini, ko'ksin-ko'ksini kabilar ham o'ziga xos vositalardir.

Hozirgi o'zbek tilida 30 ga yaqin ko'makchi fe'llar mavjud bo'lib, bu ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan ravishdosh ko'rsatkichlari -b, (-ib) orqali bog'lanib keladi va turli xil nozik ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: ketdi-ketib qoldi; yozdi-yozib tashladi; tashlab ketdi-tashlab ketib qoldi; qochdi-qochib qoldi; urushdi-urishib berdi; qo'lladi-qo'llab yubordi; kuldi-kulib qo'ydi kabi.

O'zbek tilida bulardan tashqari alohida badiiy tasvir ko'rinishlari, vositalari ham bo'lib, ularga metafora, metonimiya, sinekdoxa, sifatlash, o'xshatish, kesatish (ironiya), istehzo (sarkazm), mubolag'a, kichraytirish, jonlantirish; zidlash (tazod), zinapoyalash, ketma-ketkeltirish, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik yoki ko'p bog'lovchilik; tushirib qoldirish (ellipsis), badiiy takror, badiiy o'rin almashtirish (inversiya) kabilar kiradi.[13]

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Adabiy til deb nimaga aytiladi?
2. Adabiy tilning so'zlashuv nutqidan qanday farqi bor?
3. Tilning boyligi nimada namoyon bo'ladi?

**Tayanch tushunchalar:**

1. Adabiy til – umumxalq tilining sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan shaklidir.
2. Sinonim – ma'nodosh so'zlar.
3. Frazeologizm – frazeologik birlik, ibora.

[13] Y.Tojiyev, N.Hasanova, H.Tojmatov, O.Yo'ldosheva. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. –T., 1994, 14-bet.

4. Parafraza – tasviriy ifoda
5. Epitet – sifatlash.



## NUTQ MADANIYATI VA ADABIY ME'YOR

Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjud. Bu tushuncha muayyan lisoniy me'yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador bo'lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma'naviyatini belgilovchi (ko'rsatuvchi) etik va estetik hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me'yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlargina emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'tarish, odamlarda ma'lum «til didi»ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchov (mezon) ga asoslanishimiz tayin. Mana shu o'lchov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori (adabiy me'yor).

Adabiy me'yor. Ma'lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o'sha hududda yashovchi aholi uchun istisnosiz tushunarli bo'ladi, ya'ni aloqani engil amalga oshirishga imkon beradi. Butilning o'zi me'yordan iboratligini ko'rsatadi. Me'yor – tilning yashash shaklidir.[14]

[14] T.Qudratov. O'sha asar. 38-bet.

Uzus esa u yoki bu jamiyatda, muayyan bir davrda til sistemasida – umumiylikda mavjud bo‘lgan imkoniyatlar – lisoniy vositalarni tanlash, aniqlash va ulardan foydalanib, nutqda ishlatilayotgan qismidir.[15]

Adabiy me’yor uzusga asoslanadi, undan olinadi. Adabiy me’yor adabiy til bilan birga tug‘iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o‘z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy me’yor uzusdan olinganligi sababli hamma uchun tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a’zolarini uyushtirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me’yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarurdir.[16]

Xullas, me’yor – adabiy me’yor jamiyatda til birliklaridan unumli foydalanish qonuniyatlarini ifodalaydi. Me’yor – nutq jarayonida, nutq faoliyatida til vositalaridan izchil, maqsadga muvofiq, tartibli, to‘g‘ri, tushunarli foydalanishdir. Adabiy til me’yorlashgan til bo‘lib, me’yor nimaning to‘g‘ri, nimaning noto‘g‘riligini aniqlaydi. U «qonuniy» til vositalari va ifoda usullarini tavsiya qiladi, til odobi va an’analariga zid bo‘lgan so‘zlarni qo‘llash usullarini inkor qiladi.[17] Qiyoslang mana shunday (mashinday), olib berdi (oberdi). Me’yor xalq nutqidagi barcha yorqin, sof, aniq ifodalarni saralab, adabiy til qo‘llanishiga kiritadi, noaniq, mujmal, o‘tkinchi, vaqtincha ifodalarni qoldiradi, chetlashtiradi. Demak, adabiy me’yor muhim ijtimoiy va madaniy vazifa bajaradi. Jamiyat hayotining barcha muhim sohalarida me’yorlashgan tildan foydalaniladi. Jumladan ilm-fan, ta’lim,

[15] Qar.H.Ne'matov. O‘sha asar, 23-bet.T.Qudratov. O‘sha asar, 36-bet.
[16] T.Qudratov. O‘sha asar. 40-bet.
[17] H.Ne'matov va b. O‘sha asar, o‘sha bet.



madaniyat, texnika, qonun chiqarish, ish yuritish va b. sohalarni me’yorlashgan tilsiz, adabiy me’yorsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.[18]

Adabiy til me’yori professor H.Ne’matov aytganidek, dialekt yoki jargon me’yorlaridan farqli ongli ravishda madaniylashadi: lug‘atlarda, grammatikalarda qayd qilinadi, maktablarda, o‘quv yurtlarida o‘qitiladi, kitoblarda, radio va televideniyada targ‘ib qilinadi. Kishilarning barcha madaniy muloqoti adabiy til me’yorlariga muvofiq amalga oshiriladi.[19]

Adabiy til me’yorlari deyilganda, til vositalarining umumxalqqa tushunarli bo‘lgan muqobil variantlarini tanlash tushuniladi. Ana shu tanlab olingan variantlar hamma uchun majburiy bo‘ladi. Masalan: o‘zbek adabiy tilidagi kelishiklar, zamon, tuslovchi qo‘shimchalar respublikamiz hududida istiqomat qiluvchi barcha sheva vakillari uchun majburiy hisoblanib, bu me’yorning buzilishi nutq madaniyati zaiflashuviga olib keladi. Ya’ni qaratqich kelishigi qo‘shimchasi o‘rnida tushum kelishigi qo‘shimchasini qo‘llash xatodir.

O‘zbek adabiy tili me’yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik me’yor.
2. Talaffuz (orfoepik) me’yori.
3. Yozuv (grafika) me’yori.
4. Fonetik me’yor.
5. Aksentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) me’yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me’yor.
7. So‘z yasalish me’yori.
8. Imloviy me’yor.
9. Uslubiy me’yor

[18] H.Ne'matov va b. O‘sha asar, o‘sha bet.
[19] H.Ne'matov va b. O‘sha asar, 24- bet.

10. Punktuatsion me'yor.[20]

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, xalq shoir - baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlarinutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

**So'z qo'llash (leksik) me'yori.** O'zbek adabiy tilining lug'aviy, ya'ni so'z qo'llash me'yorlari deyilganda, so'z variantlaridan hamma uchun tuishunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab olish tushuniladi. Adabiy tilga hamma uchun tushunarli bo'lgan so'zlar umumxalq tilidan tanlab olinadi. Agar bir tushunchani ifodalash uchun shevalarda birdan ortiq so'z variant bo'lsa (narvon, shoti, zangi), ulardan eng muqobili, hamma uchun tushunarli bo'lgani tanlanib, qolganlari shevalarda qolaveradi.

Ijtimoiy hayotdagi har qanday o'zgarish va yangiliklar, asosan, tilning leksikasida o'z in'ikosini topadi. Shu bois tilning lug'at boyligi rivojlanadi, boyiydi. Bu hol lug'aviy me'yor masalasi bilan tilshunoslik muassasalari va soha mutaxassislari doim hamkorlikda ish olib borishlarini talab etadi. O'zbek adabiy tilining lug'aviy me'yorlari ancha tartibga solingan. Ular imlo va izohli lug'atlarda o'z aksini topgan. Tilda paronimlar degan alohida lug'aviy qatlam ham mavjud bo'lib, talaffuzi va yozilishi bir-biriga yaqin, lekin ma'nolari tubdan boshqa-boshqa so'zlardir. Masalan:

[20] R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar. 38-bet.



o'tkazish-o'tqazish, asr-asir, istiqlol-istiqbol, tajriba-tarjima, devon-divan, diplomat-diplomant, tovlandi-toblandi, shox-shoh, davo-da'vo, quyilmoq-quyulmoq va b.

Nutqda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun tildagi paronimlarni farqlay olish, ularning lug'aviy ma'nolarini to'g'ri anglay olish zarurdir. Nutqda paronimlarni noto'g'ri qo'llash turli g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan isbotlaymiz: Boboqul bilan Polvon yumshoq o'rindiqqa o'tirishganda og'ir yukka bardosh berolmagan devondan beo'xshov ovoz chiqdi (Gazetadan). Chanoqlardagi lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi (Gazetadan).

**Talaffuz me'yori.** Talaffuz me'yori deyilganda, til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi tushuniladi. Ammo o'zbek adabiy tilining og'zaki me'yorlarini barcha ham yuqori darajada egallagan deyish qiyin. Orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz etish va imlo qoidalariga muvofiq yozishni jiddiy o'rganish lozim, chunki har ikki tovush ma'no ayiradi: xush-hush, shox-shoh, xol-hol, uxlamoq-uhlamoq va hokazo.

Bundan tashqari adabiy tilning og'zaki nutq me'yorlari doirasida ham yetarli qat'iylashmagan, talaffuzida ikkilanish bo'ladigan bir qator lisoniy hodisalar bo'lib, ular quyidagilar: 1) rus tili va boshqa g'arb tillaridan o'tgan so'z va terminlarnishevaga muvofiqtalaffuz etish; 2) so'zni yozilgandek, ya'ni yozma shakliga taqlidan talaffuz etish; 3) o'zlashgan so'zlarning urg'usini noto'g'ri qo'llash va h.k.

Yuqoridagi kamchiliklarning oldini olish maqsadida dastlab o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi bo'lgan talaffuz me'yorlari nazariy jihatdan asoslanishi, talaffuz va imlodagi farqlarning o'ziga xos jihatlari yoritilishi, o'zlashgan so'zlarning talaffuz me'yorlari ma'lum bir tizimga keltirilishi lozim.

Fikrni tinglovchiga adabiy til me'yorlariga muvofiq yetkiza olish ohang va urg'uning to'g'ri qo'yilishiga ham bog'liqdir. Ohang me'yori so'zlovchiningo'zgalargaqanday muomala qilayotganini, suhbatdoshiga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Nutqning o'ziga xos sintaktik tuzilishi, so'zlarning gapdagi o'rni, gap tarkibidagi eng ahamiyatli so'zlarni pauza orqali sekin yoki tez, baland yoki past ohangda talaffuz etilishi bilan so'zlovchi nutqida turli xildagi ohang (intonatsiya) hosil bo'ladi.

Nutq jarayonida ohang, asosan, quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Nutq oqimini ma'noli bo'laklarga ajratish va shu asosda mazmun ifodalash. Ohang va pauzaning o'zgarishi gap mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi. Masalan: Yaxshi, tashabbusni qo'llaymiz. Yaxshi tashabbusni qo'llaymiz. O'lim yo'q, shafqat! O'lim, yo'q shafqat!

2. Gap va so'zlarning o'zaro bog'lanishidagi murakkab holatlarni belgilashda, tugal fikr ifodalsh yoki so'roqni ajratishda; ayrim gap bo'laklarida, ya'ni uyushgan, ajratilgan bo'laklar, undalma va undov gaplar, atov gap yo to'liqsiz gap chegarasini aniqlashda ohang muhim o'rin tutadi. Masalan: Yangiyer (ot, atoqli ot) – yangi yer (so'z birikmasi). Tong. (atov gap), Tong? (so'roq gap), Tong!... (his-hayajon gap).

3. Nutqda rasmiylik ma'nosini ifodalash. Bunda so'zlovchi gap urg'usidan foydalanadi. So'zlovchi mavzuga oid muhim so'zlarni alohida ta'kidlab, baland ovoz bilan talaffuz qiladi, shu asosda shu so'zga tinglovchining diqqatini jalb qiladi.

**Imloviy (orfografik) me'yor.** Imloviy me'yor ham nutq madaniyatining asosiy mezoni hisoblanadi. Imloviy me'yorlar tilshunoslar tomonidan ishlab chiqiladi va ijtimoiy hayotga tavsiya etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonun qabul qildi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek



alifbosiga o'tilishi o'zbek tili imlosini isloh qilishni taqoza etdi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 24-avgustda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" ni tasdiqladi.

Tilda so'zlar va qo'shimchalarning ma'lum qoidalar asosida yozilishi amaldagi "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari"ga bo'ysunadi.

**Grammatik me'yor.**Grammatik me'yor deyilgandao'zbek tili grammatik qurilishi qonuniyatlari asosida belgilangan tartib-qoidalar, usullar, tamoyillar va shakllar mezoni tushuniladi. O'zbek tili grammatikasi tilshunoslikning nazariy jihatdan ancha takomiliga yetkazib ishlangan, so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gap tuzilishi me'yorlashgan bo'limidir.

Sheva va dialektlar bilan qiyoslangan holda adabiy til uchun turlovchi va tuslovchi hamda so'z yasovchi qo'shimchalarning eng maqbul variantlari tilshunoslar tomonidan tavsiya etilgan va grammatik me'yor sifatida belgilab berilgan. Shunga qaramay nutqda bu me'yorlarga hamma vaqt ham rioya qilinmaydi. Ayniqsa, -ning o'rnida -ni shaklini noto'g'ri qo'llash hollari uchrab turibdi: Direktorni xonasida ko'rdim. Direktorning xonasida ko'rdim. Birinchi gap mazmunidan direktorning o'zini, ikkinchi gap mazmunidan esa boshqa bir kishini ko'rganlik ma'nosi anglashiladi.Shu bois tushum va qaratqich kelishiklarining qo'llanilish me'yorlarini bilmaslk qo'pol xatolarni yuzaga keltirib chiqarish mumkin.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til me'yoriga yondashuvi quyidagi xususiyatlari bilan grammatik munosabatda farq qiladi.

a) nutq madaniyati adabiy til me'yoridagi o'zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til me'yorini doimiy rivojlanib, o'zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til me'yori

sistemasidagi yangi holatlarni, o‘zgarayotgan, o‘zgargan holatlarni, shuningdek, «o‘lgan», iste’moldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak.

v) nutq madaniyati adabiy til me’yori tizimidagi qarama-qarshi holatlarni belgilashi hamda tilning barcha yaruslari bo‘yicha tekshirishi lozim[21].

Nutq madaniyati adabiy me’yorni ma’lum maqsad bilan, anig‘i madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o‘rganadi. Shu sababli, nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning me’yoriy tizimini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasi adabiy tilga yondashadi, ya’ni adabiy til rivojiga ongli aralashadi.

Ma’lumki, tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo‘ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demakki, shu tilda so‘zlashuvchi millatning ma’naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so‘nishiga, ma’naviyatning qashshoqlanishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo‘lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o‘qishi, radio va televideniyani kuzatib borishi orqali hamda tinimsiz mustaqil shug‘ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo‘ladi.

[21] R.Qo‘ng‘urov va b.O‘sha asar. 39-bet.



Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq madaniyatiga ega bo‘ladi. Til madaniyatini egallashda tilga bo‘lgan e’tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim rol o‘ynaydi. Adabiy til va uning me’yorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug‘ullanish orqali egallab bo‘lmaydi.

Insonning nutq faoliyati uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: so‘zlash, mutolaa qilish va eshitish.

So‘zlash deyilganda, so‘zlovchining ma’lumot, maslahat berishi, buyurishi, o‘ziga noma’lum bo‘lgan narsalar haqida so‘rashi tushuniladi. So‘zlaganda so‘zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So‘zlashning monologik va dialogik ko‘rinishlari mavjud.

Mutolaa qilish o‘quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqatidir. Mutolaa tufayli yozma nutqda aks etgan voqea – hodisadan xabardor bo‘ladi.

O‘rta maktabda ta’lim olayotgan yoshlarni, ya’ni, jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetishtirishda o‘qituvchi mas’ul hisoblanadi. Jamiyat o‘qituvchining qo‘liga yosh avlodni, ya’ni o‘z kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishidao‘qituvchining nutqi o‘ta muhimdir. Demak, o‘qituvchilik kasbi insonparvarlik, vatanparvarlik, yuksak madaniyat bilan birga yuqori darajadagi nutqiy malakaga ham ega bo‘lishini talab qiladi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Adabiy me’yor nima? U nimaga asoslanadi?
2. Adabiy tilning qanday me’yorlari bor?
3. So‘z qo‘llash me’yori nima?
4. Talaffuz me’yori nima?

## Tayanch tushunchalar

1. Me'yor – adabiy me'yor jamiyatda til birliklaridan izchil, to'g'ri unumli foydalanish qonuniyatlarini ifodalaydi.

2. Jargon – (fransuzcha) biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos va o'zigagina tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan yasama tili.

3. Uzus – biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo'lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan qismi uzus deyiladi. Uzus bir tilni boshqasidan ajratib turadigan shartlarni ham, tilning ichki me'yorlarini ham o'z ichiga oladi.[22]

[22] T.Qudratov. O'sha asar. 1993, 36-bet.



# TIL VA NUTQ. NUTQ ODOBI

Til – aloqa vositasi, til - hayot ko'zgusi,til – ma'naviyat belgisi. Insonni hayvonot olamidan ajratib, uni koinot sarvariga va gultojiga aylantirgan ham tildir. Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur «mevalari» til va nutq orqali yuzaga chiqadi.

Qadimgi islomiy manbalarda aytilishicha, bani basharning yaratuvchisi Tangri taoloning bir og'iz «bo'l» degan so'zi bilan olam yaralgan ekan. Shuning uchun so'zga e'tiqod, so'zga berilgan ta'rifu tavsiflar, so'zning tarixiy xizmatiga aytilgan sharaflar cheksizdir. Ulug' Alisher Navoiy so'zga shunday baho beradi:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdurki, berur jong'axabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin.
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

So'zning tarixiy - madaniy, ma'naviy xizmati cheksiz, albatta. Lekin tilning imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonidaochiladi. Nutq bo'lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi.

«Qobusnoma»da Kaykovus «Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi», deydi. Bu so'zlarda shunday hikmat borki,so'zga chechan, so'zamol, notiq kishi hamma joyda obro' – e'tibor, hurmat topadi. Bunga Alisher Navoiy hayoti va faoliyatidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Zero nutq va tafakkur salohiyati uni vaziri a'zam darajasiga ko'targan edi.

G'arb donishmandlaridan R.Emirsonning ta'kidlashicha, «Nutq – qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi». Bu gapda nutqning shunday fazilati ta'kidlanayaptiki, u, birinchi navbatda, ishontirish san'atidir. O'quvchilar bilan muloqotda bo'layotgan o'qituvchi ishonarli gapirishi, nutqi dalillangan, puxta

asoslangan bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning ishonchini, mehrini qozongan o‘qituvchini haqiqiy ustoz deyish mumkin.

Qadimgi notiqlik san’ati harbiy sarkardalik san’ati bilan tenglashtirilgan. Bu bejiz emas. Chunki lashkar bilan zabt etib bo‘lmaydigan davlatlar va sarhadlarni so‘z san’ati bilan bo‘ysundirish mumkin.

Alisher Navoiy:

Olibmen taxti farmonimg‘a oson
Cherik chekmay Xitoydin to Xuroson,

deydi. Cherik – bu lashkar. Shoir lashkar tortmasdan Xitoydan Xurosongacha bo‘lgan sarhadni zabt etganligi haqida faxrlanib so‘zlamoqda. Ma’lumki, Alisher Navoiyning ta’sir doirasi va darajasi har qanday harbiy sarkardadan ham ustun bo‘lgan. Sulton Husayn Boyqaroning o‘zi ulug‘ shoirni maxsus risolasida ta’riflab «So‘z sohibqironi» deb atagan edi.

So‘zning sehriga, qudratiga, sarkarda bajaraolmaydigan vazifani so‘z sohibqironi uddalaganligiga yana bir hikoyatni misol qilib keltirish mumkin. Hikoyat mazmuniga ko‘ra Husayn Boyqaro uzoqda shikor bilan mashg‘ul ekan. Saroyda malikaog‘ir, betob yotgan ekan. Kunlardan bir kuni malika hayotdan ko‘z yumibdi. Ammo podshohga o‘lim xabarini yetkazishga hech kim jur’at etmabdi. Shunda saroy a’yonlari so‘z sarkardasi Navoiyga murojaat qilishibdi. «Shohga shum xabarni yetkazgan kishi, shubhasiz, jazoga mahkum bo‘ladi. Mushkulni faqat sizning tadbirkorligingiz, suxandonligingiz oson qilishi mumkin», – deyishibdi. Shunda Navoiy bir satr she’r yozib beribdi. Uni chopar orqali Husayn Boyqaroga yetkazishibdi. Podshoh o‘qibdi:

Sarvigulning soyasinda so‘ldi gul, netmoq kerak?

Husayn Boyqaro darhol misraning mazmunini tushunibdi. Hech bir talvasaga tushmasdan, vazminlik bilan she’riy savolga she’riy javob yozibdi:



Sarvidin tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak!

Saroy ahli chopar keltirgan xatni o‘qib, so‘zning qudratiga qoyil qolishibdi, dafn marosimiga kirishishibdi.[23]

Til va nutq o‘zaro bog‘liq hodisalar bo‘lib, til nutq uchun ashyodir, imkoniyatdir, nutq esa voqelikdir, ya’ni nutq til materiali asosida tashkil topadi. Til jamiyat a’zolari uchun umumiy bo‘lib, ruhiy va moddiy materialdan iboratdir.

So‘z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy «material» hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma’lum tovush tizimida namoyon bo‘ladigan so‘z va morfemalar moddiy materialdir. Tilning ruhiy hodisaligi uning xotirada saqlanishi bilan bog‘liqdir.Tilning moddiyligini nutq jarayonida yuzaga keluvchi tovushlar belgilaydi.

Biz xotiramizda saqlanadigan qoidalardan tezkorlik bilan foydalanib, biror fikrni yuzaga chiqarish uchun so‘zlarni, grammatik ma’no tashuvchi morfemalarni va so‘z shakllarini, asosan, gaplarni hosil qilamiz. Masalan, bizda kitobning qayerdan olinganligini bilish haqidagi fikr tug‘ildi, deylik. Uni quyidagi savol shaklida yuzaga chiqaramiz: Sen kitobni qayerdan olding?

Bunda biz *sen, kitob, qayer, ol* leksemalaridan; *-ni, -dan, -ding* morfemalaridan va so‘roq gap modelidan – qoidasidan foydalandik. Mazkur gapni aytish jarayonida xotiramizdagi leksemalar alohida affiks morfemalarni olib, so‘z shakllariga aylandi va yuqoridagi tartibni egalladi. Til ruhiy hodisadan moddiy hodisaga aylandi.

Nutq tildagi ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir. Nutq nutq a’zolarining harakatiga ko‘ra yuzaga kelib, ikki xil bo‘ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Kishilarning tovushlarni - so‘zlarni talaffuz qilmasdan fikrlashi, mulohaza

[23] Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Istiqlol va ona tilimiz. –T.: 1998, 47-bet.

yuritishi, o‘ylashi ichki nutqdir... O‘pkadan chiqqan havoning nutq a’zolariga ta’siri, shu ta’sir natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir.

Nutq harakatdagi tildir. Nutq til birliklarini o‘zaro mantiqiy bog‘lab, ularni harakatga keltiradi. Nutq so‘z, so‘z birikmalari va gaplardan iborat bo‘ladi.

Nutq, nutq odobi insonning ma’naviyatini-ma’rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak, kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko‘rinadi. Nutq odobi nima?

Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos holda adabiy me’yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so‘zlovchi tilni mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o‘rganish orqali erishiladi. O‘quvchi uchun esa eng yaxshi namuna o‘qituvchidir. Buni o‘qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo‘ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: «Bitta salom bilan beshta narsaga – o‘zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo‘lish va nihoyat uzoq umr ko‘rishga erishiladi».

Ha, salomda gap ko‘p, salomlashish, salom berishning ham o‘ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Afsuski, o‘zimizning sharqona salomlashish odobimizga yetarli darajada e’tibor bermayapmiz.

Avvalo, har bir muslim va muslima salomlashish ham farz, ham qarz ekanligini yaxshi anglab yetmog‘i lozim. Chunki «So‘z boshi – salom», deganlaridek, suhbatdoshlar muloqoti «assalomu alaykum», «vaalaykum assalom» jumlalari bilan boshlanadi. Bu



suhbatdoshlarning tanish yoki notanishligidan qat’i nazar o‘zaro hurmat va ehtirom belgisi hisoblanadi. Ammo keyingi paytlarda biror joyga kirib borayotgan, telefonda suhbat boshlayotgan kishilarning salomlashishni unutib borayotganligiga tez-tez guvoh bo‘lib qolmoqdamiz.[24]

Madaniyatli kishi o‘z aybini bo‘yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so‘rashni ham bilishi lozim. O‘z aybi uchun uzr so‘rash o‘z g‘ururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan «xayr, sog‘ bo‘ling», «xayr, ko‘rishguncha», «xayr, omonlikda ko‘rishaylik» kabi ta’sirchan iboralar mavjud. O‘qituvchi sinfdan chiqayotganda «xayr, sog‘ bo‘linglar», «xayr, yaxshi qolinglar» iboralarini ishlatsa, o‘rinli bo‘ladi.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o‘z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o‘rgatib borish lozim. Tilimizda rag‘batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o‘z o‘rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O‘qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o‘quvchilar-ni «ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so‘zlar bilan rag‘batlantirishi lozim.

«Har bir kishining madaniylik darajasi, o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og‘zaki nutqidan bilinadi» (S.Ibrohimov).

Tilning dunyoni bilish, bilimlarni to‘plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga

[24] Siddiq Mo‘min. So‘zlashish san’ati. Farg‘ona, 1997, 27 – bet.

qaramasdan, uning asosiy funksiyasi kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashdir.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Tom ma’nodagi madaniy kamolotning muhim belgisidir. Haqiqiy ma’nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining muhim jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham hozirda mamlakatimizdagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlar har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizning «Davlat tili haqida»gi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunlarida, «Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturi» va boshqa juda ko‘plab hujjatlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Jamiyatimizning har bir a’zosi, har bir mutaxassis zamon bilan hamqadam bo‘lishi, eng avvalo, o‘z ona tilining sadoqatli sohibi bo‘lmog‘i lozim.

Til jamiyat bilan, uning ma’naviyati, ma’rifati va madaniyati bilan birgalikda yuksaladi.



## NUTQ BIRLIKLARI

Nutq birliklari shunday birliklarki, ularsiz nutq jarayonini, nutqiy faoliyatni – nutq madaniyatini, madaniy nutqni “yoritib bo‘lmaydi”. Chunki nutq madaniyati – madaniy nutq lisoniy birliklarning “harakatidan”, faoliyatidan yuzaga keladi. Nutq birliklarisiz na nutqni, nutq faoliyatini, nutq jarayonini, umuman, nutq madaniyatini – madaniy nutqni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki nutq madaniyati, madaniy nutq talaffuz, urg‘u, so‘z, so‘z qo‘llash, so‘z birikmasi, gap, matn kabilar asosida yuzaga keladi. Ular nutqning nutq madaniyatining, madaniy nutqning moddiy, ta’sir qiluvchi birliklaridir, ashyosidir.

Nutqni, nutq madaniyatini ta’minlovchi, harakatga keltiruvchi lisoniy birliklar turlicha bo‘lib, ularning har birining nutq madaniyatida alohida o‘z o‘rni va vazifasi bor. Ushbu lisoniy birliklar bevosita nutq bilan bog‘liq birliklar bo‘lib, ular tovush, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, gap va matnlardir,

**Tovush**. Tovush nutqning eng kichik (minimal) birligi bo‘lib, uning talaffuzi, ta’sir qilishi, sezgi uyg‘otishi, balandligi, kuchi, tembri, cho‘ziqligi, aniqligi kabi jihatlari borki, bularsiz nutqni – madaniy nutqni, nutq madaniyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki tovush nutqning, madaniy nutqning, nutq madaniyatining eng asosiy, birlamchi qurilish materialidir. Ushbu birliksiz nutq hosil bo‘lmaydi, hosil bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki tovush talaffuz qilinish va eshitish jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Demak, tovush har qanday nutqning, shu jumladan, madaniy nutqning, nutq madaniyatining birlamchi elementi, moddiy asosidir. Aslida nutq madaniyati, madaniy nutq tovushdan, uning ruhiyatga ta’siridan boshlanadi. Chunki nutq madaniyatida – madaniy nutqda nutq texnikasini harakatga keltiradigan, uni “real” qiladigan asosiy birlik tovushdir.

**Bo‘g‘in.** Sillabika muammosining tadqiq obyekti bo‘g‘indir. Bo‘g‘in nutqning kichik qismi bo‘lib, bir nafas chiqarish jarayonida talaffuz qilinadi. Bo‘g‘in bir yoki bir necha tovushdan iborat bo‘ladi. Bo‘g‘in asosida unli tovush yotadi. Shunga ko‘ra bo‘g‘inning, aniqrog‘i, unli tovushning so‘zning qaysi o‘rnida kelishiga ko‘ra bo‘g‘inlar so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida keladi. Bo‘g‘inlar cho‘ziqligi nuqtai nazaridan cho‘ziq va qisqa bo‘ladi. Demak, nutqning – so‘zlarning ta’sir quvvatini oshirishda bo‘g‘inlar, shak-shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. So‘zning madaniy birlik hisoblanishi, nutq madaniyati uchun muhim birlik ekanligi bevosita so‘z bilan, so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlar bilan, ularning shakli, miqdori, qo‘llanishi, tuzilishi, aytilishi kabilar bilan belgilanadi. Xullas, so‘zning madaniy ta’sirini, nutq tuzishda uning ahamiyatini, ta’sir quvvatini belgilovchi moddiy birlik bo‘g‘indir.

**So‘z.** Nutq birligi bo‘lgan so‘z (so‘z formasi) nutq faoliyati bilan bevosita bog‘lanadi, nutq jarayonida voqelanadi. Shunga ko‘ra u nutq boyligi, madaniy nutq birligi hisoblanadi. So‘zning nutq madaniyatidagi – madaniy nutqni “yaratishdagi” o‘rni, shak-shubhasiz, beqiyos bo‘lib, bu uning madaniy nutqda mohirona ishlatilishiga, ma’no imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga, ta’sir qilish qobiliyatini “ishga solishga”, uning omonimlik, sinonimlik xususiyatlarini yuzaga chiqarishga, ayniqsa, takrorlash orqali ruhiyatga – tasavvur hosil qilaolishiga bog‘liq.

**So‘z birikmasi.** Nutq birligi bo‘lgan so‘z birikmasi nutq jarayonida yuzaga keladi. So‘z birikmasi semantikasi so‘z semantikasiga nisbatan aniqroq, chuqurroq, mukammalroq bo‘ladi. Ham shaklan (tuzilishiga ko‘ra), ham mazmunan o‘ziga xos salmoqqa, ta’sir quvvatiga ega bo‘lgan so‘z birikmasi madaniy nutq tuzishda faol birlik hisoblanadi. Uning faolligi, ta’sir quvvati bevosita birdan ortiq so‘zlardan hosil bo‘lishi bilan shunga ko‘ra



ma’no imkoniyatining ham “o‘sishi”, chuqurlashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘z birikmasi ham, so‘z kabi, nutqning madaniyligini ta’minlovchi asosiy qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi.

**Gap.** Nutqning asosiy birliklaridan bo‘lgan gap madaniy nutq hosil qilishda, fikr ifodalashda, intonatsion tugallikka, ta’sir quvvatiga, “madaniylik” darajasining boshqa nutq birliklariga nisbatan ortiqligiga ko‘ra ajralib turadi, yetakchilik qiladi. Chunki gap fikriy tugallikka, shaklan yiriklikka, intonatsion bir butunlikka ega bo‘lib, madaniy nutq hosil qilishda dominant – yetakchi hisoblanadi.

**Matn.** Matnning ham madaniy nutq hosil qilishdagi xizmati beqiyos bo‘lib, gap birligi bilan hamkorlik qilib, tarkibiga bir necha gaplarni biriktirib, nutq madaniyatida eng yirik va eng murakkab nutq birligi hisoblanadi. Nutqning go‘zal, madaniy, ta’sirli bo‘lishida asosiy xizmat matnga, uning shakl va mazmuniga tushadi. Anig‘i matn nutqning ta’sirli, madaniy bo‘lishida xizmat qiluvchi nutq birliklari – tovush, bo‘g‘in, qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni o‘zaro birlashtirib, “butunlab” madaniy nutqni yaratadi. Barcha nutq birliklari matnga xizmat qilladi. Matn esa bir butun holda madaniy nutq sifatida voqelanadi. Masalan: Mening ko‘p gullarim ochilmay xazon bo‘ldi. Mening bir qanotim Ahmad tanbalning olovida kuydi-yu, ikkinchi qanotimni Shayboniyxon kuydirdi. Ilohim, endi siz shu mash’um olovlarning orasida qolmang (P.Qodirov). Ushbu madaniy yozma nutqdagi har bir lisoniy birlikning xizmati, faolligi bor. Ushbu matndagi qator so‘z va so‘z birikmasi – gullarim, qanotim, olovida kuymoq va murojaat hamda undov birliklari – xazratim, ilohim kabilar nutqning madaniyligi, mantiqiyligi uchun xizmat qilgan. Yana qiyoslang: Yer-u osmon, daraxt-u yomg‘ir, nish urish orzusidagi kurtagu, unga lab tegizgan tomchi, ko‘kdagi bulutdan barqini kutgan maysalar, chechaklar yamoqchi sog‘inch dardida butun

bo‘ladilar endi. Bilaman, zamin-u falak visoli xayoliy ufqdagina namoyon. Bilaman... Ammo... Qalbim zulflariga urilgan shivir-shivirlarni sezmaslikni eplay olmayapman sog‘inch – umrim yamog‘i ... (Y.Akram).

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Til qanday hodisa?
2. Alisher Navoiy til va nutqni qanday ta’riflaydi?
3. Nutq nima?
4. Nutqiy odobi nima?
5. Nutq birliklariga nimalar kiradi?
6. Nutq birliklariga oid xususiyatlar nimalardan iborat?

**Tayanch tushunchalar**

Odob - muomalada o‘zini tuta bilish.

Nutq odobi - adabiy me’yordagi nutq.

So‘z - ma’no ifodalovchi til (nutq) birligi.

Matn - nutqning eng yirik va eng murakkab birligi. Matn tuzilishiga ko‘ra bir necha gaplardan iborat bo‘ladi.



## TIL IDEALI, TIL MADANIYATI, TIL ESTETIKASI

**Til ideali.** Til ideali tushunchasi, shak-shubhasiz, adabiy til tushunchasi bilan bevosita bog‘lanadi. Chunki til ideali adabiy tilning yuksak darajada qayta ishlanib, ishlov berilib, muayyan kamchiliklardan, g‘alizlikdan, qorishiqlikdan tozalanib, holi qilinib, ravon qilingan, takomillashgan “shakli”dir. Shuningdek, til ideali adabiy tilning mantiq jihatidan, uslub jihatidan ham puxta, mukammal, silliqlangan, qat’iy me’yorlashgan holga keltirilgan ko‘rinishidir, holatidir. Aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek adabiy tili til idealiga aylanishi uchun yuqorida aytilgan jihatlarga ega bo‘lishiga, takomillashib, mukammallikka intilmoqda, harakat qilmoqda. Shu o‘rinda tarixiy o‘zbek adabiy tilini, ya’ni Navoiy, Bobir, Zebiniso, Uvaysiy va b.qalam ahlining she’riy tilini o‘z davri uchun ideal til darajasiga yetgan, “pardoz berilib”, “kamolatga yetkazilgan”, sayqal topgan til – ideal til deb aytish maqsadga muvofiqdir. Qiyoslang:

Turki nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.
“To‘rt devon” birla nazmi “Panj ganj”,
Dast berdi chekmayin anduhu ranj.
(Alisher Navoiy Lison ut-tayr)

Qo‘lig‘a olib nayza o‘rnig‘a kilk,
So‘z iqlimini sarbasar qildi milk.
(Alisher Navoiy)

Ichguncha jomi ajal ko‘nglumda ul soqiydurur,
To‘lg‘uncha paymonam ul soqiy bila boqiydurur.
(Bobir)

Ey qomati sarvu lablari obi hayot,
Budur tilagimki, yetgamen vaslingga bot!

Hajringda manga ne sabr qoldi, ne sabot,
Yo kel bu sorig‘a yo meni o‘zunga qot.

(Bobir)

**Til madaniyati.** XX asr tilshunoslik fanining – system tilshunoslikning bosh, asosiy mezoni til va nutq dialektikasi hamda til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlashdir[25].

Til va nutq dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda falsafa, tarix, psixologiya, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biridir.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq natijasida nutq shakllanadi. Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati – faolligi uchun xizmat qiladi[26]. Demak, til va nutq farqlanishi ayni haqiqat. Til va nutq farqlanar ekan, shak-shubhasiz, uning birliklari ham farqlanadi. Bu – aksioma.

“Nutq madaniyati” fani nuqtayi nazaridan nutq madaniyati tushunchasi ta’riflanar ekan, albatta, til madaniyati tushunchasi ham ta’riflanishi, sharhlanishi, shart. Chunki bularning har ikkisi, ya’ni til va nutq o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgani holda, ularning har biriga xos muhim jihatlar, umumiy va farqli xususiyatlar bo‘lib, aytilganlardan kelib chiqib, til madaniyati tushunchasini ham ta’riflash, sharhlash lozim.

Til madaniyati shunday madaniyatki, u adabiy tilga xos sifat va jihatlar, xususiyatlar birligidan, bog‘liqligidan, ularning rivojlanishidan iboratdir. Bu sifatlar – turg‘unlik va barqarorlik, lisoniy birliklar ma’no qirralari, semema semalarining – ma’no bo‘yoqlarining – konnatatsiyasining aniq, tushunarli, ta’sirli, original, individual berilishidir. Aniqrog‘i, til madaniyati tilning

[25] Ҳ.Неъматов, Р.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.,1965, 3-бет. R.Rasulov Umumiy tilshunoslik. –T.,2021, 165-bet.
[26] R.Rasulov. O‘sha asar, 165-bet.



“madaniylashganlik”, adabiylashganlik, me’yorlashganlik darajasini, lug‘at tarkibi, grammatik, semantik, stilistik jihatlarining rivojlanganlik, boylik darajasini, yashirin ifoda imkoniyatlarining qamrovini ifoda etadi[27].

**Til estetikasi.** Umum tilshunoslikda til estetikasi tushunchasi ham bo‘lib, ushbu tushuncha tilning estetik funksiyasi tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Til estetikasi va tilning estetik funksiyasi kabilar til madaniy taraqqiyotining qonuniyatlarini, uning badiiy shakllarini belgilovchi, tildagi barcha jozibalik va go‘zalliklarni o‘zida egallaydi. Shuningdek, ushbu tushunchalar tilning fikr almashuvdagi, aloqa jarayonidagi turlicha his-tuyg‘ularni, emotsiyalarni hamda ruhiyatga ta’sir qilishi kabi jarayonlarni namoyon qiladi[28], ta’sirli nutqni – madaniy nutqni yuzaga keltiradi.

[27] Qarang. Маҳмудов Н.Ўқитувчи нутқи маданияти. –Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона, 2007. 21- бет. Э.Бегматов Нутқ маданияти тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975, –№5.50-58-бетлар.
[28] A.Mamatov. Nutq madaniyati va til normasiga oid terminlar va tushunchalar izohi. –T., 2014, 30-bet

## NUTQ MADANIYATI VA MADANIY NUTQ

Nutq madaniyati tilshunoslik fanining alohida mustaqil sohasi, bir bo‘limi bo‘lib, qamrov jihatdan kengligi va murakkabligi – adabiyotshunoslik, mantiq, psixologiya, stilistika bilan bog‘liqligiga ko‘ra ajralib turadi.

Nutq madaniyati tushunchasi bevosita til bilan til birliklari – lisoniy birliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan rejali, maqsadli foydalanish, tilimiz boyliklarini harakatga keltirish, ya’ni til umumiyligidan, imkoniyatidan nutqni madaniylik mezoni asosida ta’sir quvvatini, shaklan go‘zal bo‘lishini asosiy jihat deb qo‘ygan holda foydalanish jarayonidir. Shuningdek, nutq madaniyati qayd etilgan jarayonda tildan foydalanish qoidalarini mukammal bilishni talab etadi. Shuningdek, u so‘z qo‘llash, gap tuzish – matn yaratish me’yorlariga amal qilishni ham talab qiladi. Albatta, nutq madaniyati nutq tuzishda nutqning kommunikativ sifatlariga asoslangan, ularga qat’iy amal qilgan holda ish olib boradi. Demak, nutq madaniyati – madaniy nutq nutqning qator kommunikativ sifatlariga asoslanadi va ularga qat’iy amal qiladi. Bular madaniy nutqning asosiy mezonlari, me’yorlari sifatida xizmat qiladi.

Ma’lum bo‘ldiki, nutq madaniyati madaniy nutq uchun kurashadi, madaniy nutqni targ‘ib qiladi, lisoniy birliklardan oqilona, mohirona foydalanishga – qayd etilgan mezonlarga asoslangan holda nutq tuzishga chaqiradi.

Madaniy nutq, ta’sirli nutq tinglovchilar auditoriyasini hisobga olgan holda – ularning saviyasini, bilim darajasini, yoshini, mutaxassisligi va b.anglagan holda ayni sharoitga mos nutq turini, nutq ko‘rinishini tanlaydi. Fikrimizcha, bu holda, bu jarayonda muhimi tinglovchilarning faqat berilib tinglashi, eshitishi emas, balki ularning tushunishi, qanchalik qabul qilishi, biror hodisa haqida to‘liq, mukammal ma’lumot, tuhuncha hosil qilishi



maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jim o‘tirib, ruhiyatga berilib tinglasa-yu, tushunmasa, bunday madaniy nutq talabga javob bermaydi. Madaniy nutqni madaniy tushunish lozim.

Fikrimizcha, tinglovchi nutqni – madaniy nutqni yetarli darajada, yaxshi tushunsa, to‘liq ma’lumot olgan bo‘lsa – shunda u sukut saqlashdan, jim o‘tirib eshitishdan so‘zlashga, so‘zlovchi bilan muloqotga kirishishiga, bahs-munozaraga o‘tishga kirishishi mumkin. Muloqotga kirishish, fikr bildirish o‘z nuqtai nazarini aytish – bu tinglovchining so‘zlovchi nutqini yetarlicha tushunganligining mahsulidir.

Xulosa shuki, madaniy nutq faqat shaklan emas, u mazmunan ham madaniy bo‘lishi, g‘alizlikdan, murakkablikdan holi bo‘lishi lozim. Madaniy nutq, birinchi navbatda, tinglovchilarning tushunish qobiliyatini hisobga olgan holda, tushunish jarayonini ham kuzatgan, nazorat qilgan holda[29] ham shaklan, ham mazmunan go‘zal bo‘lishi lozim.

Manbalarda nutq madaniyati tushunchasining muhim jihatlari sifatida quyidagilar qayd etiladi: a) tilni, ya’ni to‘g‘ri so‘zlashni his qila olish; b) aniq, ravshan va ifodali nutq tuzishning mezon va usullarini egallash; v) egallagan lisoniy birliklarni kundalik og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay olish; g) o‘zgalarning (suhbatdoshning) nutqini nozik did bilan tushuna olish qobiliyatini shakllantirish[30]. Shuningdek, nutq madaniyatining ikki aspekti ham alohida ko‘rsatiladi. Bular – nutq madaniyatining kommunikativ va psixologik aspektlari.

Nutq madaniyatining kommunikativ aspekti quyidagicha bayon qilinadi: Bu tushuncha suhbat, ma’ruza rejasining tinglovchilarga mos kelishi, tinglovchilarni o‘z nutqiga jalb eta olishi, berilgan materialni mustahkamlay olishi, tinglovchilarni

[29] Tinglovchilarning faqat jim, sukut saqlab o‘tirishi bilan cheklanmaslik lozim.
[30] A.Mamatov. O‘sha asar. 20-bet.

suhbatga tayyorlay olishi, texnik vositalardan, ko‘rgazmali qurollardan unumli foydalana olishi, “so‘zlovchi-tinglovchi” o‘rtasidagi muloqotning doimiyligini ta’minlashi.

Nutq madaniyatining psixologik aspekti esa so‘zlovchining nutq shakliga va mazmuniga e’tibor berishini, shuningdek, tinglovchilarning psixologik xususiyatlari, ya’ni ularning kayfiyati, xotirasi, diqqati, qiziqishlari, idrok etishlari, mijozini hisobga olishining uddasidan chiqa olish va mana shu xususiyatlarga mos ravishda nutqiy aloqa qilish[31].

[31] A.Mamatov. O‘sha asar. 20-bet.



## NUTQ MADANIYATI VA NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Nutq madaniyati fani tomonidan nutq oldiga qo‘yiladigan talablar lingvistik, psixik, estetik, logik talablar bo‘lib, ular nutqning kommunikativ sifatlarini belgilaydi.

Nutqning kommunikativ sifatlari: to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, tozaligi, ta’sirchanligi, maqsadliligi, boyligi va b.

1. Nutqning to‘g‘riligi. Nutqning to‘g‘riligi kommunikativ sifatining o‘ziga xosligi shundaki, so‘z birikmasidagi to‘g‘ri so‘zi ko‘chma, ya’ni adabiy til qonun-qoidalariga, talablariga javob beradigan, unga mos bo‘lgan ma’nosini berib, nutq so‘zi bilan bog‘lanib, mazkur fanning eng muhim terminlaridan biriga aylangan. Ayni vaqtda u nutqning kommunikativ sifatlari ichida eng asosiy, ya’ni dominant (hukmron) sifat hisoblanadi. Chunki nutqning to‘g‘riligi adabiy til qoidalari, me’yorlari asosida yuzaga keladi. Shunga ko‘ra nutq jarayoni aniq, mantiqiy, maqsadga muvofiq bo‘ladi, suhbatdoshlar o‘rtasida o‘zaro tushunish jarayoni ham amalga oshadi. Qiyoslang: Qalin o‘rmon ichidan yorib o‘tgan bir tutam nur oq qayinni, go‘yo ichidan yoritganday, shaffof qilib ko‘rsatar edi (A.Muxtor). Demak, ushbu nutq grammatik me’yorga asoslangan, gap tuzish qoidalaridan to‘g‘ri foydalangan, shakl yasovchi qo‘shimchalar o‘z o‘rnida qo‘llangan holda, shuningdek, ega va kesim mosligiga, ayrim bo‘laklarning (so‘z va so‘z birikmalarining) ega yoki kesim bilan bevosita bog‘lanishiga e’tibor qilgan, hatto ba’zi hollarda kelishik qo‘shimchasining qo‘llanmasligi ham mumkin degan qoidaga amal qilgan holda tuzilgan. Ushbu nutqda, ayni vaqtda, fonetik jarayonga – so‘z urg‘usiga va mantiqiy urg‘uga ham alohida e’tibor qaratilgan.

2. Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi ham nutq faoliyatining eng muhim xususyatlaridan, sifatlaridan biridir.

Qadimda Sharqda ham, G‘arbda ham buyuk allomalar nutqning aniqligini uning bosh sifatlari qatoriga kiritishgan. Demak, nutqning aniqligi muhimligi jihatidan nutqning to‘g‘riligi kommunikativ sifatidan qolishmaydi.

Nutqning aniqligi obyektiv borliq predmetlari bilan nutqda ifodalangan fikr, mazmun orasidagi moslikni nazarda tutadi. Aytilgan fikr nuqtayi nazaridan quyidagi gapni tahlil qilar ekanmiz, unda predmet bilan uni anglatayotgan so‘z ma’nosi o‘rtasida moslik, muvofiqlik yo‘qligini ko‘ramiz. Qiyoslang: “Dastlabki tergov materiallariga ko‘ra T.Sobirov … rashk holatida I.Sultonov bilan janjallashib, uning … bosh tepa qismiga, ***chap orqa ko‘krak sohasiga,*** … hayot uchun xavfli bo‘lgan jarohat yetkazgan”.[32] Bu o‘rinda ***chap orqa ko‘krak sohasiga*** birikmasi qo‘llanishida inson tana a’zolarini yaxshi bilmaslik natijasida aniqlik buzilyapti. Chunki ko‘krak – tananing bo‘yindan qoringacha bo‘lgan old qismi tushunchasini beradi.[33]Yana qiyoslang: Botir beliga qator beshta bomba qistirib, … Qo‘liga bomba ushlagan holda ko‘chaga yugurdi (Ma’ruf Hakim). Ushbu gaplardan bomba so‘zining noto‘g‘ri qo‘llanilayotgani yozuvchining bomba va granatani farqlamasligi, ularni bir narsa deb tushunishi ma’lum bo‘ladi.[34]

Demak, nutqning to‘g‘riligi va aniqligi nutqni nutq qiladigan, nutqning ijtimoiy-amaliy qimmatga ega bo‘lishini – kommunikatsiyalarini ta’minlaydigan, tilning qudratli, tengi yo‘q aloqa quroli ekanligini belgilaydigan, lisoniy taraqqiyotga xizmat qiladigan bosh funksiyasidir, sifatidir.

3. Nutqning mantiqiyligi. Nutqning mantiqiyligi terminida mantiqiylik logik kategoriya sifatida mantiqqa asoslangan, muayyan mantiqqa, mazmunga, g‘oyaga ega bo‘lgan ma’noni

[32] O‘zbekiston advokatlarining himoya nutqlari. T., 2006, 50-bet
[33] O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2-jild. T., 2006. 452-bet
[34] Qar: R.Qo‘ng‘urov va b. O‘sha asar. 56-bet



berib, to‘g‘rilik va aniqlik tushunchalari bilan bevosita bog‘lanadi. Chunki to‘g‘ri va aniq nutq mantiqan izchil bo‘ladi. Bu esa kommunikantlarning bir-birini to‘liq tushunishlari, nutqda ifodalanayotgan fikrning to‘liq yetib borishi, fikrni, g‘oyani to‘liq anglashi uchun asosiy mezon hisoblanadi. Demak, nutqning mantiqiyligi nutqda ifodalanayotgan fikrning izchilligi, tushunilishini, nutqdagi lisoniy birliklarning muayyan maqsadga yo‘naltirilishni talab qiladi. Qiyoslang: Yoz og‘zidan bol tomizib, dunyoni sharbatga to‘ldirdi (M.Ismoiliy). Kechagina chumak uraboshlagan chillaki uzumlar dasturxondan arib, o‘rnini kahrabo husaynilarga bo‘shatib berdi. (A.Muxtor). *“... ilgari 3 marotaba sariq kasal bo‘lganini, jigar sirrozi boshlanib, og‘riqqa chiday olmaganligi uchun IIB xodimlari aytgan ko‘rsatuvlarini birinchi kechasi yozib berganligini ... bu haqda ishda birinchi kun qatnashgan advokatga ham aytganligini bayon etdi”*[35] Bu gapda … ***jigar sirrozi boshlanib, og‘riqqa chiday olmaganligi uchun*** jumlasini tahlil qiladigan bo‘lsak, sariq kasal bo‘lganda jigar sirrozi bilan kasallangan insonlarda og‘riq kuzatilmaydi. Demak, bu o‘rinda mantiqiylik buzilgan, aksincha, nomantiqiylik yuzaga kelgan.

4. Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi terminidagi toza so‘zi ko‘chma ma’noda kelib, nutqning tilimizga yot, begona bo‘lgan, nutqning sofligini “buzadigan”, tilimiz uchun zarur bo‘lmagan birliklardan holi qilishni anglatadi. Aniqrog‘i, nutqning tozaligi kommunikativ sifati nutqning adabiy til me’yoriga zid bo‘lgan, lisoniy asabimizga yoqimsiz ta’sir qiladigan so‘zlardan, qo‘llanilishi mutlaqo shart bo‘lmagan birliklardan “yuz o‘girish” tushunchasini beradi. Demak, nutqning tozaligi nutqning adabiy til me’yoriga muvofiq bo‘lishini talab qiladi. Xullas, jamiyat a’zosi

[35]O‘zbekiston advokatlarining himoya nutqlari. 54-bet

nutqiy faoliyatini adabiy til me'yorlari, qoidalari, talablariga mos holda tuzishi, so'zlashi yozishi lozim.

Lisoniy adabiyotlarda nutqning tozaligini, sofligini buzuvchi hodisalar sifatida quyidagilar qayd etiladi:

1. Dialektizmlar.
2. Varvarizmlar.
3. Jargonizmlar.
4. Argoizmlar.
5. Vulgarizmlar.
6. Parazitizmlar.
7. Kanselyarizmlar

1. Dialektizmlar. Dialektizmlar shevaga xos birliklar – so'z, so'z birikmasi bo'lib, ularni nutqda o'rinsiz, ya'ni nozarur qo'llash nutqni buzadi, uning tozaligiga, sofligiga putur yetadi. Qiyoslang: Qishloqdan ikki kun oldin bachalarni (bolalarni – P.P) olib keldim (talabalar nutqidan). Ayni vaqtda shevaga oid so'zlarni o'rinli, zaruriy qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu jarayon, asosan, badiiy asarlarda badiiylik, badiiy niyatni ifodalash uchun, estetik zavq uyg'otish, milliy ruhni berish uchun xizmat qiladi. Qiyoslang: "Yoshulli, siz buni emas, meni tinglang. Bu mang'layi qoraning sherigi bor" (T.Malik). Bu o'rinda yoshulli, mang'layi qora dialektizmlari muayyan hududga tegishlilikni anglatish uchun xizmat qiladi. Yana qiyoslang: Ishlaring yoqshima, Mirzo, deb so'radi xon (A.Qodiriy).

2. Varvarizmlar. Varvarizmlar boshqa – qardosh va qardosh bo'lmagan tillarga oid so'z va so'z birikmalaridir. Ular, masalan: ***итак, просто, законный, уже, так, короче, остоновка, супер, во*** va b. – o'zbek tiliga o'zlashmaganligi, tilimiz tarkibiga singmaganligi bilan ajralib turadi. Aniqrog'i, bunday birliklar stol, stakan, sport, vagon, kino, samolyot, poyezd kabi tilimizga o'zlashgan, uning lug'at tarkibidan joy olgan uzual birliklardan



keskin farq qiladi. Tilimiz tarkibidan joy olmagan, ya'ni okkozional birliklar nutqda maqsadga muvofiq qo'llanmasligi, "yoqimsizligi", nutqiy faoliyat, ya'ni fikr almashish jarayonida tinglovchining g'ashini keltirishi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra ular varvarizmlar deb nomlanadi. Qiyoslang: Shahnoza, bugun Ruxsoraning tug'ilgan kuni, unga podarka olishimiz kerak (Talabalar nutqidan). Ostonovkada turibman, tez kel (So'zlashuv nutqidan). Varvarizmlar ham muayyan maqsadni ko'zlagan holda badiiy asarlarda u yoki bu obraz tabiatini, xarakterini ochishda qo'llanib, badiiylik uchun xizmat qiladi.

3. Jargonizmlar. Jargonizmlar biror ijtimoiy guruh a'zolari, masalan, otarchilar, firibgarlar, qimorbozlar, gadoylar, savdogarlar, qamalib chiqqanlar, fohishalar va b. tomonidan maxsus yaratilgan, o'zlari uchungina tushunarli bo'lgan, shunga ko'ra, xalq tilidan farqlanib turadigan so'z va so'z birikmalari. Jargonizmlaring o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning ayrimlari kamsitish, yerga urish kabi salbiy konnotatsiyaga ega bo'ladi. Qiyoslang: loy (pul), ment (militsioner), qaychi (revizor), soqqa, yakan, qurug'i (pul), shuxer, atas, atanda (qochmoq), ko'k (dollor). Jargonizmlar ham badiiy asarlarda qo'llanilib, muayyan estetik vazifa bajaradi.

4. Argoizmlar. Argoizmlar ham jargonizmlar kabi biror ijtimoiy guruh tomonidan muayyan maqsadda sun'iy yaratilgan so'z va so'z birikmalaridir. Qiyoslang: qimorbozlar, o'g'rilar o'rtasida soqqa, qurug'i, yakan, loy (pul); bezorilar, qamalganlar o'rtasida shuxer (qochmoq); dollarchilar o'rtasida ko'k (pul); sotuvchilar o'rtasida pixat qilmoq (molini aldab o'tkazmoq).

Argoizmlarning jargonizmlardan farqi shundaki, ularda kamsitish, pastga urish kabi salbiy bo'yoq bo'lmaydi.

5. Vulgarizmlar. Vulgarizmlar qo'pollik, haqorat, so'kinish va qarg'ish ifodalovchi so'z va so'z birikmalaridir. Bular, asosan, insonga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bunday so'z va so'z

birikmalari jamiyatning axloq va odob me'yorlariga mutlaqo zid bo'lib, ularni nutqda qo'llaganlarning esa yuksak madaniyatdan, ma'rifatdan uzoqligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan vulgarizmlardan badiiy adabiyotlarda muayyan maqsadda foydalaniladi. Qiyoslang: "ha, noinsof, ha ko'ppak!" – Qoratoy boyni so'ka boshladi (Oybek).

6. Parazitizmlar. Parazitizmlar nutqning madaniyligiga, tozaligiga salbiy ta'sir qiluvchi, adabiy me'yor talablariga javob bermaydigan birliklardir.

Fikrimizcha, aslida so'zga nisbatan parazit terminini qo'llash maqsadga muvofiq emas, o'ta hurmatsizlikdir. Vaholangki, so'z deb tan olingan har bir birlikning tilda (nutqda) o'z o'rni, muayyan ma'nosi, ahamiyati, "qadri" bor. Bu shak-shubhasizdir. Aytmoqchimizki, shu kungacha parazit so'zlar deb atalgan lisoniy birliklar "yashab" keldimi, "yasha"moqdami, u yoki bu vazifa bajarmoqdami, demak, ular ham e'tiborga loyiq. Ular muayyan nutq faoliyatida "jonlanadi", kuchga kiradi, parazitlikdan, ya'ni boshqa so'zlar hisobiga yashashdan chetlashadi. Bunday so'zlarni nutq madaniyati, nutqning tozaligi nuqtai nazaridan parazit so'lar emas, balki tasodifiy, zarur bo'lmagan, keraksiz, ortiqcha so'zlar deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Bunday so'zlar, asosan, og'zaki nutqda uchraydi. Qiyoslang: shunday qilib, anavi, aytmoqchimizki, anaqa, ya'ni, manaqa, eslatamiz, bilasizmi, demak, xo'sh va b. Ushbu so'zlar gap mazmuniga, gapda ifodalanayotgan fikrga biror zaruriy ma'no, tushuncha bermaganidagina, aniq ma'noda qo'llanib, gap mazmuniga ta'sir qilmaganidagina ular nutq uchun tasodifiy, nozarur, keraksiz so'zlar sifatida voqelanadi. Qiyoslang: Xo'sh, fikrimizni davom ettiramiz (Domlalar nutqidan)

7. Kanselyarizmlar. Kanselyarizmlar muayyan korxona, zavod, fabrika, muassasa kabilarning qonuniy ish yuritish



jarayoniga xos va mos bo'lgan, rasmiy ish qog'ozlarida doimiy ishlatiladigan, shaklan turg'unlashgan, ya'ni ma'lum bir shaklda "qotib qolgan", shu holda saqlanadigan so'z va so'z birikmalaridir. Ushbu lisoniy birliklar kanselyariya "tiliga", uslubiga bevosita oid bo'lib, ular hujjatlar yozishda, ularni mantiqiy, rasmiy shakllantirishda xizmat qiladi. Bunday birliklar kanselyariya tiliga oid bo'lganligi, ularning qo'llanish o'rni qat'iyligi, chegaralanganligi uchun ulardan badiiy adabiyotlarda deyarli foydalanilmaydi. Aks holda, tabiiyki, badiiy nutqning tozaligiga, sofligiga putur yetadi.

Xullas, kanselyarizmlar jamiyat hayotida, ishlab chiqarishda zaruriy birliklar bo'lib, ish qog'ozlarini, hujjatlarni yozishda ularning ishlatilishi talab qilinadi. Qiyoslang: O'zbekistonda ishlab chiqariladigan avtomobillarning amaldagi narxlari quyidagicha... Avtomobillarga to'lov milliy valyutada – so'mda amalga oshiriladi. (Gazetadan)

5. Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ta'sirchanligi nutq orqali ifodalanayotgan fikr bevosita adresatga, ya'ni eshituvchiga yo'naltirilishi, tinglovchi psixikasiga "salmoqli" ta'sir qilishi, uning xotirasida yorqin iz qoldirishi, aniq "aks etishi" bilan belgilanadi. Og'zaki nutqqa ham, yozma nutqqa ham xos bo'lgan ta'sirchanlikning yuz berishi uchun, so'zsiz, nutqning to'g'ri va aniq, toza va mantiqiy bo'lishi shart. Aks holda maqsadga – ta'sirchanlikka erishilmaydi. Demak, ta'sirchan nutq og'zaki nutqda tinglovchining, yozma nutqda esa o'quvchining diqqatini, e'tiborini – ruhiyatini egallashi lozim. Nutq qanday bo'lmasin, ya'ni u dialogik nutqmi, monologik nutqmi, undan qat'i nazar ta'sir kuchiga ega bo'lishi shart. Chunki har bir inson nutq so'zlar ekan, birinchi navbatda, u nutqning ta'sir quvvatiga, kuchiga e'tibor beradi. Shunga ko'ra u nutqning kommunikativ sifatlariga diqqat qilgan holda auditoriyaning bilim darajasini, yoshini, kasbini, ruhiy

holatini hisobga olib, nutqini tuzishga, rejalashtirishga harakat qiladi. Maqsad tinglovchiga nutqini, fikrini to‘liq yetkazish, to‘liq tushuntira olish va uni ishontira olishdir. Shundagina ta’sirchanlik jarayoni yuz beradi. Ayni vaqtda nutq so‘zlovchi bilan nutq tinglovchi o‘rtasida uzviylik, ruhiy hamkorlik, o‘zaro hurmat bo‘lihi, nutq hayotiy faktlarga boy, asoslangan bo‘ishi lozim. Shuningdek, nutqda tasviriy vositalarning, o‘xshatishlar, parafrazalar, frazeologik iboralar, maqol, matal, hikmatli iboralar, hadislardan namunalarning qo‘llanilishi ham maqsadga muvofiqdir.

6. **Nutqning maqsadliligi**. Nutqning maqsadliligi juda muhimdir. Nutq madaniyati adabiy til me’yorlarini puxta egallash va ulardan nutqda to‘liq foydalanish demakdir.

Nutq madaniyati yuksak bo‘lgan kishi, birinchidan, o‘z nutqini to‘g‘ri, adabiy til me’yorlariga muvofiq tuzadi. Ikkinchidan, til vositalaridan eng muvofiq, eng zarurlarini tanlab olib, nutqning jozibali bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, nutqning ixchamligi, mazmundorligi ham katta ahamiyatga egadir.

Abulla Qahhor ta’kidlaganidek, «Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak», «Surat oldirayotgan kishi suratga chiroyli va kelishib tushmoqqa behuda zo‘r berib, o‘zining tabiiy holatini buzganday, yozuvchi chiroyli va qoyil qilib yozishga zo‘r bersa, adabiy asar uchun zarur bo‘lgan tildagi soddalik, tabiiylik buziladi».

Nutq to‘g‘ri, ammo, ayni vaqtda tushunilishi qiyin bo‘lishi mumkin. Nutq to‘g‘ri, biroq nutq so‘zlanayotgan sharoitga mos bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ham atoqli o‘zbek shoir va yozuvchilari o‘z asarlarini qayta-qayta ishlaganlar. Bu borada A. Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, S.Ahmad, A.Oripovlarni ko‘rsatib



o‘tish joizdir. Yozuvchi S. Ahmadning aytishicha, A. Qahhor ba’zi hikoyalari matnini 27 martagacha qayta ishlagan[36].

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin shunday yozadi: «Adib o‘zini tahrir qilishi, asarlarida haykaltaroshdek g‘adir-budur marmarni ishlab, jonli inson yaratishi kerak. F.Dostoyevskiyning «Aka-uka Karamazovlar» romani qo’lyozmasini ko‘rib, og‘zim ochilib qoldi. Shu darajada ko‘p tahrir qilinganki, ko‘chiruvchi mashinachilarga juda qiyin bo‘lgan bo‘lsa kerak. Abdulla Qodiriy, Oybek qo‘lda yozgan, bir sidra oson yozilgan yaxshi asar yo‘q, har qanday zako va yetuklik ham tahriru ter to‘kishni taqozo etadi»[37].

Ko‘rinadiki, yozuvchilar so‘z va so‘z birikmalarining birini boshqasi bilan almashtirganda, me’yorga mosligini emas, maqsadga qay darajada muvofiq kelishini ko‘zda tutadilar.

Nutq faoliyatida muallif o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni eng aniq, eng to‘g‘ri, eng yaxshi, eng ta’sirli, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so‘zlarni, so‘z birikmalarni, gaplarni, topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib, «maqsadga muvofiqlik» deb belgilash mumkin. So‘zlovchining u yoki bu so‘zning, u yoki bu sintaktik qurilma matnining maqsadga muvofiq tuzilganini sezishi, shunga muvofiq ish olib borishi lozim. Me’yor va maqsadga muvofiqlikning birgalikdagi harakati nutq madaniyatini mukammallashtirishdir.

7. Nutqning boyligi. Yuqorida aytilganlar, ayni vaqtda, nutqning boyligini ham belgilaydi. Ma’lum bo‘ladiki, nutqning ta’sirchan, boy bo‘lishida nutq so‘zlovchiga katta mas’uliyat yuklanadi. Nutq so‘zlovchi ommani o‘ziga jalb qiluvchi, o‘ziga hurmat bilan qarashiga sazovor bo‘lgan shaxs sifatida lisoniy, ma’naviy, ruhiy, estetik jihatdan tayyor, yetuk bo‘lishini, albatta, bilim saviyasi yuqori, til-lug‘at boyligini mukammal egallagan

[36] T.Qudratov. O‘sha asar, 75-bet
[37] T.Qudratov. O‘sha asar, 58-bet.

bo‘lishi shart. Nutqning ta’sirchanligi, birinchi navbatda, so‘zlovchiga – adresantga, uning lisoniy va falsafiy dunyoqarashiga bog‘liqdir. Qiyoslang:

Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on
Shunda bilursankim, ilm bepayon.

(Firdavsiy)

So‘z kuchidan yiqilur minbar ham, dor ham,
So‘z birla chiqur indan ilon-murdor ham

(Balxiy).

Kampirlar sim qoqdi

(A.Qahhor).

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi … Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar. (I.Karimov)

Ona tilimizning boyligini, unga hurmatingiz va muhabbatingizni tilimizni dunyoga tarannum etish bilan ko‘rsatishingiz kerak (Sh.Mirziyoyev).

**Takrorlash uchun savollar**

1. Nutqning kommunikativ sifatlariga nimalar kiradi?
2. Nutqning to‘g‘riligi nutq uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Qanday nutqni biz aniq nutq deymiz?
4. Nutqning tozaligi nima va unga salbiy ta’sir qiluvchi hodisalar qaysilar?
5. Nutqning mantiqiyligi nima va u nimaga asoslanadi?
6. Nutqning ta’sirchanligi nima?
7. Nutqning maqsadliligi nima?



**Tayanch tushunchalar**

1. Jargonizm – (fransuzcha jargon). Biror guruh vakillarining, o‘z nutqi blan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib, ishlatiladigan so‘z va iboralar.
2. Vulgarizm – (lot. Vulgaris-oddiy, sodda) – da’g‘allik, qo‘pollik, haqorat ifodalovchi so‘z va iboralar.
3. Varvarizm – boshqa tillarga oid lisoniy birliklar.
4. Kommunikatsiya – (lot. Communicatsion – xabar, aloqa). Biror xabarning til vositalari orqali berilishi, habar qilinishi.

## NUTQ TEXNIKASI VA UNING TURLARI

Nutqning ta'sirchan, ifodali, boy bo'lishida, albatta, so'zlovchi nutq texnikasiga ham amal qilishi lozim. Aniqrog'i, u nutq texnikasini ham puxta egallagan bo'lishi shart. Nutq so'zlovchi nutqiy faoliyati jarayonida auditoriyani hisobga olgan holda ovozning tiniqligiga, jarangdorligiga, baland-pastligiga, so'zlarning aniq va tiniq eshitilishiga, nutqning uzun va qisqaligiga, hayajonli bo'lishiga, diktsiyasiga, urg'udan to'g'ri va unumli foydalanishga e'tibor berishi ayni muddaodir. Aytilganlar nutqning ta'sirchan, ifodali, boy bo'lishini ta'minlaydigan zarur shartlardandir.

Nutq texnikasi turlari. Nutq texnikasi o'z tarkibiga talaffuz, tembr, suggestivlik, gradatsiya, intonatsiya, temp, pauza, diksiya kabi turlarni oladi. Qiyoslang:

1. Talaffuz – arabcha, so'zlash, so'zning to'g'ri, aniq aytilishi, talaffuz qilish.

2. Tembr – fransuzcha. Bir xil balandlikdagi tovushning o'ziga xosligining saqlanishi, sifati, ya'ni jarangdorlik, mayinlik hosil qiluvchi tovush, ovoz komponenti.

3. Suggestivlik – nutq jarayonida ovozning hayajonli bo'lishi va tinglovchiga ta'siri.

4. Gradatsiya – lotincha. Ovozning baland-pastligi, ovoz orqali ma'noni, uning ta'sirini kuchaytirish yoki aksincha pasaytirish.

5. Intonatsiya – nutqning talaffuz qilinishi, talaffuz etish, nutqning ohangi, ya'ni ovoz, tovushning baland-pastligi, pauza, temp va b. iborat prosodik element.

6. Temp – so'z, gap talaffuzi jarayonida unga ketgan vaqt, gapirish tezligi, vaqt ziqligi, temp vaqt bilan o'lchanadi.



7. Pauza – nutqdagi tovushning ma'lum daqiqada to'xtashi, sintaktik birliklarni o'zaro ajratish, ularning butunligini ta'minlash.

8. Diksiya – lotincha, talaffuz qilish, aytish. Lisoniy birliklarni talaffuz etishning aniqlik darajasi.

Xullas, nutq madaniyati ham, muloqot madaniyati ham o'zaro dialektik bog'liq tushunchalar sifatida jamiyatga – ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotga xizmat qiladi, ularning rivojida yetakchi kuch hisoblanadi.

### Takrorlash uchun savollar

1. Nutq texnikasi nima?
2. Nutq texnikasining qanday turlari mavjud?

### Tayanch tushunchalar

Nutq texnikasi – so'zlovchining nutq faoliyatida ovozining tiniqligiga, jarangdorligiga, baland-pastligiga, shiradorligiga, qiroatiga (intonatsiya), diksiyaga, so'zlarning aniq eshitilishiga, nutqning uzun-qisqaligiga e'tibor berish.

Tembr – (fran.) bir xil balandlikdagi tovushning o'ziga xosligining (m., jarangdorlik, mayinlik) saqlanishi, sifati.

Suggestivlik – nutq jarayonida ovozning hayajonli bo'lishi va ta'siri.

Gradatsiya – (lot) Ovozning baland-pastligi, ovoz orqali ma'noni, uning ta'sirini kuchaytirish yoki aksincha pasaytirish.

Temp – so'z, gap talaffuzi jarayonida unga ketgan vaqt, gapirish tezligi.

## NUTQ MADANIYATI VA USLUBSHUNOSLIK

Uslubshunoslikning tilda tutgan o‘rni beqiyosdir. Uslubshunoslik me’yorlarni shakllantirish, mashhur tilshunos olim G.O.Vinokur ta’kidlaganidek, nutq madaniyatining o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi, uning eng muhim vazifasidir. Chunki uslubiy me’yorni yaxshi bilmasdan, ularni mukammal egallamasdan turib, nutq madaniyatiga, madaniy nutqqa erishib bo‘lmaydi.[38]

Ma’lumki, har bir so‘zni o‘ylab, tanlab, ularning har bir ma’nosiga, ma’no qirralariga yaxshi e’tibor qilib, o‘rinli ishlatish haqida juda ko‘plab xalq maqollari, hikmatlari mavjud. Bu haqda buyuk faylasuf Aristotelning «Poetika» va so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarlarida ham qimmatli fikrlar aytilgan.

Tilda har bir so‘zni, grammatik formani, har bir sintaktik qurilmani o‘z o‘rnida, ya’ni shu so‘z, shu grammatik shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan vaziyatni (tinglovchi saviyasi, ularning holati kabilar) hisobga olgan holda to‘g‘ri qo‘llash, ularning shu vaziyatga eng mos tushadiganini tanlab, nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish, eng ixcham va fikrni lo‘nda ifodalaydiganini, eng sodda va hammaga tushunarlisini ishlatish nutqning ravonligini, tushunarliligini, aniqligini ta’minlaydi, uni g‘alizliklardan xalos etadi. So‘zlarni, grammatik shakllarni befarq qo‘llash, vaziyatga mos tushmaydigan gaplarni beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish, bo‘lar - bo‘lmasga u yoki bu so‘zdan yoki grammatik shakllardan foydalanaverish, umuman, ularni ortiqcha qo‘llash, o‘rinli - o‘rinsiz takrorlayverish nutqni bachkana

[38]Y.Tojiyev va b., O‘sha asar. 90–bet.



qiladi, fikrni xiralashtiradi, uning ta’sirchanligiga putur yetkazadi.[39] Zero, donolar aytganidek:

Nodonlardek yuzlab so‘zni qilma qator,
Donolardek bir so‘z degil, lek ma’nodor.

(Sa’diy Sheroziy)

yoki

So‘z joyu vaqtiga bo‘lar ekan mos,
Sehru afsun uchun u bo‘lar asos.

(Abdurahmon Jomiy)

Ma’lumki, uslubiyat – fikrni ifodalash yo‘llari, til vositalarini – materiallarini to‘g‘ri tanlay bilish haqidagi ta’limot-uslublar ilmi bo‘lib, tilning vazifalariga mos ravishda bir necha ko‘rinishlarga ega: so‘zlashuv uslubi, kitobiy uslub, ilmiy-ommabop uslub, rasmiy, publitsistik va badiiy uslub kabilar. Ushbu fikr uslubiyatning tarkibiy qismiga kiruvchi grammatik uslubshunoslik haqida ham aytish mumkin.

Grammatikaning morfologiya va sintaksis nomlari ostida ikki qismga ajratilish holati grammatik uslubshunoslikda ham saqlanadi, ya’ni u morfologik uslubshunoslik hamda sintaktik uslubshunoslik kabi ikki ko‘rinishda bo‘ladi.

Grammatika so‘zning yoki sintaktik qurilmaning lug‘aviy va grammatik ma’nolarini, fikriy jihatini o‘rgansa, grammatik stilistika ularning qo‘shimcha – ekspressiv ma’nolarini, vazifaviy xususiyatlarini o‘rganadi.

Grammatika bilan uslubshunoslik birgalikda faqat grammatik shakllarning nimani ifodalashini emas, balki qanday ifodalanishini ham tekshiradi.

Grammatik uslubshunoslikning bir qismi bo‘lgan morfologik uslubshunoslik har bir grammatik shaklning, so‘z yasovchi

[39]Y.Tojiyev va b., O‘sha asar. 91-bet.

vositalar va har xil boshqa shakllarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganadi.

O‘zbek tilida qo‘shimchalar doirasidagi ma’nodoshlik (sinonimiya) hodisasi ham keng tarqalgan: **shu sababli // shu sababdan; talabalardan biri // talabalarning biri; otga mindi // otni mindi; savlatli // savlatdor // basavlat...** kabi.

O‘zbek tilida so‘z yasovchi va grammatik ma’no ifodalovchi juda ko‘p affikslar o‘z variantlariga ega yoki bir-biri bilan o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘ladi. Masalan, jo‘nalish kelishigi ko‘rsatkichi **–ga** hozirgi tilimizda **–ka, -qa** variantlarida uchrasa, eski o‘zbek tilida **-g‘a (borarg‘a - qilurg‘a, so‘rarg‘a)**ko‘rinishda uchraydi. Fe’llardagi **–giz** ko‘rsatkichi **–kiz, -g‘iz, -qiz; -kaz; -gaz** va hatto, ba’zan **–kar (o‘tkar, etkar)** variantlarida uchraydi.[40]

Tilimizda ba’zan ayrim grammatik shakl pleonastik (qo‘sh) qo‘llanadi. Bunday qo‘llash nutqda ortiqchalikni vujudga keltirishi, nutq ravshanligiga putur yetkazishi, fikrni xiralashtirishi, bachkanalashtirishi mumkin: **toychoqchaginam, kichkinagina, ichilib qo‘yildi, to maktabgacha, Yangiqishloq qishlog‘i, bir kalima so‘z, o‘n yillar o‘tdi, 6 ta o‘g‘il - qizlarim bor** qo‘llanishlarda grammatik shakllar yoki so‘zlarning o‘rinsiz, maqsadsiz qo‘llanishi natijasida ana shunday hol yuz berganini kuzatamiz: kichkinagina tipidagi qo‘llashlarida **-gina**, solinib bo‘lindi qo‘llanishidagi **-in**, ichilib qo‘yildi tipidagi qo‘llanishlarda oldingi so‘zdagi **-il**, to maktabgacha qo‘llanishida **to** elementi (bunda ba’zan kuchaytirish ifodalanishi mumkin, ana shunday vaqtda to elementining ishlatilishi o‘zini oqlaydi), keyingi birikmalarda **qishlog‘i, kalima so‘zlari, o‘n yillar o‘tdi, oltita o‘g‘il – qizlarim bor, har bir dalillarni** birikmalarida -lar affiksi ortiqcha ishlatilgan va nutqda g‘alizlik tug‘dirgan.

[40]Y.Tojiyev va b., O‘sha asar. 90-bet.



Biroq, shuni ham aytish kerakki, grammatik shakl yoki boshqa vositalarni pleonastik qo‘llash hamma vaqt ham nutqda ortiqchalik tug‘diravermaydi. Ba’zan juda o‘rinli, tushungan holda, ma’lum bir maqsadni ko‘zda tutib, shunday qilinsa, nutqni ravon qiladi, fikrni aniq, lo‘nda, bor nozikliklari bilan ifodalashga yordam beradi, nutq ta’sirchanligini oshiradi, ma’noni kuchaytiradi, bo‘rttiradi: Ulug‘ ayyom kunlari; shuncha yil tuz-namak bo‘ldik; besh panjasini og‘ziga tiqadi; aytganini qilmay qo‘ymaydi; biz o‘zimiz aytib qo‘yamiz tipidagi qo‘llanishlarda ana shu holni kuzatamiz. To‘g‘ri, namak, kalima, ayyom, panj so‘zlari fors-tojik tillarida tuz, so‘z, kun, besh so‘zlariga to‘g‘ri keladi. Biroq, o‘zbek tilida ular, birinchidan, boshqa ma’noda qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa, ikkinchidan, kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaruvchi sifatida ishlatilishi mumkin. Jumladan, **ulug‘ ayyom kunlari** birikmasida **ayyom** so‘zi kun ma’nosida qo‘llangan emas, u ma’lum bir sanani ifodalagan, besh panjasini birikmasida panja so‘zi barmoq ma’nosida, **bir kalima so‘z** birikmasida kalima so‘zi **so‘z** leksemasining aniqlovchisi bo‘lib kelgan va aqlli, fikrli, lo‘nda so‘zlari ma’nosida qo‘llangan; tuz-namak qo‘llanishida esa o‘zbek tilida, og‘zaki nutqda ko‘p uchraydigan non - pon, choy - poy tipidagi holatni kuzatamiz.

Bundan tashqari, bu qo‘llanishda **tuz - namak**ning ibora holiga kelib qolgani ko‘zga tashlanadi va u birga turdik, birga bo‘ldik birikmalari ifodalagan ma’noni anglatadi. Xuddi shu birikmada ulardan bittasini qo‘llash hech mumkin emas.

Keyingi misolda inkor formasining (-ma) ikkala so‘zda ham ishtirok etishi tasdiq ma’nosini ancha kuchaytirib, bo‘rttirib bayon qilishni ta’minlagan.[41]

[41]Y.Tojiyev va b., O‘sha asar. 94-bet.

Grammatik uslubshunoslikda ayrim grammatik shakllarning o‘rnini almashtirib qo‘llashning o‘ziga xos tomonlari borligi keng o‘rganilishi kerak. Adabiy me’yorda har bir ko‘rsatkichning o‘zak-negizlarga qo‘shilishdagi o‘rni qat’iy belgilangan. Ammo ma’lum bir uslubiy maqsadni ko‘zda tutgan holda ularning o‘rnini almashtirish mumkin: Qalbimni sen ko‘zimdanmi anglading (Oybek); Osmondagi bulutlarning xo‘mrayishidanmi qo‘rqdingiz (Oybek); boringlar - borlaring, ketinglar-ketlaring; borganmi edi - borgan edimi, aytib edimmi - aytibmi edim; dadang uydalarmi-dadang uydamilar; aytmabmidim - aytmab edimmi (og‘zaki nutqda).

Keltirilgan misollarga diqqat qilsak, birinchi ikki gapda –mi yuklamasi aslida, adabiy me’yorga ko‘ra, **anglading** va **qo‘rqdingiz** so‘zlariga qo‘shilib kelishi kerak edi: angladingmi, qo‘rqdingizmi tipida. Ammo yozuvchi bu shaklni oldingi so‘zga qo‘shadi va bu bilan o‘ziga xos ekspressivlik hosil qiladi, ta’sirchanlikni oshiradi, nutqqa poetiklik ato etadi. Keyingi misollarda –ing va –lar affikslarining o‘rnini almashtirish hurmat yoki hurmatsizlik ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan bo‘lsa, borganmi edi – borgan edimi tipidagi qo‘llanishlarda ma’noni kuchaytirish, nutqqa ekspressivlik ato etish, ta’kidlash, jonlilik, jo‘nlik, tasviriylik o‘z ifodasini topgan.[42]

Xullas, grammatik shakllarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash, ulardan o‘rinli foydalanish nutqimizning ta’sir kuchini oshiradi, uni g‘alizliklardan xalos etadi.

So‘zlashuv stili – nutqning dialogik shaklidir. Bu stil yozma nutqqa qaraganda ta’sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so‘z qo‘llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu stilda so‘zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. U nutqiga hissiyotini ham

[42]Y.Tojiyev va b., O‘sha asar, 96-bet.



qo‘shib gapiradi. Bunda turli imo-ishora va qo‘l harakatlaridan foydalaniladi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo‘lgan so‘z va iboralarning o‘rnini to‘ldiradi va bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. Bu stilda to‘liqsiz gaplar ishlatiladi, chunki tushirilgan qism boshqa bir replikada yoki boshqa bir nutq vaziyatida ifodalanishi mumkin. So‘zlashuv stilining ikki xil ko‘rinishi bor;

1) adabiy so‘zlashuv stili.

2) oddiy so‘zlashuv stili.

Adabiy so‘zlashuv stilida o‘qituvchilar, suxandonlar, jurnalistlar, ilmiy xodimlar, yozuvchi va shoirlar, rahbar xodimlar, artistlar gaplashadilar. Bu stil dars jarayonida, sahna nuqtida, kino san’atida, telefilmlar, axborotlar, teleocherklar, radioinsenirovkalarda ishlatiladi. Adabiy so‘zlashuv stilida jargon va sheva so‘zlari bo‘lmaydi.

Oddiy so‘zlashuv stilida betakalluflik bilan erkin muomala qilinadi. Bunda shunday so‘zlar ishlatiladiki, ular adabiy tilda bo‘lmasligi mumkin. Lekin bunday so‘zlar badiiy nutqda ayrim personajlar nutqining o‘ziga xosligini ta’minlash uchun qo‘llanishi mumkin. Oddiy so‘zlashuv nutqi dialektal nutqni ham aks ettiradi. So‘zlovchi qaysi dialekt vakili bo‘lsa, shu dialektda gapirishi mumkin. Masalan, ***ashi, mashi, qaydam, qaytayin***, ***shulaymi, jaa, bo‘pti*** kabilar oddiy so‘zlashuv stiliga xos[43].

Rasmiy stil diplomatik yozishmalarda, iqtisodiy, davlat idoralarida, sudlarda, savdoga doir, yuridik munosabatlar ifodasi bo‘lgan hujjatlarda ishlatiladi, ya’ni bu stil ish yuritish hujjatlarida qo‘llaniladi. Bunga ariza, tushuntirish xati, e’lon, tarjimayi hol, ishonch qog‘ozi, tilxat, hisobot, rasmiy notalar, buyruq va

[43] S.Sultonsaidova, O‘.Sharipova. O‘zbek tili stilistikasi. – T.:2008.12-bet.

farmonlar, farmoyishlar, taklifnoma, rasmiy xatlar, tijorat yozishmalari kabilar kiradi.

Bu stilda adabiy me'yorga qat'iy rioya qilinadi, shevaga xos so'zlar, jargonlar, har xil stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar ishlatilmaydi. Jumlalar ham inversiyasiz bo'lishi lozim. Gaplarda ta'sirchanlik bo'lmaydi. Rasmiy stilda yoziladigan ayrim hujjatlar shtampga o'xshash maxsus tartib va shakl bilan yoziladi. Masalan, rasmiy xatlar, ariza, tushuntirish xati, bildirgi, ma'lumotnomalar, qarorlarni ko'rsatish mumkin. Agar pul, buyum miqdori ko'rsatilishi lozim bo'lsa, oldin raqam bilan, so'ng qavs ichida harflar bilan yoziladi.

Hujjatlarda fikr aniq, qisqa, lo'nda (ravon) bayon qilinishi lozim. Bunda xatboshi (abzas)ning o'rni muhimdir. Har bir yangi, alohida fikr xatboshi bilan ajratilishi, bir xatboshi bilan ikkinchi xatboshi o'rtasidagi matn to'rt-besh jumladan oshmasligi me'yorga mosdir.

Hujjatchilikda imlo va tinish belgilariga alohida e'tibor berish kerak. Hujjatning nomi bosh harf bilan yoziladi. Agar bosma matn bo'lsa, hujjat nomining har bir harfi bosh harf bilan yozildi. Hujjatning nomidan so'ng hech qanday belgi qo'yilmaydi[44].

Ilmiy stil ilmiy tadqiqotlar stilidir. Bu stil fan, texnika sohasida yaratilgan asarlarda qo'llaniladi. Shunga ko'ra u bir necha xilga bo'linadi: ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommabop, ilmiy-o'quv, ilmiy-publitsistik va ilmiy-hujjat stillari. Ilmiy-texnikaviy stilda ilmiy maqola, ma'ruza va monografiya, dissertatsiya yoziladi. Ilmiy-ommabop stilda axborot ommabop tarzda ilmiy jihatdan tushuntiriladi. Bunda ma'lumot sof ilmiylikdan bir oz soddalashtiriladi va har bir sohaning ilmiy yutuqlari ommaga ma'lum so'zlar bilan bayon qilinadi. Ilmiy-o'quv stilida darsliklar,

[44] S.Sultonsaidova, O'.Sharipova. O'sha asar,16-bet.



o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar va uslubiy maqolalar yoziladi. Ular o'quvchilar uchun tushunarli so'zlar bilan ilmiy jihatdan bayon qilinishi kerak. Ilmiy-publitsistik stilda ommabop risolalar, ilmiy-ommabop maqolalar yoziladi. Ularda ilmiy terminlar bo'lishi bilan birga ommaning hissiyotiga ta'sir qiladigan so'zlar ishlatiladi. Ilmiy-hujjat stilida ixtiro uchun olinadigan hujjat yoki unga tegishli adabiyotlar tasvirlanadi. Bunday hujjatlarda ilmiy axborot to'g'risida ma'lumot beriladi va u huquqiy jihatdan himoya qilinadi.

Ilmiy stilning har bir turi bir-biridan farq qiladi. Ammo ularni birlashtiradigan umumiy xususiyatlari mavjud. Ularda boy ma'lumotlarning keltirilishi, ularning obyektivligi, aniqligi, fikrning qisqa va lo'nda ifodalanishi xosdir. Shuningdek, ularning har birida ilmiy-terminologiyaning faol ishlatilishi muhim xususiyat sanaladi.

Ilmiy stilning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu stilda fikrlar mantiqiy jihatdan aniq, izchil, bir ma'noli bo'lishi lozim. Ilmiy stilda fikrlar faqat tushunchalarni aks ettiradi. Bu tushunchalarning ifodasi muhokama, munozara va xulosalar shaklida bo'lib, ular qat'iy mantiqiy izchillikka asoslangan bo'ladi. Bu stilda mantiqiylik eng asosiy belgi bo'lsa-da, fikr qat'iy dalillanishi kerak. Tahlil va sintez bir-biridan ajralmagan holda qo'llanadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Shu orqali qonuniyatlar ochiladi. Mana shu qonuniyatlar ochilishi jarayonida tafakkurning umumiy, mavhum bo'lishi ko'rinadi.

Ilmiy stilning muhim xususiyati ilmiy bayon umumiy va mavhum bo'lishiga qaramasdan, mantiqiylik yaqqol sezilib turadi. Bundan ikkinchi xususiyat, ya'ni bu stilda qo'llanadigan lisoniy birliklarining ishlatilish darajasi va stilga xos bo'yog' kelib chiqadi. Ilmiy stilning tipik bo'lgan xususiyatlari quyidagicha:

1) terminlarning qo'llanishi;

2) bir ma'nolilik;

3) obrazlilikning deyarli bo'lmasligi;

4) yashirin emotsionallik;

5) bayonning obyektivligi;

6) bayonning quruq va qat'iyligi.

Ilmiy stilda fanning turli sohalariga oid ramziy belgilar, raqamlar, jadvallar, turli chizmalar va rasmlar qo'llanishi mumkin. Masalan, kimyo fani bo'yicha turli qisqartmalar va formulalar: ***Mg – magniy, Cl –xlor, $N_2O$ –suv*** kabilar ishlatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilar muallifning stiliga, ilmiy stilning mavzusiga, uni bayon qilish muhitiga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ilmiy stilda emotsionallik va uslubiy bo'yoqning bo'lishi fan sohalariga bog'liq. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida bunday xususiyat mavjud. Tabiiy fanlarda bu nisbatan kamroq uchraydi. Masalan, ***dengiz marjonlari, patsimon bulutlar, somon yo'li (yulduzlarga nisbatan), vulqon chambaragi, marjon qirg'oq, oy o'tovi, oq tuproq, qora tuproq, qizil tuproq, sariq tuproq, qush bozorlari, uchar yulduz, dumli yulduz, geografik burun*** kabilar.[45]

Publitsistika – lotincha "publicus" so'zidan olingan bo'lib, ijtimoiy, ommaviy degan ma'nolarni ifodalaydi.

Publististik stil siyosiy-g'oyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlarni aks ettiruvchi asarlarda ishlatiladigan stildir. U adabiy o'zbek tilining nutq stillari tizimida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bu davrda o'zbek tilida gazetalar chop etila boshladi. Nashriyot va vaqtli matbuot ishlari yanada rivojlanib ketdi. O'zbek yozuvchilari badiiy publitsistika janirida ijod qildilar. Vaqtli matbuot va nashriyotda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan ko'plab materiallar

[45] S.Sultonsaidova, O'.Sharipova. O'sha asar, 20-22-betlar.



bosila boshladi. Radio va televidenie orqali siyosat va ijtimoiy hayot masalalariga doir ma'ruza va suhbatlar muntazam eshitirildi va ko'rsatildi. Bularning hammasi publitsistik stilning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Publististik stilning yozma va og'zaki ko'rinishlari mavjud. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, feleton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publististikaning yozma turiga kiradi.

Og'zaki publitsistika – notiqlikdir. Bunga kundalik voqealar axboroti, radio va televidenieda chiqayotgan sharhlovchilar va boshlovchilarning nutqlarini misol qilib keltirish mumkin.

Publitsistika katta hayotiy masalalarni, mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishi, isbotlashi, shu bilan birga tinglovchining iroda va his-tuyg'ulariga ta'sir qilishi lozim.

Publitsistik stilning asosiy vazifasi shundaki, u jamiyatdagi ilg'or g'oya va fikrlarni ajratib ko'rsatib, unga odamlarni ishontira olishdir. Ma'naviy-ma'rifiy ishimizning yutug'i publitsistikaning ta'sir kuchiga bog'liq.

Publitsistikada so'z tanlash bu stilning janr turlariga ko'ra belgilanadi. Tilning ta'sirchan vositalaridan anafora, epifora, epitet,o'xshatish, jonlantirish, ironiya, apostrofa kabilar publitsistik maqolalarda ishlatiladi.

Har qanday targ'ibotchi va tashviqotchining san'ati shundaki, auditoriyaga eng yuqori darajada ta'sir qila olish, odamlarga ma'lum bo'lgan haqiqatni yanada aniqroq, yanada ta'sirchanroq va ishonarliroq qilib tushuntirishdir.

Bu stilning o'ziga xosligi uning hissiyotga boyligi va ta'sirchanligidir. Bu xususiyat asosiy e'tiborni nimaga qaratish kerakligini uqtirish bilan birga nutqning tushunarli va esda qolarli bo'lishiga ta'sir etadi.

Publitsistik stilda so‘zlovchi, notiqning o‘zi bildirayotgan ma’lumotlarga singishib ketishi muhimdir. Publitsistikaning yana bir o‘ziga xosligi uning ko‘p janrliligidir.

Ular quyidagilar:

1. Gazeta janri.
2. Og‘zaki publitsistika.
3. Radio va televidenie janri kabilar.

Publitsistika materialning ikki xil jihatini o‘zida aks ettiradi.

1. Informativ, ya’ni xabar berish.
2. Baholash, ya’ni materialni zamona talabidan kelib chiqqan holda tahlil qilib, bayon qilish, unga o‘z munosabatini bildirish.

Publitsistik asarlar: xabar, reportaj, maqola, ocherk, feleton, pamflet, bosh maqola va boshqalar o‘ziga xos til xususiyatlariga ega. Shuning uchun ular o‘zaro farqlanadi.[46]

Tilning vazifadosh stillari ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini aks ettiradi, shu sohada mehnat qilayotgan inson faoliyatining muayyan doirasiga mansubligi bilan farq qiladi. Badiiy stil esa hayotning hamma tomonlarini qamrab olishi bilan, barcha nutq stillarining unda qo‘llanishi bilan farqlanadi. Badiiy adabiyot turli kasb-hunar egalarining hayotini, ichki dunyosini, jamiyatdagi o‘rnini aks ettirgani uchun unda til va nutq vositalari o‘ziga xos holatda qo‘llaniladi. Yuqorida tavsif berilgan to‘rtta stil u yoki bu voqea-hodisa haqida xabar berish uchun xizmat qilsa, badiiy stil ma’lumot berish bilan birga estetik va emotsional ta’sirni ham ifodalaydi. Badiiy stil hikoya, qissa, roman, she’riyat va hattoki kichkina janrdagi afandi latifalarida ham ishlatiladi. Unda til – obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Barcha nutq stillarining o‘ziga xos so‘zlari va iboralari mavjud. Garchi, rasmiy va ilmiy stilda iboralar kam

[46] S.Sultonsaidova, O‘.Sharipova. O‘sha asar, 26-27-betlar.



darajada ishlatilsa-da, ular nisbatan “xususiylashgan”, badiiy stilda esa birinchi marta qo‘llanilayotgan so‘z va iboralar yozuvchi va shoirning yangi yaratgan ifodalari bo‘lishi mumkin. Chunki muallif o‘zi tasvirlamoqchi bo‘lgan manzara yoki shaxsni o‘zi xohlagandek ifodalashi uchun mavjud so‘zlardan foydalanmay, hali hech kim qo‘llamagan yangi so‘zlarni yaratadi. Ko‘rinadiki, badiiy stil turmushni aks ettirishning maxsus shaklidir.

Badiiy nutq stili adabiy tilning ifodalanishi bo‘lib, ayrim hollarda ba’zi maqsadlar bilan boshqa nutq ko‘rinishlaridan ham foydalanishga to‘g‘ri keladi.[47]

### Takrorlash uchun savollar

1. Uslubiyat nima?
2. Grammatik uslubshunoslik nima?
3. Uslubshunoslikning nechta turi mavjud?
4. Nutq stillari qaysilar?
5. Rasmiy stil qanday stil?
6. Ilmiy stil qanday stil?

### Tayanch tushunchalar

Uslubshunoslik – tilshunoslikning turli uslublarini o‘rganuvchi sohasi.

Qo‘shimcha – shakl va so‘z yasovchi affiks.

Stil – nutq uslubi ma’nosida.

Publitsistik – ommaviy.

[47] S.Sultonsaidova, O‘.Sharipova. O‘sha asar, 32-bet.

## NUTQ MADANIYATI VA TERMINOLOGIYA

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy – texnik tub o‘zgarishlar davrida jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq holda yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. O‘zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo‘lmoqda, ilgaridan ishlatilib kelingan qator leksemalar yangi ma’no kasb etmoqda. Demak, terminologiya sohasida ham qator muhim masalalarni hal qilish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish, terminlarni yaratish va ularni qo‘llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning sistemasini yanada teranroq tadqiq etish, terminologiyaning turli masalalarini atroflicha o‘rganish hozirda muhim va jiddiy masalalardan biri bo‘lib qoldi.

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgunga qadar va u amal qila boshlagandan keyin matbuot xodimlari, hatto ayrim tilshunoslar Davlat tili haqidagi qonunni to‘liq joriy etish o‘rniga, uning ayrim bandlariga deyarli e’tibor bermay, ko‘pdan buyon qo‘llanib kelinayotgan va omma nutqiga singib ketgan ko‘plab terminlarni, ularning mazmunini chuqur o‘rganmay turib, yangidan, noto‘g‘ri so‘zlar, leksemalar bilan almashtira boshlashdi. Xatto “termin”, “terminologiya” kabilar “atama”, “atamashunoslik” leksemalari bilan almashtirib qo‘llanadigan bo‘ldi, “atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalarning umumxarakterga egaligi e’tiborga olinmadi. Chunki “atama” deyilganda, onomastika (toponomiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Shunga ko‘ra avvaldan iste’molda bo‘lgan baynalmilal “termin” va “terminologiya” leksemalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.



Terminologiya muayyan fanning tushunchalar sistemasi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan terminlarning jami sifatida ta’riflanadi. Har qanday tushunchalar sistemasiga muayyan terminlar sistemasi to‘g‘ri keladi. Terminologik sistemalar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste’moldagi so‘zlardan farqli ravishda joriy qilinib, ularning qo‘llanishi ma’lum darajada nazorat ostida bo‘ladi. O‘z-o‘zidan terminlar paydo bo‘lib qolmaydi, aksincha, ular zaruriyatga aylangan holda “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi”. Shuningdek, oddiy so‘zdan farqli ravishda terminning ma’nosi kontekstga bog‘liq bo‘lmaydi, muayyan leksema terminologik ma’nosida va o‘z terminologik maydonida qo‘llanar ekan, ayni ma’no saqlanib qolaveradi. Biroq ko‘p ma’noli terminlarning aniq ma’nosini ajratib olish uchun kontekstning zarurligi shubha tug‘dirmaydi.

Terminologik birikmalarning ko‘p leksemaliligi, ya’ni ular komponentlarining soni nechtagacha bo‘lishi keyingi yillarda terminshunoslarning diqqat – e’tiborini jalb etib kelmoqda.

Haqiqatan ham keyingi yillarda miqdoran ortib borayotgan ko‘p komponentli brikma terminlar tushuncha mazmunini to‘laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo‘llash va yodda saqlab qolish ancha noqulaydir. Aslini olganda, bunday terminlar ikki, nari borsa uch, to‘rt komponentdan iborat bo‘lishi lozimki, natijada, birikma terminlarning komponentlari, tegishli belgilarni to‘laroq aks ettirish maqsadida aniqlovchilar, sifatdoshli o‘ramlar qo‘shish orqali hosil qilinishi kerak. Bu tushunchani ifodalashning dastlabki bosqichiga xos holat bo‘lib, keyinchalik tushuncha haqida muayyan tasavvur yuzaga kelgach, u qadar ahamiyatsiz belgilarni ifodalagan komponent (so‘z)lar qisqartirilishi, binobarin, termin ixchamroq holga keltirilishi mumkin Biroq bu jarayon boshboshdoqlik, tavakkalchilik asosida emas, balki ma’lum qonun-qoidalar asosida mantiqiy ravishda amalga oshirilishi lozim.

Termin muammosi haqida fikr yuritar ekanmiz, termin nima? degan aniq savolning tug‘ilishi tabiiydir.

Termin kasbiy ma’no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ularo‘rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoki birikmadir.

Haqiqatan ham shunday, Chunki har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o‘sha soha, tarmoq doirasida qo‘llanadi, aniqroq qilib, kasb – hunar egasining nutqini shakllantiradi, o‘zaro nutqiy muomala uchun shart – sharoit yaratadi.

Shuni aytish lozimki, muayyan kasb – hunar yoxud mutaxassislikka ega bo‘lgan kishilar ko‘pincha u yoki bu sohaning o‘ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko‘radi. Masalan, iqtisodchilarning yozma yoki og‘zaki nutqida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag‘ ajratish, renta kabi tor doiradagina qo‘llaniladigan terminlarning ishlatilishi tabiiy holdir. Ma’lumki
bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shuningdek, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi.

*Masalan, bozor, mol, savdo, savdo – sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi kabilar shular jumlasidandir.*

Har bir sohaning o‘ziga xos tushunchalari bor. Bu tushunchalarning jami shu sohaning tushunchalar sistemasini tashkil etadi. Shu sohaga oid tushunchalarni ifodalovchi maxsus terminlar ham mavjud. Ana shu terminlarning jami shu sohaning terminologik sistemasini tashkil etadi, ya’ni shu soha terminologiyasi bo‘ladi. Jumladan, matematika, fizika, biologiya, ximiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, meditsina va hokazo.



Fanlarning o‘zga xos terminlari mavjud: qo‘shuv, oluv, kvadrat, ildiz, tangens, kotangens, sinus, kosinus; zaryad, kuchlanish, bosim, havo oqimi, molekula, mikroorganizm; morfologiya, sifat, ega, kesim, o‘zak, negiz, qo‘shimcha, aruz, g‘azal, turoq kabilar. Ko‘rinadiki, terminalogiya «tor ma’noda ma’lum bir sohaga oid maxsus leksika» bo‘lsa, «keng ma’noda umumiy lug‘at tarkibining ayrim sohalarda ishlatiladigan qismidir» (S.F.Akobirov).[48]

Terminlarni qo‘llashda ma’lum kamchiliklar sodir bo‘layotgan ekan, buning sabablari ham mavjuddir: 1. Nutq muallifi terminning tub ma’nosini to‘g‘ri anglab yetmaydi. Natijada, uni mantiqan mos kelmaydigan so‘zlar bilan biriktiradi va jumla tuzadi. Uningcha, termin to‘g‘ri ishlatilganday tuyuladi. Masalan: Uning sochlaridan kelayotgan juda ingichka bir hindiy mushk isi boshimni aylantiradi, gapida ingichka so‘zi o‘rinsiz ishlatilgan. 2. Muallif o‘z nutqiga jiddiy e’tibor bermaydi, uni kuzatmaydi, unga baho bermaydi. Natijada terminlar pala - partish ishlatilib yuboriladi. Ba’zan esa ongli ravishda mavjud terminlarni yaxshi bilgani holda an’anaviy qo‘llanilib kelinayotgan, hamma uchun tushunarli bo‘lgan terminlardan voz kechib, o‘zini shu fanning bilimdoni qilib ko‘rsatish maqsadida hech kim uchun tushunarli bo‘lmagan, qo‘llanilishi o‘zini oqlash - oqlamasligi hali noma’lum bo‘lgan terminlarni qo‘llash hollari ham uchraydi. Bu bilan nutq muallifi o‘zini go‘yo «yangi narsa» aytgan hisoblaydi. 3. Tilni chuqur bilmasak, uning sintaktik va semantik imkoniyatlarini egallamaslik natijasida nutqda terminlar noto‘g‘ri ishlatilib yuboriladi. 4. So‘z yasalishi, jumladan, terminlarning yasalish qonun-qoidalarini yaxshi bilmaslik natijasida noto‘g‘ri terminlar - so‘zlar hosil qilinadi va ularning nutqda ishlatilib yuborilishi ham so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi aloqani qiyinlashtiradi: «Shu

[48] R.Qo‘ng‘urov va b.O‘sha asar. 151-bet.

yashayotgan joyimda nojoyligimdan emas nimadanligini o‘zim ham bilmayman, tushuntirilishi, ammo...» (A.A’zam).

Keltirilgan misoldagi nojoy so‘zining yasalishi g‘alizdir. Chunki o‘zbek tilida tarkibida o unlisi bo‘lgan undosh – unli - undosh tarkibidagi bir bo‘g‘inli so‘zlarga no prefiksi qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilish me’yor emas: nonon, nojon yasalishlari uchramagani holda nonsiz, jonsiz yoki benon, bejon yasalishlari me’yor hisoblanadi. Bundan tashqari, ba’zan, har xil sabablarga ko‘ra, termin yasashda, terminologiya talablariga zid ish tutiladi. Ma’lumki, terminlar ixcham, aytilishi va yozilishi qulay bo‘lishi kerak. Bunga zid ravishda, masalan, fizik xossalar tipida termin yasashlar uchraydi. 5. Ba’zan mavjud termin bor bo‘lgani holda, uni bilmaslik oqibatida, boshqa sun’iy terminlar hosil qilish yoki mavjud terminni o‘z mustaqil qarashlariga mos ravishda o‘zgartirish, ayrim hollarda esa, tushunchani, hodisani o‘z nuqtai nazaridan baholagan holda uni mavjud termin bilan ifodalash hollari uchraydi.[49]

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng terminlarni o‘zbekcha-lashtirish yo‘lida bir qator yutuqlar bilan birga ma’lum kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Bir tushunchani ifodalash uchun turli so‘zlar ishlatildi: rayon - nohiya – tuman; institut - oliy ilmgoh - oliy ta’limgoh - dorilmuallimin; jurnal – majalla – jarida – oynoma – oybitik; gazeta - ro‘znoma - haftanoma; qo‘nalg‘a - uchargoh - uchardargoh - tayyoragoh (aeroport) kabi. Atamalarni tartibga solish bo‘yicha «Atamashunoslik qo‘mitasi» tomonidan ko‘pgina xayrli ishlar amalga oshirildi. Masalan: tilimizda muqobili yoki uni yasash imkoni bo‘lmagan hollarda baynalmilal atamalarning o‘zi ishlatilaverishi to‘g‘risida shunday deyiladi: «...keyingi taraqqiyot davomida ko‘plab mashinalar, texnika

[49]R.Qo‘ng‘urov va b.O‘sha asar. 55-bet.



vositalari, ilm-fan tushunchalari o‘z nomi bilan hayotimizga kirib kelgan. Predmet yoki tushunchalarni ifodalaydigan bunday atamalar o‘z so‘zimiz bo‘lib qolgan va lug‘at boyligidan o‘rin olgan: traktor, avtomobil, tramvay, aeroport, atom, yadro, neytron, fizika, texnika kabilar»[50].

Shu bo‘limdagi fikrlardan ma’lum bo‘ldiki, til imkoniyatida shunday so‘zlar borki, ular alohida muayyan semantik maydon sifatida fan bilan, fan taraqqiyoti bilan, fandagi yangiliklar, o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga keladi, yashaydi. Ma’lumki, bunday so‘zlar terminlar nomi bilan yuritilib, fan uchun xizmat qiladi. Aniqrog‘i, fan haqida so‘z borar ekan, uni terminsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki fanning «hayoti», faoliyati, «ijodkorligi» termin orqalidir, termin bilandir. Termin fanning kurash qurolidir, yaratish, yashash qurolidir, uning mavjudligidir.

Termin haqida fikr yuritilar va unga izoh berilar hamda uning muhim belgi-xususiyatlari sanalar ekan, birinchi navbatda, uning ilmiylik xususiyati qayd etilishi, ayni xususiyatning dominant ekanligi aytilishi lozim. Chunki termin, dastavval, ilmiylik xususiyatiga – semasiga (ma’no komponentiga) ko‘ra ajralib turadi. Terminning qolgan barcha xususiyatlari: aniqligi, bir ma’noliligi, emotsionallikdan holi ekanligi, qo‘llanish qamrovining torligi, chegaralanganligi kabilar uning – ilmiylik mohiyatidan, tushunchasidan kelib chiqadi. Termin aynan mana shu nuqtasiga ko‘ra umumiste’moldagi so‘zlardan, atamalardan farq qiladi, ajratiladi.

Shuningdek, so‘z, atama - keng, umumiy;
Termin - tor, xususiy;
So‘z, atama - nisbatan mavxum, abstrakt;
Termin - aniq, konkret;

[50] O‘zbek tili atamashunosligi.– T.: Fan, 1992. 21-bet.

So‘z, atama - ilmiylik tushunchasiga (semasiga ega emas);
Termin - ilmiylik tushunchasiga (semasiga) ega;
Atama - eskirgan, nofaol;
Termin - faol, harakatchan;
So‘z - emotsionallikka, ekspressivlikka ega;
Termin - emotsionallikka, ekspressivlikka ega emas;
So‘z - jamiyatga, umumga, turli soha vakillarigaoid;
Termin - fanga, fan vakillarigaoid;
So‘z - aloqa quroli;
Termin - fan quroli;
So‘z-kelib chiqishiga ko‘ra birlamchi;

Termin - kelib chiqishiga ko‘ra ikkilamchi. U jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida fan bilan, fan taraqqiyoti bilan, fan faoliyati bilan yuzaga kelgan.

So‘z - leksikadao‘rganiladi, leksikologiyaning tekshirish obyekti;

Termin - terminologik leksikagaoid so‘z sifatida terminologiyadao‘rganiladi va boshqalar.

So‘zning ham, terminning ham hayoti xalq bilan, jamiyat bilan bog‘liq. Chunki jamiyat bor ekan, so‘z ham, termin ham yashayveradi, jamiyatga, fangaxizmat qilaveradi, muayyan vazifani bajaraveradi.

Jamiyatda, til va jamiyat dialektikasida terminlarning qo‘llanishi, ularning turli sabablarga ko‘ra lisoniy jarayonga kirib kelishi va faol ishlatilishi mutlaqo tabiiy bo‘lib, bu til siyosatining, jamiyat taraqqiyotining obyektiv, mantiqiy, zaruriy mahsuli hisoblanadi. Kirib kelayotgan terminlarning o‘zbekcha muqobili bo‘lgan taqdirda ham ulardan voz kechib bo‘lmaydi. Ularni ham bilishimiz va ulardan ham o‘rinli foydalanishimiz lozim. Chunki ular dunyo miqyosida faolligi bilan, fan uchun xizmat qilishi bilan muhimdir.



Shuningdek, jamiyat bor ekan, fan, taraqqiyot bor ekan, ularning (terminlarning) funktsional qamrovi, doirasi kengayib boraveradi. Bu jarayon jamiyat taraqqiyotining obyektiv mahsuli sifatida ijobiy baholanishi lozim. Ayni jarayonlarning oldini olish va unga qarshi asossiz kurash olib borish dialektik falsafani - metodologiyani, til va jamiyat dialektik munosabatini tushunmaslik, nazariya bilan amaliyotning uzviyligini tan olmaslikdir.

Xullas, termin fan, texnika, san’at, adabiyot, siyosat kabilarning «vakili», faoliyat quroli, yashash usuli sifatida tilning leksik sistemasidaalohida e’tiborga, fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, faqat o‘zigagina xos qator xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, jamiyatga, uning taraqqiyotiga faol xizmat qiluvchi va jamiyat ilmiy taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezondir, fan taraqqiyotining eng asosiy ko‘zgusidir.[51]

**Takrorlash uchun savollar**

1.So‘z va atamaning farqi nimada?

2.Istiqloldan so‘ng o‘zbek terminologiyasida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?

**Tayanch tushunchalar**

1. Termin - bir ma’noli so‘z.
2. Atama - atoqli ot; termin.

[51] R.Rasulov. Termin xususiyatlari. SamDU axborotnoma. 2005. №2, 68-71-betlar.

## NUTQ MADANIYATI VA DIPLOMATIK NUTQ

Nutq madaniyatining oily darajadagi ko‘rinishi, nutqning ham shaklan, ham mazmunan original uslubda berilishi, nutqning ixcham va mazmunan boyligi, nutq texnikasi asosida ma’lumot, xabar berish – nutqning katta ta’sir quvvatiga egaligi diplomatik nutqda namoyon bo‘ladi.

Tilning namoyon bo‘lishi nutqiy jarayonga, nutq faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, bunda nutq konkret nutqiy muhitga asoslanadi[52]. Demak, diplomatik nutqning namoyon bo‘lishi diplomatik faoliyatli muhitni talab etadi. Diplomatik faoliyatli muhit esa faqat va faqat davlat mustaqil bo‘lgandagina mavjud bo‘ladi.Diplomatik nutqni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va undan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj barcha davrlarda va barcha davlatlarda doimo muhim ahamiyatga ega bo‘lgan[53].

Notiqlik san’atining antik davrga oid adabiyotlarida diplomatik nutq kengash nutqi va kengashuv nutqi (siyosiy nutq, maslahatlashuv nutqi) tarkibida o‘rganilgan bo‘lib[54], uning xususiyatlari haqida shunday deyiladi: Yunon davlatlarida VI asrdan boshlab, bizning eramizgacha elchi etib, jamiyatning eng yaxshi notiqlarini, zukko advokatlarini tayinlashgan. Ular faqat va faqat eng jozibador, serjilo so‘zlardan foydalanishlari shart bo‘lgan[55].

---

[52] Неъматов Ҳ. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., 1995,7-бет.

[53] НикольсонГ. Дипломатия. – М.:Госполитиздат: ОГИЗ, 1941. 22-с.

[54] Арасту. Поэтика, Ахлоқи Кабир, Риторика. –Т.:Янги аср авлоди, 2011. 351-б.Ковалев Ан. Азбука дипломатии. – М.: Международное отношение. 4-ое изд.1984.24-с. Цицерон. Нотиқлик ҳақида икки рисола. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2007. 441-бет

[55] Никольсон Г. Дипломатия. – М.:Госполитиздат: ОГИЗ, 1941. 22 с.



Demosfen yozganidek: “Elchilar qo‘l ostida na kemalar, na piyodalar va na qo‘rg‘onlar bor. Ularning yagona quroli bu so‘zlar va qulay imkoniyatlardir. Muhim muzokaralar ketayotgan paytda bunday imkoniyatlar juda kam bo‘ladi. Agar bu imkoniyat qo‘ldan boy berilsa, demak, u butun umrga yo‘qotiladi. Qulay fursatdan foydalana olmay sustlashgan elchi nafaqat imkoniyatni qo‘ldan boy beradi, balki ularni boshqarish huquqini ham yo‘qotadi”[56].

Diplomatik nutq o‘zbek tilida azaldan mavjud[57] bo‘lib, bu haqda “O‘zbek diplomatiyasi tarixidan” asarida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi[58]. Jumladan: Elchining ishlari mutloq so‘z(lar)dan iborat, (ya’ni so‘zlar orqali bitadi). So‘zi yaxshi bo‘lsa, (u) tilagini topadi[59]. (Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig” asari)

“Azizim, – deya hukmdorga murojaat qiladi Xoja Samandar, – elchini biror joyga jo‘natishda nihoyatda katta e’tibor va ahamiyat bergin, unga safar mohiyati va mazmunini chuqur tushuntir. Chunki elchi podshohning tilidir. Uning kamoloti, aqli, tajribasi guftorida – nutqida oydinlashadi”[60].

Oqil elchi xush kalomlar dilg‘a payvand qilg‘usi,

Ikki yovni bir-biriga do‘stu dilband qilg‘usi. (Xoja Samandar Termiziy, “Dastur ul-mulk” asari)

XX asrdan boshlab, o‘zbek tilshunosligida – nutq madaniyati fanidan diplomatik nutq ijtimoiy-siyosiy notiqlikning bir turi sifatida o‘rganila boshlandi[61]. Diplomatik nutqning ilk ta’rifi

---

[56] Исраэльян В.Л. Дипломаты лицом к лицу. –М.: Международное отношение, 1990.13 с.

[57] Девону луғотит турк. Абдураҳмонов Ғ., Муталлибов С. Таҳрири остида. Т.: Фан, 1967. -540 б. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. T.:Cho‘lpon, 2007. 181-bet.

[58] Хайруллаев М.М. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Т., 2003, 376-бет.

[59] Yuqoridagi asar. 23-бет.

[60] Yuqoridagi asar. 300-332 бетлар.

[61] Расулов Р., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент, 2009.–131 бет.

S.Inomxo'jaevning "Notiqlik san'ati asoslari" kitobida keltiriladi: "Diplomatik nutq – davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo'lib, xalqaro mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi"[62].

Tadqiqotchi J.Sh.Safarov diplomatik nutqning kelib chiqish tarixi haqida shunday deydi: "Vozniknovenie diplomaticheskoy rechi uxodit svoimi kornyami v glub vekov, v epoxu formirovaniya politicheskix otnosheniy mejdu voznikavshimi v to vremya gosudarstvami"[63].

Tilshunos A.H.Aripova diplomatik nutqqa quyidagicha ta'rif beradi: "Diplomatik nutq: Biror davlat vakili (diplomatik shaxsning) rasmiy nutqi" – dir[64].

Siyosatshunos B.A.Omonov esa "Diplomatik nutq – davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo'lib, u xalqaro mavqega ega"[65] deb, S.Inomxo'jayevning ta'rifiga to'liq qo'shiladi. Ayni vaqtda tadqiqotchi diplomatik nutqni kimlar amalga oshirishini ham aytib o'tadi. Masalan, "... *shuningdek, hozirgi davr davlat arboblari, tashqi ishlar vazirligi, mas'ul xodimlarning rasmiy safar chog'idagi nutqlari diplomatik nutqqa misol bo'la oladi*"[66]. Qayd etilgan fikrlardan ma'lum bo'ldiki, diplomatik nutq sub'ekti: diplomatik shaxs, davlat arboblari, tashqi ishlar vazirligi va mas'ul xodimlardir.

---

Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент, Ўқитувчи, 1982.– 157 бет.

[62] Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент, Ўқитувчи, 1982.– 157 бет.

[63] Сафаров Ж.Ш. Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав: Дис. …канд.фил.наук.– Самарканд, 2000.45-с.

[64] Арипова А.Ҳ. Нотиқлик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Дис. ...фил.фан.ном.– Тошкент, 2002.–73 бет.

[65] Омонов Б.А. Сиёсий етакчи нутқ маданиятининг жамиятни демократиялаштириш жараёнларига таъсири. Дис. ...Сиёсий фан.ном.– Тошкент, 2004.–56 бет.

[66] Юқоридаги асар. 56 бет.



"Diplomatik til asoslari" o'quv qo'llanmasida diplomatik til haqida shunday fikr beriladi: "Diplomatik til ... biror insonning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holatini aks ettirmaydi, ilmiy tushunchalarni ifodalamaydi, balki bir butun xalqning yoki mamlakatning manaatlarini ifoda etadi"[67]. Til va nutqning o'zaro dialektik munosabati nuqtai nazaridan "diplomatik til"ga berilgan ushbu ta'rif bevosita diplomatik nutqqa ham tegishlidir.

Diplomatik nutq:

VI asrlarda – eng jozibador, serjilo so'zlardan iborat bo'lgan[68].

VIII-X asrlarda – Islom dinining keng tarqalish davri bo'lib, diplomatik nutq Qur'on oyatlari va hadislardan tuzilgan[69].

XIV –XIX asrlarda – Temuriylar, Boburiylar va Xonliklar davrida doimiy bosqinlar va urushlar ta'sirida diplomatik nutq sulh tuzish uchun xizmat qilgan[70]. Bunday paytlarda diplomatik nutq vakillari vazifasini obro'li zodagonlar, mahalla oqsoqollari, masjid imomlari va jasur navkarlar o'taganlar[71].

XX asrda – Sho'ro davri, mustamlakachi sovet siyosatining targ'ibot-tashviqot ishlari diplomatik nutqqa joylashtirilgan[72].

---

[67] Кўчимов Ш. Дипломатик тил асослари. Ўқув қўлланма. . – Тошкент, 2002.–29 бет.

[68] НикольсонГ. Дипломатия. – М.:Госполитиздат: ОГИЗ, 1941. 22с.

[69] Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ. Ҳадис 4.Т.: Қомус, 1992. 151-бет.

[70] Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 й.)– Т.:Ўзбекистон, 2010.–261 бет.

[71] Хўжаев М. Шермуҳаммадбек қўрбоши. – Т.:Шарқ, 2008. 303 бет. Қодиров П. Ҳумоюн ва Акбар. – Т.:Шарқ, 2005.369 бет.

[72] Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент, Ўқитувчи, 1982.– 9 бет.

XXI asrda esa diplomatik nutq – xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, madaniy aloqalarni mustahkamlash vositasi bo‘lib, unda tomonlar manfaatining tengligi asosiy me’yor qilib olindi[73].

XXI asrgacha bo‘lgan davrlarda diplomatik nutqning muhim xususiyati axborot etkazish bo‘lsa, XXI asrdan boshlab esa bu vazifa doirasi, qamrovi kengayib, chuqurlashib, axborot almashuviga o‘tildi. Aniqrog‘i, diplomatik munosabatlar va manfaatlar tenglik asosida olib borilgani uchun diplomatik nutqda ham taraflarning teng axborot almashuvi yo‘lga qo‘yildi.

Xullas, hozirda diplomatik nutq haqida so‘z borganda, davlatlar o‘rtasidagi nodir axborotlarning almashuvi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra, diplomatik nutqning asosini, mohiyatini eng nodir, eng muhim axborot, tengi yo‘q xabar, ma’lumot tashkil qiladi.

Diplomatik nutqning yana bir jihati, uning dialog shaklida amalga oshishidir. Bu xususiyat diplomatik nutq tarixidan to hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy notiqlik tarkibidagi siyosiy nutq, diniy nutq, harbiy vatanparvarlik nutqi kabilar ommaga qaratilganligi, unda notiqning bir o‘zi harakatlanishi, faolligi bilan ahamiyatli bo‘lsa, diplomatik nutq esa har ikki tomonning faol ishtiroki asosiga qurilgani – dialog shakliga egaligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

Xulosa shuki:

1. Diplomatik nutqning vazifasi axborot yetkazish – axborot almashish.

2. Diplomatik nutq asosida uning mezoni bo‘lgan eng muhim, eng nodir axborot, ma’lumot yotadi.

---

[73] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: Ўзбекистон, 2012, 38-бет.



3. Diplomatik nutq dialog shakliga ega.

4. Diplomatik nutq tomonlarning tengligi – teng huquqliligi asosida amalga oshadi.

5. Diplomatik nutq mohiyatan-mazmunan xalqlar – mamlakatlarning umumiy manfaatlarini, qarashlarini ifodalaydi.

6. Diplomatik nutq xalqlarning – mamlakatlarning mustaqillik belgisidir. Ularning tenglik asosida axborot almashuv huquqiga egaligidir.

**Tayanch tushunchalar**

Diplomatiya – Davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyatidir.

Diplomatik nutq – Davlatlar o‘rtasida nodir axborotlarning almashinuvi nazarda tutiladi. Diplomatik nutqning asosini, mohiyatini eng nodir, muhim axborot, tengi yo‘q xabar, ma’lumot tashkil qiladi. Diplomatik nutq dialog shaklida amalga oshadi.

Ushbu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, notiqlik san’ati o‘sha davrlardaxuddi harbiy mutaxassislik va boshqa shu kabi ijtimoiy - siyosiy zarur mutaxassisliklar qatori maxsus maktablarga ega bo‘lgan. Yunonistonda keyinchalik aristokratiya, demokratiya tuzumining o‘rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlari va sud jarayonlarida mamlakatning har bir erkin fuqarosi ishtirok etish, ko‘rilayotgan masala yuzasidan erkin muhokama yuritish huquqiga ega bo‘lgan. Bu hol keng omma orasida ham notiqlik sa’natining rivojlanishi uchun juda qulay sharoit yaratdi. Chunki notiqlik san’ati har bir fuqaro uchun zaruriy ehtiyojga aylangan edi. Shu bois barcha davlat arboblaridan tortib, xalq majlislarining ishtirokchisi bo‘lgan erkin fuqarolar ommasi notiqlik san’atining asoslarini egallash uchun kurashar va maqsadga erishish uchun maxsus ustoz-o‘qituvchilardan dars olishardi. Badavlat oilalar esao‘z farzandlarini bolalik chog‘idanoq shu mo‘tabar san’at bilan qurollantirishga urinar va farzandlarini maxsus notiqlik san’ati maktablariga berib o‘qitardi. O‘z - o‘zidan ma’lumki, ana shu ommaviy ehtiyoj tufayli notiqlik san’atining boshlang‘ich, o‘rta vaoliy ta’lim darajasidagi maktabi mavjud bo‘lib, ularda ming-minglab kishilar maxsus ta’lim olardi.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, Yunon demokratiyasi nechog‘liq demokratiya bo‘lmasin, biroq u hozirgi tushunchadagi eng progressiv ma’nodagi demokratiya emasdi. Gap shundaki, antik Yunonistonning davlat sistemasi quldorlikdan iborat edi. Erkin fuqarolardan tashqari yana ikki toifa bor ediki, ular qullar va chetdan kelgan, kelgindi, deb kamsitiluvchi kishilar bo‘lib, ular erkin fuqarolar ega bo‘lgan huquqlardan foydalanishga mutlaqo haqlari yo‘q edi.

Sud ishlarida o‘rnatilgan tartib notiqlik san’atining yuksalishiga katta turtki bo‘ladi. Sud jarayonida da’vogar ham, himoyalanuvchi ham – har biri o‘z manfaatini himoya qilish uchun



kurashardi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo‘lishi ko‘pincha sudlanuvchi shaxs yoki da’vogarning notiqlik san’atidagi mahoratiga bog‘liq edi. Qay tomon o‘zining mantiqiy, asosli dalil va ma’lumotlari bilan sud hay’atini ishontiraolsa, hukm o‘shaning foydasiga chiqarilar edi. Lekin hamma sudlanuvchi yoki da’vogarlar ham yetuk notiq bo‘lgan raqiblarining tazyiqiga dosh berishlari qiyin edi. Shuning uchun ham antik sud tizimining qoidalariga ko‘ra bunday kishilarga u yoki bu kishi nomidan so‘zlovchi notiqlardan yordamchi olishga ruxsat berilardi. Sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko‘zlab, nutq so‘zlovchi ana shu toifadagi notiqlarga sinegorlar deyilib, ularning nutqi **sinegoriya** deb atalardi. Bora-bora esa ana shu **sinegorlar** toifasidan sud hay’atining ajralmas qismi bo‘lgan hozirgi tushunchadagi advokatlar kelib chiqdiki, bu ma’noda sinegorlar instituti chinakamiga ijobiy, demokratik rol o‘ynadi, deb aytish mumkin.

**Sinegorlar** notiqlik san’ati va huquqshunoslikdan maxsus ta’lim olgan kishilar bo‘lib, ana shu sud jarayonidagi qatnashuvchilar hisobigao‘z himoyalaridagi kishilardan xizmat haqi olib, tirikchilik qiluvchi professional notiqlar edi. Shu ma’noda ularni ixtisoslashgan notiqlar, deb aytish mumkin. Chunki sud notiqligi oldida birovni oqlash uchun ular bor bilimlarini va mahoratlarini ishga solishga majbur edilar. Bugina emas, ular dastavval olgan ishlarini ipidan ignasigachao‘rganib chiqishlari va nihoyat jonli so‘z san’atigaoid bor mahoratlarini ishga solib, sud jarayonida yutib chiqishga harakat qilishlari lozim edi. Shuning uchun ham sinegorlar sud notiqligi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar.

**Logograflar** ham sinegorlarga judao‘xshash kishilar bo‘lib, aslida ularni ham sinegorlardan ajralib chiqqan muayyan ixtisosli kishilar, deb aytish mumkin.

Logograflar nutq matnlarini tuzuvchi yoki yozib beruvchi kishilar edi. Sinegorlar ham yozib, ham himoya qilgan bo‘lsalar, logograflar ko‘proq yozib berish bilan shug‘ullanardilar. Biroq bu ularning shaxsan nutq so‘zlashlarini istisno qilmasdi.

Bu kasb egalari o‘z ixtisosliklari taqozosiga ko‘ra huquqshunoslik, notiqlik va nutq matnini yozishda iqtidorli kishilar bo‘lganlar. Chunki ular qonunshunos mutaxassis, ta’sirchan, mantiqiy izchil va ishontiruvchi nutqlarning yozuvchisi, o‘rni kelganda notiq sifatida o‘z himoyalaridagi kishilarni keng ommaoldida, demokratik sud oldida oqlab chiqishlari kerak edi. Zabardast notiqlar nutqiga o‘rganib qolgan afinaliklar va sud hay’ati oldida bu ishni bajarish juda mushkul bo‘lgan. Shuning uchun ham logografiya bilan eng bilimdon, zehni o‘tkir, tadbirkor kishilargina shug‘ullanganlar. Shuningdek, logografiya bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanib kelgan kishilarning ko‘pchiligi bora-bora yo yirik davlat arbobi darajasiga ko‘tarilgan yo yaxshigina badiiy ijodkor-yozuvchi bo‘lib yetishgan.[75]

Yunoniston – jahon notiqlik san’atining yirik namoyandalarini yetkazib berdi. Perikl, Lisiy, Demosfen, Aristotel ana shular jumlasidandir.

Perikl yirik siyosiy arbobgina bo‘lib qolmay, ko‘zga ko‘ringan notiq ham edi. Perikl nutqlarining birorta matni ham bizga qadar yetib kelmagan. Lekin uning usta, ko‘zga ko‘ringan notiq bo‘lganligi haqida grek tarixchisi Fukidid ma’lumot beradi. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, shaklning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar ruhiyatini e’tiborgaolganligi bilan xarakterlanardi.[76]

Eramizdan oldingi V asr oxiri va IV asr boshlarida yashab o‘tgan taniqli sud notiqlaridan biri Lisiy edi. U usta logograf ham

[75] S.Inomxo‘jayev. O‘sha asar, 66-67-betlar.
[76] B.O‘rinboyev A.Soliyev. Notiqlik mahorati. –T.: 1984. 17-bet.



bo‘lib, o‘z himoyasidagi ayblanuvchilarga nutq matnini yozib berardi. Lisiyning notiqligigaxos xususiyatlardan biri hamma notiqlar uchun zarur bo‘lgan usul-fikrni yangicha shaklga solishni judaoson egallaganligidir. U gapirishi lozim bo‘lgan kishining xarakterini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq matnini ishlab chiqishga mohir ediki, bu nutq faqat o‘sha so‘zlovchigagina xos bo‘lardi.

Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, hikoyachilik san’atini egallab olganligidir. U har qanday voqelikni sodda, jonli,qiziqarli shaklda hikoya qilishga usta edi. Uning notiqlik san’atidagi uchinchi xususiyat uslubidagi aniqlik, soddalik va tabiiylik edi.[77]

Qadimgi Yunonistonning buyuk notiqlaridan yana biri Demosfendir. Demosfen eramizgacha 384-yilda tug‘ilib, 322-yilda vafot etgan. U dastlab o‘zini himoya qiluvchi sud notig‘i sifatida tanilgan. Keyinchalik u logograflik qiladi.

Demosfen notiqlik san’atini o‘rganish uchun juda ko‘p vaqt sarflaydi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi, ovozi past va diktsiyasi yomon bo‘lgan, kifti asabiy ravishda titrab turgan. Ma’lumotlarga qaraganda Demosfen ovozini o‘stirish uchun og‘ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirg‘og‘ida nutq so‘zlardi va to‘lqin shovqin-suronini bosib ketishga harakat qilardi. Kiftining titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday ildiradiki, uning o‘tkir uchi kiftga yaqin turardi va kifti titragudek bo‘lsa, qilichning uchi tegib og‘ritardi. Shu yo‘sindaolib borilgan uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergan. Tinimsiz mehnat tufayli u mashhur notiq bo‘lib yetishdi.

[77] B.O‘rinboyev A.Soliyev. O‘sha asar, 18-bet.

Demosfen nutqi uning xarakterini aks ettiruvchi oyna edi. Undagi kuchli vatanparvarlik tuyg‘usi nutqlarida o‘z ifodasini topardi.

Demosfendan keyin o‘zining notiqlik talanti bilan nom chiqargan Aristotel eramizdan oldingi 335 yilda notiqlik san’ati nazariyasi - «Ritorika» asarini yaratdi.

Bu asar uch qismdan iborat:

1. Nutq xizmat qilishi lozim bo‘lgan tamoyillar tahlili.
2. Notiq uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyat va qobiliyat.
3. Notiq nutqida qo‘llaniladigan nutq texnikasi, nutq usullari.

Aristotel nutq uslubigaalohida e’tibor beradi. Aristotelning notiq uslubi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. U notiq nutqi uslubining layoqatliligi, uning aniqligi bilan belgilanadi, deb juda to‘g‘ri ko‘rsatadi. Agar nutq aniq bo‘lmasa, notiq o‘z maqsadiga erishaolmaydi, tinglovchilarga keraklicha ta’sir etolmaydi. Taniqli faylasuf, ayrim notiqlar nutqida epitet, o‘xshatish, metafora va boshqalarning o‘rinsiz qo‘llanishini qoralaydi va ularni to‘g‘ri qo‘llay bilish nutqning ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadi.[78]

Rim notiqlik san’ati Yunon notiqlik san’atining davomi sifatida yuzaga keldi. Rimdagi iqtisodiy va siyosiy o‘sishning xarakteri notiqlik san’atining yangi tipini yaratdi.

Yunonistonda bo‘lganidek, Rimda ham notiqlikning, asosan, uch turini ko‘rsatish mumkin: **sud notiqligi** - oqlovchi va qoralovchi, **siyosiy notiqlik,maqtov notiqligi.** Bulardan tashqari, Yunonistonda bo‘lganidek, notiqlik san’atini o‘qitish uchun xizmat qiluvchi o‘quv - mashq notiqligi ham mavjud edi.

Rimda urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkon berdi.

[78] B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar, 19 -bet.



Rimlik notiqlardan biri eramizdan ilgari III – II asrlarda yashab o‘tgan davlat arboblaridan **Mark Partius Kato** yoki **Katondir**. Katon notiq sifatida nutq san’ati nazariyasi vaamaliyoti masalalari bilan maxsus shug‘ullangan.

Keyinchalik Rimda aka-uka Tiberiy va Kay Grakx, Mark Antoniy, Mark Tulliy Sitseron kabi taniqli qator notiqlar yetishib chiqadiki, bular ichida eng buyuk va so‘zamoli notiq **Sitseron** edi. Sitseron va Demosfen qadimgi notiqlarning eng buyuklari edi. Demosfen ko‘proq o‘zining siyosiy notiqligi bilan shuhrat topgan bo‘lsa, Sitseron sud notiqligi bilan tanildi. Albatta, Sitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi. Rimda, umuman, siyosiy tomonni chetlab o‘tgan birorta ham yaxshi notiq bo‘lmagan.

Sitseron timsolida notiqlik san’atining nazariyasi hayot tajribasi va nazariyasi bilan muvaffaqiyatli ravishda qo‘shib olib borildi. U notiqlik san’ati nazariyasining ayrim tomonlarini ishlab chiqibgina qolmay, o‘z notiqlik chiqishlari bilan buni tajribada isbot etdi. Sitseron nutqining muvaffaqiyatli chiqishi uchun notiq quyidagilargaalohida e’tibor berishi lozimligini ko‘rsatadi:

1. Notiqning o‘ziga ishonchi mustahkam bo‘lishi kerak. Buning uchun esa notiq o‘z nutqidaolg‘a suriladigan fikrga to‘la ishonch hosil qilishi lozim.
2. Nutq to‘liq isbotli dalillarga ega bo‘lishi kerak.
3. Materialni to‘plash nutqqa tayyorgarlikning asosidir.
4. Materialni to‘g‘ri joylashtirish-ekspozitsiyag aalohida e’tibor berish lozim. Joylashtirish shunday bo‘lsinki, u materialni butunlay o‘zlashtirib olishga yengillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniq qismlarga bo‘lish lozim.
5. Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini bilish hal etadi. Agar notiq o‘z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik san’atkor bo‘lmasin, o‘z tinglovchisini jalb etolmaydi.

Sitseronning notiqlik san'ati nazariyasi va tarixigaoid uchtaasari ma'lum: «Notiqlik haqida», «Notiq» va «Brut» (yoki «Taniqli notiqlar haqida»).[79]

Rim notiqlik san'atining buyuk nazariyotchilaridan biri **Kvintiliandir**. Mark Fabiy Kvintilian notiqlik san'atida yirik notiq va nazariyotchi sifatida shuhrat qozongan. Uning «Notiq bilimi haqida» nomli asari mavjuddir. Kvintilian Sitseron va boshqa Rim notiqlari fikriga qo'shilgan holda, hamma notiq birinchi navbatda bilimli bo'lishi lozimligini aytadi. Shuningdek, u notiq axloqiy,olijanob bo'lishi lozim, busiz hech qachon haqiqiy notiq darajasiga ko'tarila olmaydi, deb biladi.

Kvintilian Rimdagi notiqlik maktabining asoschisi hisoblanadi. Ungacha notiqlik bilimini berish xususiy maktablarda amalga oshirilgan.

Umuman qadimgi Yunoniston va Rimning notiqlik san'ati tajribalari o'rtaasr va keyingi davr notiqlarining vujudga kelishida muhim rol o'ynaydi.

O'rtaOsiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham qadimdan so'zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelgan. O'sha davrda notiqlik san'ati – **voizlik**, notiqlar – **voiz**, nutq esa **va'z** deb atalgan.

O'rta Osiyo xalqlari, xususan, IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. O'rta asr fani, madaniyati Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Koshg'ariy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi ulug' siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi.

Bu mutafakkir, shoir, san'atkorlar yashagan davr Sharq tarixida **Uyg'onish davri** deb ataldi. Bu davrda madaniyat, san'at,

[79] B.O'rinboyev, A.Soliyev. O'sha asar, 22-bet.



ilm – fan ravnaq topdi. Fan va madaniyat targ'ibotchilari – voizlar yetishib chiqdi. Voizlikni qadrlovchi fikrlar vujudga keldi.[80]

Kaykovusning XI asr Sharq pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi «Qobusnoma»sida ham notiqlik sharhlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'atga bo'lgan, uning san'atkoriga bo'lgan qiziqishning orta borganligini ko'rsatadi. «Qobusnoma»ning «Suxandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida» deb nomlangan yettinchi bobida va hunarni egallashga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir bildirilgan mulohazalar nafaqat o'sha davrda, balki hozirda ham katta ahamiyatga ega.

Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari – notiqlikni a'lo deb biladi. U notiqlikni egallashning yo'li, birinchidan, «tinimsiz mehnat, o'rganishdir», deydi.

Ikkinchidan, – nutqning go'zal bo'lsin, – deydi. «So'zning ikki tomoni bordir: biri go'zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin».

Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to'g'ri yo'l topa bilish, shaklga e'tibor berish masalasi.

To'rtinchidan, har bir so'z to'g'ri vaasosli bo'lmog'i lozimligini uqtiradi.

Beshinchidan, har bir nutq ma'lum ilmiy asosga ega bo'lsagina, ta'sirchan bo'ladi. Ya'ni nutq qaratilgan predmetni yaxshi o'rganib chiqish lozimligini ta'kidlab: «Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm ma'rifatni bilaman deb, da'vo qilsang hech narsa hosil bo'lmaydi va behuda zahmat chekasan», - deydi... Nutqni egallashdan maqsad xalq diliga yo'l topa bilishdir, deb

[80] B.O'rinboyev, A.Soliyev. O'sha asar. 24-bet.

biladi muallif va «agar ko‘ngillarga sevimli bo‘lishni istasang, xaloyiqning maqsadini so‘zla», - deydi.[81]

Umuman musulmon sharqi madaniyatining salmoqli zarvaraqlarini tashkil etuvchi notiqlik san’ati tarixigaoid talaygina manbalar bor bo‘lsa-da, ulardan hech biri Alisher Navoiy qoldirgan meros kabi qimmatli va boy emas.

Alisher Navoiy o‘z davrining buyuk mutafakkiri, so‘z ustasi bo‘lish bilan birga kishilarga yaxshi so‘z bilan ta’sir eta bilish san’atini juda ham qadrlovchi, ulug‘lovchi, bunday san’at ustalariga e’tibor qilib, ehtirom ko‘rsatuvchi shaxs edi. Navoiy omma o‘rtasida yaxshi nutqning ta’siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Notiqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko‘ra bilish va ularni farqlay olishga chaqiradi:

To‘tiyu shorik agar notiqdurur,
Har biriga o‘zga bir mantiqdurur.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» nomli falsafiy asarining 24-faslini «Nasihat ahli va voizlar zikrida» deb ataydi va bunda voizlik san’atiga, va’zga, voizga o‘z munosabatini bildiradi.[82]

Navoiy voiz qanday kishi bo‘lishi kerakligi haqida shunday fikr yuritadi: «Voiz Haq so‘zni targ‘ib qilishi, Payg‘ambar so‘zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o‘zi Haq va Payg‘ambar yo‘liga kirishi, so‘ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo‘lga solishi lozim. O‘zi yurmagan yo‘lga elni boshlamoq - musofirni yo‘ldan adashtirib biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo‘qotmoqdir. O‘zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi – uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da’vat etganigao‘xshash bir narsadir». Demak, voiz, avvalo, o‘zi shariat va tariqat yo‘liga kirgan notiq bo‘lishi kerak ekan.

[81] B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 28-29- betlar.
[82] B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar, 31-bet.



Navoiy nazdida, «Va’zxon shunday bo‘lishi kerakki, uning majlisiga bo‘sh kirgan odam to‘lib chiqsin, to‘la kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish ko‘ruvchi bo‘lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo‘ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o‘zi qilmasa, uning so‘zlari hech kimga ta’sir etmaydi va foyda keltirmaydi. Voiz bilimdon, halol ish ko‘ruvchi, sidqu sadoqat bilan faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs bo‘lishi bilan birga, xalqning ruhiyatini yaxshi biladigan, xalqning dardi bilan yashaydigan bo‘lishi kerak. Ana shundagina uning va’ziga yurak-bag‘ri g‘am-alamga, dardu tashvishlarga to‘lib kirgan kishi dardlaridan forig‘ bo‘lib, ko‘ngli bo‘shab, yengil tortib chiqadi. Qalbida ma’naviy ruhiy bo‘shliq bo‘lgan odam esa bunday voizning suhbatidan olam - olam ma’naviy zavq olib, ko‘ngli, shuuri fikriy nurga to‘lib chiqadi.

Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do‘sti bo‘lgan Husayn Voiz Koshifiy Sharqning mashhur allomalaridan biri bo‘lgan. U axloq, tarix, tasavvuf, nujum (astronomiya) riyoziyot, fiqh sohalariga doir qirqdan ortiq asar yaratgan. Uning «Futuvvatnomai sultoniy», «Axloqi Muhsiniy», «Javohir ut-tafsir», kabi o‘nlab asarlari besh yuz yildan beri sharqona odob va axloq dasturi sifatida yurtma-yurt, qo‘lma-qo‘l o‘qib kelinmoqda.

Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari o‘zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qilaolgan. Aytishlaricha, uning bunday so‘z san’atidagi mahoratini Alisher Navoiy bilan birga Sulton Husayn Boyqaro ham yuksak baholagan va ular o‘z asarlarini aholi o‘rtasida rasmiy ijro etish lozim bo‘lgan paytlarda bu ishga Husayn voizni munosib ko‘rganlar. 898 (1492)-yil 8-noyabr kuni buyuk shoir, Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiyning dafn marosimidaAlisher Navoiy o‘zining bag‘ishlov

she'rini o'qib eshittirishni, shu marosimda va'z aytgan Husayn voizga topshirganligi buning dalilidir.[83]

Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Xo'ja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Muin voiz kabi yana bir qancha voizlar haqida ham atroflicha fikr bildiradi. Shuningdek, mumtoz merosimizda axloq-odob o'rgatuvchi voizning o'z odobi haqida ko'p fikr yuritiladi. Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliyning «Oxiratnoma» asarida ham shunday. G'azzoliy voizlarning voizi bo'lib, voizlarga dastur ul-amal tariqasida pand-nasihat aytadi. U voizning tili – nutqiga, voizning uslubigaalohida e'tibor qaratadi: «Mabodo, va'z o'qitishdan boshqa ilojing qolmasa, ikki narsada ehtiyot bo'l: birlamchi-so'zlaring ortiqcha ibora-yu ishoratlar, asli puch hikoyatlaru ma'nisiz baytlar ila yasangan, ya'niki sertakalluf bo'lmasin! Chunki Olloh taolo takalluf qiluvchilargag'azab qiladi, ularni do'st tutmaydi. Haddan tashqari sertakalluflik voizning batamom xarob, qalban g'aflatda ekanidan dalolat qiladi». Darhaqiqat, notiqning nutqi asosiy maqsadga qaratilgan, har qanday ortiqcha so'z va iboralardan xoli bo'lishi kerak. Aksariyat notiqlar nutqlarini sertakalluf, jimjimador so'z va iboralar bilan bezashga harakat qiladilar. Ular nutqlarining chiroyli bo'lishini istaydilar va uning tashqi chiroyiga zo'r beradilar. Aslida esa nutqqa chinakam zeb beradigan narsa fikrdir. Voizni eshitimli qiluvchi omillardan biri hayotiy va ibratli hikoyatlar va baytu g'azallar bilan omixta gapirishdir. Albatta, me'yorni unutmaslik lozim.

**Takrorlash uchun savollar**

1. Notiqlar deb kimlarga aytiladi?
2. Notiqlikning qanday ko'rinishlari bor?

[83] B.O'rinboyev, A.Soliyev. O'sha asar. 34-bet.



3. Voiz deb kimga aytiladi?
4. Notiqlikning voizlikdan qanday farqi bor?

**Tayanch tushunchalar**

1. Logograflar – nutq matnini yozib beruvchi shaxslar.
2. Sinegorlar – sudda boshqa birov manfatini ko'zlab nutq so'zlovchilar.

## NOTIQLIK SAN'ATI TURLARI

Notiqlik mahorati juda ham qadimiy tarixga ega. Bu san'at g'arbda va sharqda qadimdan rivojlangan. Sharq notiqlaridan Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz, Navoiy va Boburlarning nutqlari va asarlari buning yorqin dalilidir. Har bir davrda notiqlik san'atiga o'ziga xos e'tibor qaratilgan, notiqlik san'ati o'sha davrning g'oya va mafkurasiga bo'ysundirilgan. Shunga qaramasdan, notiqlik mahoratini ifodalovchi bir qator omillar mavjud.

Ma'lumki, har bir kishi o'z nutqining mazmunli va ta'sirchan bo'lishini, qolaversa, nutq jarayonidagi holat ham notiqqa o'z ta'sirini ko'rsatadi: tinglovchilarning kam yoki ko'pligi, auditoriyaning katta yoki kichikligi, qatnashuvchilarning tarkibi va saviyasi, notiqning tajribasi va mahorati. Qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har qanday kishi ham, notiqlik mahoratini egallashi mumkin. Buning uchun eng avvalo, kuchli qiziqish va o'z ustida uzluksiz, tinimsiz ishlashi kerak. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mashhur va taniqli notiqlar bu maqsad yo'lida tinimsiz mehnat va mashq qilganlar.

**Notiqlik.** Notiqso'zi arab tilidan olingan bo'lib, u nutq, mantiq so'zlari bilan o'zakdoshdir. Nutq so'z va tafakkurning uzviy bog'liqligida namoyon bo'ladi. Notiq boshqa odamlar xulq-atvoriga va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga so'z orqali ta'sir etuvchi shaxsdir. Notiqning tafakkuri va ongi uzviy bog'liqdir. Notiq mantiqiy fikrlash xususiyatiga ega bo'lgan hamda idroki, xotirasi, o'y-xayollari, irodasi, so'zamolligi, gapga chechanligi, bilimliligi bilan oddiy odamlardan farqlanuvchi shaxsdir.

**Askiyachilik.** Askiyachi so'zi arabcha «zakiy» so'zidan olingan bo'lib, «hozirjavob, o'tkir zehnli» degan ma'nolarni



anglatadi. Jamoat oldida ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'zda o'z qobiliyatini namoyon qilib tortishuvchi kishi - askiyachi deyiladi. Askiyada ikki va undan ortiq kishi yoki ma'lum guruhlar o'zaro musobaqalashadi. Askiyachi hozirjavob bo'lishi, ko'p ma'noli, kulgili, ta'sirli va qochirimli so'zlashi lozim. U ona tilining boyliklarini yaxshi bilishi, kinoya, qochirim, hazil, masxara, kesatiq, o'xshatish, mubolag'a kabi san'atlardan unumli foydalanishi lozim. Askiyachining vazifasi kulgi orqali odamlarga zavq berish, ularning bilimi va aqlini charxlash, hozirjavob bo'lishga o'rgatishdir.

Askiyachilikning turlari ko'p: payrov, safsata, o'xshatdim, qofiya, laqab va boshqalar.

O'zbek xalqi qadimdan to'y, sayil va bayramlarda askiya bo'yicha musobaqalar o'tkazib keladi. Askiyachilik rivojiga Dehqon Shernazarov, Erka qori Karimov, Yusufjon Shakarjonov, Aka Buxor Zokirov, Ijroqumbuva Aminov, Abdulhay maxsum Qozoqov va boshqalar katta hissa qo'shishgan.

**Badihago'ylik.** Badihago'y so'zi arabcha badiha-go'y - so'zlovchi so'zlaridan olingan bo'lib, hozirjavob va chechan kishilarning she'riy yo'sinda birdaniga so'z, she'r yoki qo'shiq aytishidir. Badihago'y asarni ijod etadi yoki unga ma'lum bir o'zgartishlar kiritadi. Badiha erkin tarzda ijod va ijro etilgan asar bo'lib, badihago'ydan katta tajriba va yuksak iqtidor talab etadi. Badihago'ylikning tur va janrlari ko'p bo'lib, eng ko'p tarqalgani baxshichilikdir. Po'lkan, Ergash Jumanbulbulo'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir va boshqalar baxshilik (badihago'ylik) san'atiga munosib hissa qo'shganlar.

**Voizlik.** Voiz so'zi arabcha «va'z» so'zidan («da'vat», «xitob» ma'nosida) olingan bo'lib, islomda odamlarni ezgulikka va yaxshilikka chaqiruvchi, jamoat oldida nutq so'zlovchi shaxsni anglatadi. Al Basriy islomdagi ilk voiz bo'lgan. Taniqli olimlar,

shoirlar, din arboblari ham voizlik san'atiga munosib hissa qo'shishgan. Ayniqsa, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Rumiy va boshqalar o'z nutqlari bilan mashhur bo'lganlar. Voiz xushovoz, ishontiradigan, ta'sirchan gapiradigan, talaffuzi aniq va ravshan, yuksak bilimli va madaniyatli, bir necha tillarni egallagan shaxs bo'lgan. Keyinchalik voizlikning ahamiyati oshib nafaqat islomiy ma'ruza, balki siyosiy va xalqaro ahvolga bag'ishlangan ma'ruza, bahs va munozarani qamrab olgan. Juma namozi va hayit kunlarida voizlar xalq oldida nutq so'zlaganlar. Voizlik san'atining rivojlanishi natijasida uning yangi tarmoqlari vujudga kelgan: xatiblik - diniy va siyosiy ma'ruza; muzakkirlik - diniy-axloqiy masalalar; dabirlik - davlat miqyosidagi yozishmalar va uni o'qib berish.

**Maddohlik.** Maddoh so'zi arabcha «madh» («maqtov», «ta'rif») so'zidan olingan bo'lib, biror shaxs yoki narsa, voqeani madh etuvchidir. U asosan diniy mavzularda, xususan, Muhammad payg'ambar va choryorlarning hayoti hamda xislatlari haqidagi ma'lumotlardan badiha tarzida aytuvchi hisoblanadi. Diniy baytlarni, g'azallarni va hikoyalarni baland ovozda keng xalq ommasi oldida ravon va ifodali aytish maddohning asosiy vazifasi hisoblanadi. Demak, maddohlik diniy aytish yo'li bo'lib ijrochidan notiqlik mahoratini talab qilgan. Keyinchalik maddoh so'zining yana bir ma'nosi yuzaga keldi. Biror shaxsni, xislatni yoki g'oyani haddan ortiq maqtovchi ham maddoh deb yuritila boshladi.

**Suxandonlik.** Suxandon so'ziforscha «suxan» («so'z») so'zidan olingan bo'lib, so'zga chechan, so'z ustasini anglatadi. Suxandon turli mavzularda nutq so'zlaydigan madaniyatli va ma'rifatli shaxs hisoblanadi. U turli bayramlarda, keng xalq ommasi oldida, marosim va tadbirlarda, anjuman va kechalarda faollik ko'rsatadi.



Adabiyotshunos Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja suxandonlikning o'tmishdagi va hozirgi ahvoli borasida fikr yuritib, uning rasmiy va norasmiy davralardagi talablari bilan bog'liq mulohazalarni ilgari suradi. «Suxandonlikning quyidagi asosiy shartlari bor: birinchidan, u ma'naviy-axloqiy yetuk, ma'rifatli zot bo'lsin, ikkinchidan - yoshi ulug'roq, hayotiy tajriba ko'rgan bo'lsin, uchinchidan – el taniydigan va elni taniydigan bo'lsin, to'rtinchidan – nutqiy kamchiligi bo'lmasin, beshinchidan – ko'rinishi ko'rkam, nuroniy va yoqimtoy bo'lsin, oltinchidan – davra tashkilotchisi yoki to'y-ma'raka egasiga yaqin bo'lsin, yettinchidan – davra qatnashchilari, xonadon ahli, mehmonu mezbonlarning asosiy qismini taniydigan kishi bo'lsin».[84]Diktor so'zi ham bo'lib, u radio va televidenieda nutq so'zlovchi shaxsni anglatadi. Diktor so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) telekamera yoki mikrofon orqali tayyor matnni xush ovoz bilan ifodali o'qib beruvchi shaxs; 2) matnga qaramasdan ravon va chiroyli gapiruvchi shaxs.

Diktorning ikkinchi ma'nosiga xos xislatga ega bo'lgan notiqlar diktor so'zini suxandonning sinonimi sifatida ishlatishadi. Notiqlik san'atining nazariy va amaliy masalalari bo'yicha Rahimboy Jumaniyozov «Nutqiy mahorat» qo'llanmasida bu haqda shunday yozadi: «Boshqa tildan o'zlashgan so'zlar ko'pincha ma'no torayishi va kengayishi bilan kirib keladi. Suxandon so'zi hozir diktor ma'nosida qo'llanilmoqda. Aslida, noto'g'ri. Diktor bo'lish mumkin, suxandon bo'lolmaslik mumkin. Diktor tayyor matnni yoqimli talaffuz, diktsiya bilan ifodali tarzda o'qib beruvchidir. Diktorlarning suxandonlik mahoratini egallaganlari ham borligini inkor etib bo'lmaydi. Diktor matn bilan qattiq bog'lansa, suxandon matn bilan erkin munosabatda bo'ladi.

[84] Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja. O'sha asar, 68-69-betlar.

Nutqiy malakaga, ko‘nikmaga ega bo‘lmagan diktor tilimizning sofligini ham, boyligini ham namoyish eta olmaydi. Chinakam diktor nutq texnikasi, ya’ni ovoz, nafas, intonatsiya, pauza, ohang kabi nutqning ifoda vositalari, mashqiy jarayon bilan chegaralanib qolmasdan, balki nutqiy mahorat, nutqiy faoliyat qirralarini egallashga intilishi, nazariy ma’lumot va amaliy mashg‘ulotni uyg‘unlashtira olishi zarur. Ifodali o‘qish, matn mazmunini yetkazishga daxldor texnik va nazariy vositalarni bilish va unga amal qilish har doim ahamiyatlidir. Diktor yuqoridagilarni kundalik mashq orqali shakllantirib boradi»[85]

**Qissago‘y.** Qissaxon (qissago‘y) – afsona, ertak, dostonlarni ravon va ifodali o‘qiydigan kishi bo‘lib, turli tadbirlarda, to‘y va bayramlarda o‘z mahoratini namoyish qiladi.

**Qiroatxonlik.** Qiroatxon ta’sirchan, ifodali o‘qiydigan shaxs bo‘lib, qissaxon uning bir ko‘rinishidir. Qiroat musiqiylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Arabiy qiroat talabi, tajvid qoidalari bilan o‘qiluvchi Qur’on tilovati bunga misoldir. Qur’on yoddan yoki manbaning o‘zidan o‘qiladi hamda qiroatga rioya etiladi. Taniqli so‘z san’atkorlarining nomi bilan ataluvchi navoiyxonlik, boburxonlik, bedilxonlik kabilar qiroatxonlikka misol bo‘la oladi.

[85] R.Jumaniyozov Nutqiy mahorat. – T.: 2005. 20-bet



## NUTQIY SAN’ATLAR

| OG‘ZAKI NUTQ | YOZMA NUTQ |
|---|---|
| 1. Voizlik | 1. Dabirlik |
| 2. Notiqlik | 2. Kotiblik |
| 3. Suxandonlik | 3. Munshiylik |
| 4. Qissago‘ylik | (mirzolik) va b. |
| 5. Roviylik | |
| 6. Badihago‘ylik | |
| 7. Askiyachilik | |
| 8. Maddohlik va b. | |

## ADABIYOTLAR


1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». T.: 2000.
2. Alisher Navoiy. «Mahbub ul - qulub». T. 1983.
3. A.Muhiddinov. «O‘quv jarayonida nutq faoliyati» T.: 1995.
4. A.Ahmedov. «Notiqlik san’ati». T.: 1967.
5. A.Ortiqov, A.Ortiqov. «Nutq madaniyati va notiqlik san’ati». T.: 2002.
6. B.O‘rinboyev, A.Soliev. «Notiqlik mahorati». T.: 1984
7. В.Г.Костомаров. «Культура речи и стиль». М.: 1960.
8. R.Rasulov. «Istiqlol talabi», Guliston jur. № 2. T.: 1994.
9. R.Rasulov. «Til hayotimiz ko‘zgusi». Nafosat jur. № 2.T.: 1993.
10. R.Rasulov. «O‘zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi». T.: 2001.
11. R.Rasulov, I.Umirov. «O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati». T.: 1997.
12. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov. O‘qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san’ati. T.: 2020.

13. Y.Tojiev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo‘ldosheva. «O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari». T.: 1994.

14. Kaykovus. «Qobusnoma». T.: 1994.

15. K.Nazarov, S.Usmonov, Q.Tohirov «Yuristning nutq madaniyati». T.: 2003.

16. M.Mirtojiyev, N.Mahmudov. «Til va madaniyat». T.: 1992.

17. N.Mahmudov. «Ma’rifat manzillari». T.: 1999.

18. N.Mahmudov. «O‘qituvchi nutqi madaniyati». T.: 2007.

19. L.R.Raupova. Nutq madaniyati. T.:2012

20. R.Jumaniyozov. Nutqiy mahorat. – T.: 2005.

21. Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Istiqlol va ona tilimiz. –T.: 1998.

22. O.Yeshimbetov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.:2022



# G‘ARB NOTIQLIK SAN’ATI

**Savollar:**

1. Notiqlik san’ati dastlab qayerda shakllangan?
2. Notiqlikning san’at darajasiga ko‘tarilishiga nima sabab bo‘lgan?
3. Notiqlik haqida ilk bor ma’lumot bergan asar qaysi?
4. Notiqlikning qanday turlari bo‘lgan?
5. Qadimgi Yunon va Rim notiqligi haqida nimalar bilasiz?

**Topshiriqlar**

**1. Quyidagi Yunon notiqlari, ularning notiqlik san’ati, hayoti va ijodi haqida adabiyotlardanfoydalanib, ma’lumot toping.**

**Perikl**[86]**.** Perikl eramizdan oldingi V asrning boshlarida (500-429) yashagan taniqli notiqlardan biridir.

Eramizdan oldingi V asrning 50-30 yillar Afina davlatining siyosiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanish davri bo‘ldi. Bu paytda davlat boshida Perikl turgan bo‘lib, shunga ko‘ra ayni davr tarixda «Perikl asri» deb ham yuritiladi... Perikl asli harbiy qo‘mondon bo‘lib, Eron-Yunon urushida katta mahorat ko‘rsatadi va shu tufayli vatandoshlarining e’tiborini qozonadi... Perikl o‘z davrining davlat arbobigina emas, yirik notig‘i ham bo‘lgan.

**Kleon.** Kleon Perikldan keyingi mashhur notiq bo‘lib, nafaqat Afinada, balki undan tashqarida ham so‘zga chechanligi bilan shuhrat qozongan...

[86] Ushbu bo‘limdagi Yunon notiqlari va ular haqidagi ma’lumotlar S.Inomxo‘jayevning «Notiqlik san’ati asoslari». T.: 1982. kitobidan olingan.

Kleon o‘z notiqlik maktabi bilan mavjud rasmiy notiqlik uslublariga qaqshatqich zarba bergan va bunga o‘z zamondoshlarini ham ergashtira olgan.

**Lisiy.** Lisiy qadimgi Yunon notiqlik san’atining jahonshumul mavqeiga ega bo‘lgan namoyandalaridan biridir. Uning otasi Sitsiliyaning Sirakuz shahridan bo‘lib, juda yirik dastmoyador, sanoat korxonalarining egasi edi... Lisiy taxminan eramizdan oldingi 459-380-yillar orasida yashab, 80 yilcha umr ko‘rgan. U 444 - yilda janubiy Italiyadagi Sibaris shahriga boradi va u yerda Sirako‘zlik Tisiydan notiqlik san’atini o‘rgana boshlaydi... Lisiy logograflik bilan shug‘ullanib, o‘z mahorati bilan tinglovchilarni, sud hay’atini mahliyo etib, ularning mehru muhabbatini qozongan.

**Isokrat(eramizdan oldingi 436-338 yillar).** Isokrat notiqlik, falsafa va huquqshunoslik sohasida o‘z zamonasining eng yirik fan va madaniyat arboblari bo‘lgan Suqrot, Tisiy, Gorgiylardan ta’lim oldi. U 329-yili Afinada notiqlik maktabini ochadi va unga qariyb 40 yil davomida rahbarlik qiladi.

Isokratning notiqlik maktabi juda katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham bu maktabga faqat Afinaliklar emas, balki Yunonistonning barcha burchaklaridan o‘quvchilar oqib kela boshlaydilar.

**Isey(eramizdan oldingi taxminan 420-350-yillar).** Iseyning logografik va notiqlik faoliyatiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri uning so‘zga chechanligidir. U o‘zining ana shu iqtidori, notiqlik mahorati tufayli qo‘liga tushgan har qanday ishni o‘zi va mijozi foydasiga hal qila olardi. U, asosan, logograflik bilan shug‘ullangan. Isey logograflik va notiqlikda Lisiy va Isokrat kabi mashhur so‘z ustalariga ergashdi.



**Likurg.** Likurg o‘z davrining gumanist notig‘i, davlat, fan va madaniyat arbobi. Uning yoshi Demosfendan sal ulug‘roq bo‘lib, 324-yili vafot etgan.

Likurg notiqlik san’ati asoslari, falsafa va yurisprudentsiya bo‘yicha Platon va Isokratdan maxsus ta’lim olgan. Iste’dodi va notiqlik mahorati tufayli Afina davlatining eng yirik notiqlari va arboblari safidan joy olgan. Eramizdan odingi 388-yildan boshlab, u davlat xazinachisi sifatida (hozirgi tushunchada moliya vaziri) Afina iqtisodini boshqaradi.

**Demosfen (taxminan 384-322-yillar).** Demosfen davlat arbobi va o‘z davrining yirik notig‘idir. Tarixchilarning ma’lumotlariga ko‘ra Demosfen falsafani Platondan, notiqlik asoslarini Isokratdan o‘rgangan.

Demosfen Afina notiqligining yirik namoyandasi bo‘lib, uning texnik mashqlari, nutq talqini jarayonidagi usullari nutq ustida ishlash uslublari, til imkoniyatlaridan foydalanish va notiqlikning talqiniy ifoda vositalarini mohirona ishga sola olishi kabi fazilat-lari hozirgi davr notiqligi uchun ham amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

**Esxin (eramizdan avvalgi 390 - yilda tug‘ilgan).** Esxin kambag‘al oiladan bo‘lgani tufayli notiqlik san’ati asoslarini maxsus maktablarda emas, mustaqil o‘rganishga majbur bo‘lgan.

Esxin logografiyadan dars olmaganligi uchun uning nutq tekstlari, tili kompozitsion jihatdan uncha ahamiyat kasb etmadi. Ammo Esxinning notiqlik faoliyatida talaffuzining burroligi, teatr deklamatsiyasiga ustaligi alohida o‘rin tutadi. U o‘zining yuksak saviyali, ta’sirchan deklamatsiyasi bilan tinglovchilar qalbini rom etgan va shuning uchun ham bo‘lsa kerak, «Attikalik o‘nta notiq qonuni» ga kiritilgan.

**Giperid (eramizdan oldingi 389-yilda tug‘ilgan).** Giperid o‘rta hol oilada tug‘ilgan. Giperid Demosfenning zamondoshi bo‘lib, ayrim tarixchilar notiqlik borasida uni Demosfendan ham yuqori qo‘yadilar.

Giperid notiqlikni Isokratdan, falsafani Platon-dan o‘rgangan. O‘z davrida Afina davlatining yirik siyosiy arbobi va notig‘i bo‘lib tanilgan.

Giperid notiq sifatida juda soddalikka va aniqlikka intilgan.

**Dinarx (eramizdan oldingi 361-360-yillarda tug‘ilgan).** Dinarx Afina notiqlik san’ati tushkunlik sari yuz tutgan davrning namoyandalaridan biridir.

Dinarx falsafa bo‘yicha Aristoteldan, notiqlik va yurisprudentsiyadan esa Feofrastdan tahsil olgan. Amalda esa notiqlikda Lisiy, Giperid va Demosfenga ergashdi.

**Quyidagi Rim notiqlik san’atining namoyandalari to‘g‘risida adabiyotlardan foydalangan holda ma’lumot toping.**

Rim notiqlik san’ati Yunon notiqlik san’atining davomi sifatida yuzaga kelgan. Rimdagi iqtisodiy va siyosiy o‘sishning xarakteri notiqlik san’atining yangi tipini yaratdi.

Rimlik notiqlardan biri eramizdan ilgari III-II asrlarda yashab o‘tgan davlat arboblaridan ***Mark Partius Kato*** **yoki** ***Katon***dir. Katon notiq sifatida nutq san’ati nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan maxsus shug‘ullangan, lekin uning nutqlaridan juda kam qismi bizgacha yetib kelgan.

Katon o‘z nutqida qarama-qarshi qo‘yish usulini juda o‘rinli qo‘llaydi. Uning nutqida dalillar kuchliligidan hech kim qarshi gapira olmasdi. Shu bilan birga nutqining jonliligi, masalani



qisqacha bayon qila bilishi, qo‘yilgan masalani yorqin ko‘rsata bilishi nutqiga nafosat bag‘ishlardi.[87]

Katon notiq sifatida shu qadar kuchli mahorat egasi ediki, bu borada unga Sitseron ham tan berib yozadi. «Hammasini yanada chiroyliroq, yanada nafisroq qilib aytish mumkin, ammo hech narsani undan kuchliroq va jonliroq qilib aytish mumkin emas». Temperament bilan so‘zlash borasida Sitseron deyarli hech kimga shu qadar yuksak baho bermaydi.

**Aka-uka Grakxlar.** Aka-uka Grakxlar eramizdan oldingi II asrda yashab o‘tishgan. Akasi **Tiberiy** va ukasi **Kay Grakxlar**ning notiqlik iste’dodi ularning g‘oyaviy-ijtimoiy qarashlari zaminida ochildi va shuhrat qozondi. Ulkan davlat arboblari bo‘lgan aka-uka Grakxlar Italiyada yer reformasi uchun kurash olib bordilar.

Xullas, aka-uka Grakxlar jahon notiqlik san’ati tarixida o‘zlarining yorqin dunyoqarashiga, aniq ideal va mustaqil ifoda uslubiga ega bo‘lgan siymolardir. Shuning uchun ham ular asrlar osha jahon notiqlik madaniyatining ko‘rki bo‘lib kelyapti.

**Mark Antoniy (eramizdan oldingi 143-87-yillar).** Rim notiqlik san’atining yirik namoyondasi, davlat arbobi Sitseron o‘zining «Notiq haqida» nomli risolasida Mark Antoniyni o‘zi bilan teng ko‘rgan.

Mark Antoniy davlat konsuli va senzorlik martabalarida ishlab, asosan, xalq majlislari va senatda so‘zlardi. Notiq sifatida xarakterli xususiyati shundaki, u ko‘pincha avvaldan tayyorlanmasdan, **ekspromt – badiha** tarzida nutq so‘zlardi.

---

[87] B O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 21-bet.

**Sitseron.** Mark Tulliy Sitseron eramizdan oldingi 106 yilning 3-yanvarida Latsiya degan kichik shaharga qarashli Arpina degan joyda tug‘ilgan. U, asosan, sud notiqligida shuhrat qozongan so‘z san’atkorlaridan biridir. Sitseron eramizdan oldingi 63-yilda oliy lavozimga – konsullikka saylanadi. Sitseron eramizdan oldingi 43-yilda 6-dekabrdan 7-dekabrga o‘tar kechasi Antoniy kishilari tomonidan o‘ldiriladi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra Sitserondan 150 ta nutq qolgan bo‘lib shundan 58 tasi bizgacha yetib kelgan.

Bular:

1. Falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar.
2. Notiqlik tarixi va nazariyasiga oid 7 ta risola.
3. Jami 800 tacha maktub

Sitseronning hayoti, ijodi, falsafiy va adabiy qarashlari, notiqlik mahorati va bu sohadagi ta’limoti hozirgi kunda ham amaliy va nazariy ahamiyatga molikdir.

Sitseron va Demosfen qadimgi notiqlarning eng buyuklari edi. Demosfen ko‘proq o‘zining siyosiy notiqligi bilan shuhrat topgan bo‘lsa, Sitseron sud notiqligi bilan tanildi. Albatta, Sitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi.[88]

**Mark Fabiy Kvintilian.** Rim notiqlik san’atining buyuk nazariyotchilaridan biri Kvintiliandir (35-yilda tug‘ilib, 96-yilda vafot etgan). Uning «Notiq bilimi haqida» nomli asari mavjuddir. Kvintilian Sitseron va boshqa Rim notiqlari fikriga qo‘shilgan holda hamma notiq, birinchi navbatda, bilimli bo‘lishi lozimligini aytadi. Shu bilan birga Kvintilian axloq printsiplarini olg‘a suradi. U notiq axloqli, olijanob bo‘lishi lozim, busiz hech qachon haqiqiy notiq darajasiga ko‘tarila olmaydi, deb biladi.[89]

[88] Qarang: B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 22-bet.
[89] Qarang: B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 24-bet.



**Topshiriq**

Gomerning «Iliada» va «Odisseya» dostonlaridan notiqlik san’ati tasvirlangan asar qahramonlarining nutqlaridan namuna yozing.

**Adabiyotlar**

1. S.Inomxo‘jayev. Notiqlik san’ati asoslari. T. 1982.
2. B.O‘rinboyev, A.Soliyev. Notiqlik mahorati. T. 1984.
3. A.Alimuhamedov. Antik adabiyot tarixi. T. 1969.
4. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T. 1992.
5. K.Nazarov, S.Usmonov, Q.Tohirov. Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.

## SHARQ NOTIQLIK SAN'ATI

### Savollar

1. Va'z nima? Voiz kim?
2. Sharq notiqligi haqida nimalar bilasiz?
3. G'arb notiqligi bilan Sharq notiqligining qanday umumiy va farqli tomonlari bor?
4. Sharqda notiqlik va nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullangan olimlardan kimlarni bilasiz?
5. Notiqlar qaysi jihatlari bilan voizlardan ajralib turadi?

### Topshiriqlar

**Quyidagi buyuk mutafakkirlarning notiqlik san'ati va nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan asarlari haqida ma'lumot toping.**

**Abu Nasr Forobiy.** Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' ibn Tarxon Forobiy 872-873-yillarda (260 hijriy yilida) Aris suvi Sirdaryoga quyiladigan yerdagi Forob degan joyda tug'ilgan. XIII-XIV asr tarixchilarining guvohlik berishicha Forob Shoshning (Toshkentning) shimolrog'ida joylashgan. Shuningdek, manbalarda Forob yaqinidagi Sutkant shahri haqida ham ma'lumotlar uchraydi.[90]

Abu Nasr Forobiy ham IX-X asrlarda – iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda yashab ijod etdi. U ilmning turli sohalarini mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan buyuk allomadir. Nutq va aql tarbiyasiga oid ilmlar to'g'risida Forobiy qimmatli fikrlar aytgan.

[90] M.M.Xayrullayev Forobiy. –T.: 1991. 3-bet.



Forobiyning aytishicha, mantiq shunday bir san'atki, kishi notiqlikdan adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror xulosa chiqariladigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi. Uning aqlga munosabati grammatika san'atining tilga munosabati kabidir.[91]

**Abu Ali ibn Sino** (980-1037). O'rta asr Sharqining buyuk allomalari orasida mashhur tabib, faylasuf, shoir Abu Ali ibn Sino alohida o'rin tutadi. Uning turli sohalar bilan birga ta'lim – tarbiya, axloq va nutq haqida ham fikrlari mavjudki, ular bilan yaqindan tanishish notiqlik san'atini mukammal o'rganishga yordam beradi. Yaxshi do'st qaysi yo'l bilan axloqiy kamchiliklarni tuzatishda boshqalarga yordam berishi mumkinligi masalasiga ibn Sino alohida e'tibor beradi va notiq quyidagilarga amal qilishi lozim deb biladi:

1. Nasihat (Nutq - B.O' va A.S) qo'pol ohangda berilishi kerak emas.
2. Suhbatdoshning ilm darajasini hisobga olish zarur.
3. Nasihatga (va'zxonlikka) ko'p berilmaslik kerak, uni o'rtoqlik suhbati tarzida olib borish kerak.
4. Nasihatni muloyim ohangda, yolg'iz olib borish kerak.
5. Agar ta'na qilmoqchi bo'lsang, boshqalar kamchiligi bilan qiyoslab ta'na qil.
6. Agar o'z e'tiqodingni aytmoqchi bo'lsang, faqat bir faktga tayanma, balki ko'p masalalar bilan isbotla, suhbatdoshingni buni yuragiga yaqin olishga, shu narsa haqida o'ylashga va haqiqatni izlashga ishontir.
7. Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e'tibor bilan quloq solayotgan bo'lsa, suhbatni oxirigacha davom ettir va hech

[91] Qarang: B.O'rinboyev, A.Soliyev. O'sha asar. 25-bet.

nimani sir saqlama, lekin uning e'tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.[92]

**Unsurulmaoliy Kaykovus.** Unsurulmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashagan Gilon qabilasidandir. U 412 - hijriy, 1021-1022 - milodiy yilida mayda feodal oilasida tug'ildi. «Qobusnoma»ni 475-hijriy, 1082-1083 milodiy yilida yaratdi. Bu haqda Kaykovus asarida: «Sana 475 da boshladim» – deb ma'lumot beradi. Bu davrda Kaykovus 63 yoshda bo'lib, anchagina keksayib qolgan edi, u o'g'liga: «Pisaram, man pir shudam» – deb o'zining qariganligidan ma'lumot beradi va o'z asari «Qobusnoma»ni o'g'liga bag'ishlaydi.

«Qobusnoma» 44 bobdan iborat bo'lib, bulardan to'rt bobi diniy xarakterdadir, qolgan 40 bobi hayotiy voqealarni ifoda etadi.

Kaykovus o'z asarida yoshlarning xulq-atvoriga alohida e'tibor berdi. Ularga insonparvar bo'lishni, xalqqa shirin muomala qilishni ta'kidladi. Shuningdek, do'st va dushmanga qanday munosabatda bo'lish kabi masalalarni ham asarida yoritdi.[93]

**Abu Rayxon Beruniy.** Dunyo madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, fan tarixida juda katta iz qoldirgan qomusiy olimlarimizdan yana biri Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad al Beruniydir. Abu Rayhon Beruniy, U.I.Karimovning ta'kidlashicha, milodiy 973-yilning 4-sentabrida (hijriy 362-yil zulhijja oyining 2-kunida) Xorazmning qadimiy poytaxti Qiyatda tavallud topdi. 1009-1017-yillarda Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'mun ibn Ma'mun saroyida xizmat qilib, katta obro'-e'tibor qozongan. 1017-yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib olgandan so'ng Xorazmdagi bir qancha olimlar qatori

[92] Qarang: B.O'rinboyev, A.Soliyev. O'sha asar. 27-bet.
[93] Qarang: Kaykovus. Qobusnoma. 11, 21-betlar.



Beruniy ham g'aznaga yo'l olishga majbur bo'ldi va umrining oxiriga qadar shu yerda ijod qildi.

U o'z davridagi barcha fan sohalari bo'yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirdi. Bizgacha yetib kelgan asarlari orasida «Xronologiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Mas'ud qonuni» hamda «Saydana» nomi bilan mashhur bo'lgan «Kitob as-saydana fi-t-tibb» asarlari tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganildi va arab, rus, ingliz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilinib, nashr etildi.[94]

**Mahmud Koshg'ariy.** Tilshunoslik tarixida Mahmud Koshg'ariy salmoqli o'rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko'p sohalari bo'yicha qalam tebratdi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

S.Mutalibov ta'kidlaganidek, Mahmud Koshg'ariy yaratgan «Devonu lug'otit turk» asari faqat o'sha davr uchungina katta voqea bo'lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. U haqli ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi.[95]

Mahmud Koshg'ariyning hayoti haqida juda oz ma'lumotga egamiz. Uning to'liq ismi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn Muhammad-al-Koshg'ariydir. Mahmud Koshg'ariyning tug'ilgan yili aniq emas. Lekin «Devon»ning oxirida bu «kitob umrini oxiriga yetkazganini» quyidagi misralarda bayon qiladi:

«Kuchandi bilagim, eg'udi tilagim,
Tilindi bilagim, tegrab angar jartilur».

[94] A.Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T.: 2002. 13-14-betlar.
[95] Qarang. A.Nurmonov. O'sha asar, 26-28-betlar.

Lug‘at yozilganda muallifning keksayib qolganligini hisobga olsak, u XI asr boshlarida tug‘ilgan deb hisoblash mumkin.[96]

Mahmud Qoshg‘ariyning turkiy tillarga bag‘ishlangan ikkita asar yozganligi ma’lum. Ulardan biri «Javohirun nahv fil lug‘atit turk» («Turkiy tillarning (sintaksisi) javohirlari» deb, ikkinchisi esa «Devonu lug‘atit turk» («Turkiy so‘zlar to‘plami») deb ataladi.

Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli. U so‘zlarning ma’nolarini izohlabgina qolmay, ma’no o‘zgarishlari yuzasidan ham nozik kuzatishlar olib borganligi ma’lum. Ma’noning kengayishi, torayishi va ma’no ko‘chish usullari bilan birga so‘zlardagi omonimiya va sinonimiya hodisalari ham asarda tilga olinadi.

Mahmud Koshg‘ariyning boshqa tillardan so‘z olish masalasidagi pozitsiyasi uni bizning davrimizga yaqinlashtiradi. Chunki Mahmud Koshg‘ariy turmushda ishlatiladigan asbob va boshqa narsalar, kiyimlar, ovqatlar, dorilar nomlari sifatida kirgan chet so‘zlarni zarur va foydali deb hisoblagan, bunday so‘zlarni o‘z asariga kiritgan. Ammo ona tilida mavjud bo‘lgan so‘zlar o‘rnida chet so‘zlardan foydalanishni zararli deb hisoblagan. Masalan, o‘g‘uzlarning qumg‘on so‘zi o‘rnida forscha oftoba so‘zini ishlatishlarini u tanqid qiladi.

Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asari tarixiy dialektologiya uchun, ayniqsa, qimmatli material va fikrlar beradi. Bu materiallar o‘zbek xalq tilining shakllanishini yoritish uchun juda ham muhimdir.[97]

«Devonu lug‘atit turk»ning adabiy qimmati ham benihoya kattadir. Unda uch yuzga yaqin she’riy parcha va ko‘plab maqol hamda hikmatli so‘zlar bo‘lib, shoir bunday she’riy parchalarga

[96] Qarang. A.Nurmonov. O‘sha asar. o‘sha betlar.
[97] Usmonov. Umumiy tilshunoslik. –T. 1972. 50-52 betlar.



qisqa-qisqa sharhlar beradi, xalq maqollarining mohiyatini yoritib, ularning ishlatilish o‘rnini ham ko‘rsatadi.

Ardam boshi til[98]– adab va fazilatning boshi til, deb ta’kidlaydi.

**Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy.** Uning to‘liq ismi Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad (ba’zi manbalarda Ahmad) bo‘lib, u hijriy 467 sana rajab oyining yigirma yettinchisida chorshanba kuni (milodiy hisobda 1075 -yilning 19 - martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri Zamahsharda tavallud topgan va shu boisdan ham az Zamaxshariy taxallusini olgan.[99]

Az-Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat emasdi lekin o‘z davrining savodli, ancha taqvodor, diyonatli kishisi bo‘lgan, aksar vaqtini Qur’oni karim tilovati va toat-ibodat bilan o‘tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va g‘oyatda muruvvatli kishi bo‘lib, bu fazilati bilan el orasida katta obro‘-e’tibor topgan. Az-Zamaxshariyning onasi ham g‘oyatda taqvodor va dindor ayollardan hisoblangan.[100]

Az-Zamaxshariy dastlabki bilimni ona yurti Zamahsharda o‘z davrining o‘qimishli kishilaridan sanalgan otasidan oladi. Uning shaxsiy hayotiga doir ma’lumotlardan yana shu narsa ma’lumki, uning bir oyog‘i bo‘lmay, yog‘och oyoqda yurgan. Manbalarda cho‘loqligining sabablari haqida ham turli - tuman rivoyatlar keltiriladi. Tarixchilardan ba’zilari, qahraton qishda sovuq olganligidan, deb yozsa, ayrimlari, bolaligida otdan yiqilgan deydi, yana boshqasi yoshligida bir nojo‘ya ish qilib qo‘yganligi

[98] N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T. 1976. 107-bet.
[99] Abul.Qosim Mahmud az Zamahshariy. Nozik iboralar, –T. 1992. 4-bet.
[100] Qarang: Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamahshariy. O‘sha asar. 5-bet.

uchun onasining qarg‘ishiga uchragan, deb yozadi.[101] Ammo yoshligidan ilmga havasmand Mahmud oldiniga Xorazmda – madrasada, keyinchalik Buxoroda hamda dong‘i ketgan madrasalarda tahsil oladi.

Az-Zamaxshariyo‘z davrining buyuk olimi darajasiga ko‘tarildi. U tilshunoslik, adabiyot, jo‘g‘rofiya, tafsir, hadis, fikh va ilmi alqiroatga oid ellikdan ortiq asarlar yaratdi. Ularning ko‘pi bizgacha yetib kelgan.

**Zamaxshariy hikmatlaridan namunalar:**

– Agar tilingning ortiqcha so‘zlashiga ega bo‘la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo‘lasan.

– Men ro‘zadorman deysan-u, ammo o‘zing bo‘lsa birodaring go‘shtini yeysan, (g‘iybatlar va xo‘rliklardan so‘zlaysan).

– Tilingdan chiqqan sadaqa (ya’ni pandu nasihating va mav’izayu hasanang) ba’zan qo‘lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko‘ra xayrliroqdir.

– Ko‘p so‘z-iboralar borki, odamlarga ular fasohatli ko‘rinsa-da, Alloh nazdida ular nomaqbuldir – so‘zlovchini ham, eshituvchini ham mulzam qilur.

– Ko‘p ortiqcha so‘zlashuv eshituvchini ranjitar.

– Vijdon azobiyu ta’nadan to‘g‘ri bo‘lmagan odamni (kimsani) ta’lim-tarbiya va qiynash ham to‘g‘rilashi amrimahol.

[101] Abul Qosim Mahmud az-Zamahshariy, O‘sha asar. 6-bet.



– Tiliyu dili to‘g‘ri va haqgo‘y bo‘lgan odamning xatoyu nuqsoni kam bo‘lur.

O‘z va’dasida turmaganda turli-tuman vaj karsonlar ko‘rsatuvchi kimsa hech qachon mard va himmatli inson bo‘lolmaydi.

– Aldamchilik va hiylakorlik bilan mashhur bo‘lgan bursaq degan yirtqich hayvondan ham ko‘ra ba’zi Bani odamlar ko‘proq aldamchiroqdir.

– Tog‘ tepasidagi qoyalarni ko‘chirish minnat eshitish yuklariga nisbatan yengilroqdir.

– Biror masalada fikr - mulohaza qila boshlaganingda hech bir oshiqma, har tomonlama o‘ylab, obdon fikrlab ish tutgin.

– Sidqidil va saxiy kimsaning qalbidan boshqa narsani sirlarning sandig‘i qilma, ya’ni har bir uchragan kimsani sirdosh etmagin.

– Ey bo‘tam, tilingni yomon so‘zlardan saqla.

– Kimki baxt - iqbolli, solih kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayru baraka topar.[102]

**Yusuf Xos Hojib.** Yusuf Xos Hojib XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobidir. Uning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi yagona manba uning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga yo‘llovchi bilim») dostonidir. Bu doston hijriy yil

[102] Abu-l Qosim az-Zamahshariy. O‘sha asar. 48-77-betlar.

hisobi bilan 462- (milodiy 1069-70) yilda yozilgan. Muallif dostonning muqaddimasida yoshi ellikdan oshganini ta'kidlaydi. Shunga qarab Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillari arafasida tug'ilgan, deb aytaolamiz. Yusuf Xos Hojibning vatani – Balasog'un (Quz o'rda) XI-XII asrlarning yirik savdo-sotiq hamda madaniy markazlari-dan biri edi. Bu shahar ikki martaqoraxoniylarning poytaxti ham bo'lgan edi.[103]

«Qutadg'u bilig»ning uch qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bu nusxalar «Vena» (yoki «Hirot»), «Qohira» va «Namangan» nusxalari deb yuritiladi. Birinchi nusxasi XIX asrning 20 yillarida Istambulda topildi. – Hirot nusxasi. Ikkinchi qo'lyozma nusxasi 1896-yilda Qohirada topildi. – Qohira nusxasi, 1913-yilda Namanganda topildi – Namangan nusxasi.[104]

«Qutadg'u bilig» jami Namangan nusxasida 6500 baytga 13000 misraga yaqin bo'lib, u 73 fasl-bobga bo'lingan. O'n bir bobi dostonning muqaddimasi bo'lib, asosiy qismi 12-bobdan, Kuntug'di degan hukmdorning ta'rifi bilan boshlanadi.[105] «Qutadg'u bilig» axloqiy - ta'limiy asardir.Uning axloq vaodob masalalariga bag'ishlangan maxsus boblarigina emas, balki ijtimoiy-siyosiy masala-larga bag'ishlangan maxsus boblarida ham Yusuf Xos Hojib o'z axloqiy - ta'limiy qarashlarini ifodalaydi. Xalqning turli tabaqalarigao'git beradi, ularga pand-nasihat qiladi. Uning axloqiy - ta'limiy fikrlari jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, madaniyat va ma'rifatni ravnaq toptirishga, olijanob insoniy xislatlarni targ'ib qilishga qaratilgan.

---

[103] Bolasog'unning vayronalari Qirg'izistonning To'qmoq shahri yaqinida bo'lgan qadimgi Oqpeshin shahri o'rnida hozir ham bor. N.Mallayev. O'sha asar 1976. 111-bet.

[104] N.Mallayev, O'sha asar, 11-bet.

[105] N.Mallayev, O'sha asar, 16-bet.



«Qutadg'u bilig» didaktik dostoni axloq vaodobga doir qimmatli pand - nasihatlarni o'z ichigaoladi. Doston til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo'ylik va halollik kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar so'zlaydi, mayxo'rlik va mutakabbirlikni tanqid qiladi, kishining yurish – turishi, o'zini tutishi haqidao'git beradi. Bular dostonning butun mazmuni va mohiyatiga singdiriladi

«Qutadg'u bilig»ning bir necha bobi bevositaaxloq vaodob masalalariga bag'ishlangan. Shunday boblardan biri «Til ardami» («Til odobi») deb atalgan 7-bob bo'lib, unda shoir o'qish va bilim olishda tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so'zlash, tilgaortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o'gitlar beradi:

Uqushqa bilikka bu tilmoji til,
Yarutaji arni yo'riq tilni bil.
Kishig til og'irlar bo'lur qut kishi,
Kishig til-o'juzlar, barir ar boshi.
Til arslon turur, ko'r eshikda yatur,
Oyo avluk arsiq bashingni yetar.
Tilin emkamish ar neku ter ashit,
Bu so'z ishka tutg'il o'zunga esh et.
So'zungni kudazgil bashing bormasun,
Tilingni kudazgil tishing sinmasun...
Asanlik tilasa, saning bu o'zung,
Tilingda chiqarma yarog'siz so'zung.
O'kush so'zda ortuq asig' ko'rmadim,
Yana so'zlamishda asig' bo'lmadim.
O'kush so'zlama, so'z birar so'zla oz,
Tumon so'z tuguvin bu bir so'zda yoz.
Sanga so'zladim man so'zum, ey o'g'ul,
Sanga bardi bu pand o'zum, ey o'g'ul...
Uquvga, bilimga tilmoch – bu til,
Kishini ro'shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.

Kishini til e'zozlaydi, kishi u tufayli baxtga erishadi,
Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi.
Til hovlida (ya'ni qafasda) yotgan arslon kabidir,
Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi.
Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,
Bu so'zga amal qilgin, o'z foydangga ishlat:
So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,
Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin...
Sening o'zing esonlik tilasang,
Tilingdan yarog'siz so'zingni chiqarma.
Ko'p so'zda ortiq foyda ko'rmadim,
Yana (ko'p) so'zlashdan naf topmadim.
So'zni ko'p so'zlama, bir oz ozroq so'zla.
Tuman ming so'z tuguni (jumbog'i)ni shu
bir so'zda yech.
Men so'zimni senga so'zladim, ey o'g'il,
Bu pandni o'zim senga berdim, ey o'g'il[106].

Yusuf Xos Hojib shoir sifatida badiiy so'zning qimmati va ta'sir kuchini alohida ta'kidlaydi, o'z so'zini ko'p o'rinda «shoir tilidan» (donishmandlar tilidan) so'zlaydi va yaxshi so'zni har qanday oltin-kumushdan ham ortiqroq biladi:

Kumush qolsa oltun maningdin sanga,
Oni tutmag'il san bu, so'zga teng-a:
Kumush ishqa tutsa tugar olg'inur,
So'zum ishga tutsa kumush qizg'onur.

Mendan senga kumush, oltin qolsa,
U (lar)ni sen bu so'zga teng tutmagin.
Kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi,

[106] N.Mallayev. O'sha asar. 1965, 160- bet.



So'zimni ishga tutsang, (sen uchun)
kumush qozonadi.[107]

**Ahmad Yugnakiy.** Ahmad Yugnakiy iste'dodli shoir va donishmand murabbiydir. Undan saqlanib qolgan yagonaadabiy meros «Hibatul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni»), badiiy so'z san'ati vaadabiy tilning juda qimmatli hamda nodir yodgorligidir.[108]

Adib Ahmad Yugnakiyning shaxsiy hayoti va tug'ilib o'sgan yeri haqida ma'lumotlar kam. Ayrim manbalardaadibning hayoti haqida berilgan ma'lumotlar to'liq emas.

«Hibatul-haqoyiq»ning kim tomonidan yozilgani, muallifning ismi, otasining ismi, uning qayerda yashagani, boshqaadiblarga nisbatan tutgan mavqei, jismoniy zaifligi haqidaasarda qisqacha ma'lumotlar mavjud:

Adib Ahmad otim, adab, pand so'zim,
So'zum munda qolur, borur bu o'zum.

Otim – adib Ahmad, so'zim-pand-nasihat, adab berishdan iborat, so'zim esa bu dunyoda qolib, o'zim u dunyoga ketaman.[109]

Shoirning otasi Mahmud Yugnakiy ekanligini shaxsan o'zi aytib o'tishi Ahmad Yugnakiy chindan ham Yugnak degan shaharda tug'ilib o'sganligi va u yerda ijod etganligiga hech qanday shubha qoldirmaydi. Bundan tashqari Alisher Navoiy «Nasoyimul - muhabbat» degan asaridaadib Ahmad Yugnakiy haqida ma'lumot beradi.

[107] N.Mallayev. O'sha asar. 161- bet.
[108] N.Mallayev. O'sha asar, 138-bet.
[109] N.Mallayev. O'sha asar, 139-bet.

«Hibatul-haqoyiq»ning 1480-yilda ko‘chirilgan nusxasi 235 bayt, 11 bobdan tashkil topgan.[110] (Asar nusxalari haqida turlicha ma’lumotlar bor).[111]

Asarning beshinchi bobi (40-62-baytlar) bilim maqtovi va johillikning zarariga, oltinchi bobi (63-86-baytlar) til odobiga bag‘ishlangan.

«Hibatul-haqoyiq» didaktik doston bo‘lib, axloq-odob masalalari undagi ko‘pchilik boblarning tematik asosini tashkil etadi. Shoir til odobi, saxiylik, baxillik, kamtarlik, ezgulik va boshqalar haqidaxuddi Yusuf Xos Hojib kabi zamonasining peshqadam murabbiysi sifatida fikr yuritib, kishilarga o‘git beradi. Rost, sog‘lom va mazmunli so‘zlashni, kerak bo‘lganda, sir saqlay olishni maqtab, laqmalik, yolg‘on so‘zlash va sergaplikni qoralagan shoir tilni tiyish odobning boshi deydi:

Eshitgil, biliklik naku tep ayur:
Adablar bashi til ko‘zatmak turur.
Tiling bekta tutg‘il, tishing sinmasun,
Qoli chiqsa bekta tishingni siyur.
Sonip so‘zlagan er so‘zi so‘z sog‘i;
O‘kush yangshagan til ey olmas yag‘i.
So‘zung bo‘shlug‘ esa yig‘a tut tiling,
Yetar boshqa bir kun bu til bo‘shlug‘i.
Xiradliqmu, bo‘lur tili bo‘sh kishi?
Talim boshni yedi bu til, so‘z bo‘shi...
Iki nang biriksa bir erda qali,
Bukandi ul erga muruvvat yo‘li:
Bir ul yangshir ersa keraksiz so‘zin,
Ikinch yolg‘on ersa ul erning tili...

[110] Qarang: N.Mallayev. O‘sha asar, 140-bet.
[111] Qarang: Ahmad Yugnakiy Hibatul - haqoyiq. T. 1971. 10-11 betlar.



(Eshitgil, olimlar nima deb ayturlar: adablarning boshi til saqlashdir. Tilingni tiy, toki tishingni sindirmasin, agar tilingni tiymasang, tishing sinadi. Er kishi ehtiyot bilan sog‘lom so‘zlaydi, ko‘p gapirgan laqma til ayovsiz dushmandir. Bekor so‘z so‘zlashdan saqlan, tiling bo‘shlig‘i bir kuni boshga yetadi. Tili bo‘sh odam aqlli bo‘larmidi? Bu tilning bo‘shligi kishi boshini yeydi... Agar kishida ikki narsa biriksa: u o‘rinsiz so‘zlar bilan laqmalik qilsa, ikkinchidan, uning so‘zlari yolg‘on bo‘lsa, u kishi uchun muruvvat yo‘llari bekiladi...)[112]

Shoir kishilarni birovni achchiq va yomon so‘zlar bilan ranjitmaslikka chaqirib, tilning yarasi bitmas yaradir deydi:

O‘chuk turma erni tilin, bil, bu til
Bashak tursa, butmas, butar o‘q boshi.

(Tiling bilan o‘ch hissini qo‘zg‘ama, bil, o‘q yarasi bitib ketadi-yu, lekin til yarasi bitmaydi).[113]

Shoir dostonning to‘rtinchi bobida saxiylik va baxillik haqida so‘zlab, himmat va saxiylikni baxillik va ziqnalikka qarama-qarshi qo‘yadi, bu masalalarga doir pandomuz mulohazalarini qisman bo‘lsa-da, boshqa boblarga ham singdiradi, badiiy til vositalaridan, xususan, o‘xshatishlardan vaxalq maqollari hamda ta’birlaridan foydalanadi.

Axi arni o‘ggil o‘gar ersa san,
Baxilga qatig‘ yo o‘qun kizlagil.

(Maqtamoqchi bo‘lsang, saxiylarni maqta, baxillarga o‘q-yoyni to‘g‘irla).[114]

[112] Qarang: Ahmad Yugnakiy. O‘sha asar. 10 -11-betlar.
[113] N.M.Mallayev. O‘sha asar. – T.: 1965, 192-bet.
[114] N.M.Mallayev. O‘sha asar. – T.: 1976, 143-bet.

**Alisher Navoiy.**

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug‘ildi.

Sharq madaniyatining salmoqli zarvaraqlarini tashkil etuvchi notiqlik san’ati tarixigaoid talaygina manbalar bor bo‘lsa-da, ulardan hech biri Alisher Navoiy qoldirgan meros kabi qimmatli va boy emas.

Navoiy o‘z davrining buyuk mutafakkiri, so‘z ustasi bo‘lish bilan birga, kishilarga yaxshi so‘z bilan ta’sir eta bilish san’atini juda qadrlovchi, ulug‘lovchi, bunday san’at ustalariga e’tibor qilib, ehtirom ko‘rsatuvchi bir shaxs edi.

«Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila», –

deb har bir kishini bilimli bo‘lib yetishishiga sababchi bo‘lgan ustozini e’zozlashga da’vat etgan. Navoiy omma o‘rtasida yaxshi nutqning ta’siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Navoiy notiqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko‘ra bilish va ularni farqlay olishga chaqiradi. Navoiy notiqlik san’atining buyuk qudratigaalohida e’tibor beradi. U «Mahbub ul - qulub» nomli falsafiy asarining 24-faslini «Nasihat ahli va voizlar zikrida» deb aytadi. Bunda voizlik san’atiga, va’zga, voizgao‘z munosabatini bildiradi. Navoiyning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

1. Voizning so‘zlari ta’sirchan va foydali bo‘lmog‘i lozim. Voiz kerakki «qolalloh» so‘z aytsa.

2. Nutq tinglovchi uchun yangilik bilimlar vao‘zgarishlar xabarchisi bo‘lmog‘i lozim. «Va’z bir murshid vaogoh ishidur vaaning nasihatin qabul etgan maqbul kishidur».

3. Notiqning o‘zi biror sohani egallagan bo‘lishi va undan so‘ng va’z orqali kishilarga ta’sir etishi lozim.



4. Notiq olim va bilimdon har narsadan xabardor kishidur. «Voizkim, bo‘lg‘ay olim va muttaqiyaning nasihatidin chiqqan shaqiy».

5. Notiqning so‘zi bilan ishi bir bo‘lmog‘i lozim. Aks holda nutqning ta’siri bo‘lmaydi. «Ulki buyurib o‘zi qilmag‘ay, hech kimga foyda vaasar aning so‘zi qilmag‘ay».

Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jihatdan uning «Mahbub-ul qulub» asaridagi 60-tanbehi o‘rinlidir. «Chin so‘z mo‘‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar. Ko‘p deguvchi mumil, muqarrar deguvchi loya’qil» (ya’ni: Chin so‘z e’tiborli, yaxshi so‘z qisqa bo‘ladi. Ko‘p so‘zlovchi zeriktiruvchi, qayta gapiradigan-aqldan ozgan), – deydi. U tuturuqsiz gap bilan kishilarning g‘ashiga teguvchilarni aqli past, nosog‘lom kishilardir, deb baholaydi. «Ulkim, dimog‘ida habt – so‘zida yo‘q rabt (kimning dimog‘ida illat bo‘lsa, so‘zida bog‘lanish yo‘q).[115]

Dimog‘i sahih - guftori fasih (miya sog‘lom bo‘lsa, gap-so‘z ham yoqimli va xatosiz bo‘lur). So‘zi hisobsiz-o‘zi ixtisobsiz (boshvoqsiz). So‘zida parishonlik, o‘zida pushaymonlik».[116]

Navoiy voizlik san’atida nom qozongan-Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, MavlonoXusayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voizlar haqidao‘zining «Majolisun nafois» nomli tazkirasida fikr bildirgan.

**Hoja Muayyad Mehnagiy**

Alisher Navoiy qadrlagan voizlardan biri – Xoja Muayyad Mehnagiy mashhurgina emas, balki notiq, donishmand, yuksak bilim egasi bo‘lgan, mavjud bilimlarni o‘rganib qolmasdan, ularni takomillashtirgan, to‘ldirgan. U mozorda shayxlik qilsa - da, o‘zini

[115] B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 31-bet.
[116] B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 32-bet.

xalqqa juda yaqin tutgan vao‘z bilimini ularga berishga intilgan: «va’z majolisi bag‘oyat garm va pursho‘r voqe’ bo‘lur erdi».[117]

Xo‘ja Mehnagiy muvaffaqiyatlari va mahoratining kaliti bilim doirasining keng, mazmunan chuqur ekanligida edi. Navoiy iborasi bilan aytsak, u «zohir ulumin» bo‘lgan, ya’ni o‘sha davrdaajdodlarimiz to‘plagan bilimlarning deyarli hammasini puxtao‘zlashtirgan, buning ustiga ularni boyitgan ham.

Mehnagiy o‘z davrining zo‘r suxandonlaridan biri, hokisor shayx bo‘lishiga qaramay, benazir donishmandligi, zo‘r voizlik zakovati tufayli hatto toj-taxt, arkoni davlat a’yonlarini ham ta’zim qildiraoladigan notiq edi.[118]

**Mavlono Riyoziy**

Alisher Navoiyning yozishicha: «Va’z aytib, minbardao‘z ash’orin o‘qur, yig‘lab vajdi hol qilur». Ko‘rinadiki, Riyoziy nutq so‘zlaganda, uning ta’sirchanligini ta’minlashda, ijrochilikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Kerak bo‘lganda, o‘z nutqini kishilar qalbiga yaqin olib, ular bilan birdamlikni, qayg‘usiga, iztirobiga sheriklikni bildirish maqsadida yig‘lashgacha borib yetadiki, bu nutq ijrochiligidagi ulkan qobiliyatdan dalolat beradi.

Mavlono Riyoziyning xalqqa yaqinligini, nutqining ta’sirchan va emotsionalligini ta’minlashda, uning ijtimoiy kelib chiqishi vaahvoli ham muhim rol o‘ynaganligi ko‘zga tashlanadi. Riyoziy avval Zova viloyatida qozi bo‘ladi.[119]

Xulosa shuki, boy ilm sohibi, hayot - mamot uchun ayovsiz kurash olovida toblangan va voizlik san’atida shuhrat qozongan Riyoziy o‘zining darbadar, xokisor qismati bilangina emas, balki g‘oyaviy ezgu amallari, ijrochilik uslublari, murabbiylik mahorati

[117] Qarang. B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 32-bet.
[118] A.Ortiqov, A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T.: 2002. 18–bet.
[119] B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar, 32-bet.



bilan ham zamondoshlari orasida yaqqol ajralib turgan. Taxallusidan ham, sezilib turibdiki, u uzluksiz riyozat chekkan, ammo mashaqqatli mehnati, mardonavor jasorati va benazir voizlik mahorati, ma’rifatparvarligi tufayli o‘ziga mangu haykal o‘rnatib ketgan suxandondir.[120]

**Husayn Voiz Koshifiy**

Husayn Voiz Koshifiy XV asrda yashagan sabzavorlik voiz va buyuk axloq muallimidir. Uning nomi o‘z zamonidayoq el og‘ziga tushgan va mashhur bo‘lgan. Husayn Voiz Koshifiy o‘z davrining zabardast olimi, astronomi, shoiri ham edi. Eron olimi Said Nafisiy Koshifiyning 40 taasari borligini aytadi. Navoiyning e’tirof qilishicha, Husayn Voizning «Oz fan bo‘lg‘aykim, dahli bo‘lmag‘ay, xususan, va’z, insho (nasriy she’r usulida yoziladigan xat) va nujumki (yulduzshunoslik, astronomiya), aning haqqidur va har qaysisida mutaayyin (ko‘zga ko‘rinarli) va mashhur ishlari bor...». Uning nutqlari jo‘shqin va ehtirosli bo‘lganligidan kishilarni ko‘plab jalb etar edi.

Husayn Voiz nutqlarining ta’sirchanligi, jozibadorligi haqida eslab, uning o‘g‘li Faxriddin Ali Safiy «Latoyifut tavoyif» nomli asarida shunday voqeani keltiradi:

Kunlarning biridaahli majlisga Mavlono Sayid G‘iyosiddin degan mashhur so‘z ustasi kechikib kelgan. Shu majlisdaAbdurahmon Jomiy ham bor ekan. Sayid G‘iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so‘rabdi:

– Nechuk kechikdingiz, Mavlono G‘iyosiddin?

– Meni ma’zur tuting, ustod, - debdi G‘iyosiddin, - kelayotgan edim, masjidi jome’da Husayn Voiz nutq so‘zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo‘lib qolibman.

[120] A.Ortiqov, A.Ortiqov. O‘sha asar. 19-bet.

Koshifiyning nutqlari o‘zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qilaolgan. Aytishlaricha, uning bunday so‘z san’atidagi mahoratini Alisher Navoiy bilan birga Sulton Husayn Boyqaro ham yuksak baholagan va ular o‘z asarlarini aholi o‘rtasida rasmiy ijro etish lozim bo‘lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voizni munosib ko‘rganlar.

Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari mazmundorligi, ta’sirchanligi, o‘ziga jalb etish quvvatini mujassam etganligi, uning texnikasini o‘rganish hozirgi davr notiqligi uchun ham xarakterlidir.[121]

**Mavlono Muin Voiz**

Alisher Navoiy davridagi mashhur notiqlardan biri. U haqda Navoiy: «Holoo‘zi dag‘i azim voizdurur va muridlari ko‘p» = deb yozadi. Ko‘rinadiki, Muin Voiz notiqqina bo‘lib qolmay, o‘zining notiqlik maktabiga, shogirdlariga ham ega bo‘lgan. Uning nutq, ijrochilik mahoratini tahlil etib, Navoiy: «Minbar ustida devanovor ilk tashlamog‘i va taxtani tepmog‘i ko‘pdur vao‘zin «Muin devona» bila ta’bir qilur va ko‘p baland va past so‘zlar aytur. Chun junung‘a mu’tarif, har nav so‘z aytsa mazurdur...» = deb yozadi.

Bundan anglashiladiki, Muin Voiz nutqning ijrochilik tomonigaalohida e’tibor qilgan va butun xatti-harakatlarini, imo-ishoralarini ishga sola bilganki, garchi u o‘zini «Muin devona» deb e’lon qilgan bo‘lsa-da, uning «devona sifat» gaplari xalq diliga yaqin bo‘lganligidan yig‘ilganlarga manzur bo‘lgan.

U har qanday mansabdan voizlikni a’lo bilgan va o‘z akasi Mavlono Nizomiddin unga Hirot shahri qoziligini ikki marta tavsiya etsa-da, uni rad etgan. Shu tufayli, uning akasi: «Muini mo qobilyati bis’yor dosht, ni zinapoyai cho‘bin o‘ro zoye’ soxt» (Muinimizning

[121] Qarang: B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 34-bet.



qobiliyati ko‘p edi, uni bu yog‘och zinapoya (minbar) ishdan chiqardi), deganligini Navoiy qayd etadi.[122]

Voizlik san’ati O‘rtaOsiyo xalqlarining, xususan, o‘zbek millatining ma’naviyati tarixida zarhal harflar bilan yozilishigaarzigulik sahifalarni bizga meros qilib qoldirgan.

**Adabiyotlar**


1. A.Ortiqov, A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. T.: 2002.
2. A.Nurmonov. O‘zbek tilshunosligi tarixi. T.: 2002.
3. Az - Zamaxshariy. Nozik iboralar. T.: 1992.
4. Ahmad Yugnakiy. Hibatul - haqoyiq. T.: 1971.
5. B.O‘rinboyev, A.Soliyev. Notiqlik mahorati. T.: 1984.
6. M.M.Xayrullayev. Forobiy. T.: 1991.
7. N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: 1976.
8. S.Inomxo‘jayev. Notiqlik san’ati asoslari. T.: 1982.
9. S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T.: 1972.
10. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T.: 1993.
11. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.: 1992.
12. U.Tursunov, B.O‘rinboyev, A.Aliyev O‘zbek adabiy tili tarixi. T.: 1995.
13. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. T.: 2021.


[122] Qarang: B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar. 35-bet.

## KAYKOVUS NUTQ VA NOTIQLIK SA'NATI HAQIDA

### Savollar

1. Sharq allomalarining axloqiy – tarbiyaviy asarlaridan qaysilarini bilasiz?
2. Kaykovus qachon va qayerda tug'ilgan?
3. «Qobusnoma» qachon yozilgan?
4. Kaykovus «Qobusnoma»ni kimga bag'ishlab yozgan?
5. «Qobusnoma» qaysi tillarga va kimlar tomonidan tarjima qilingan?
6. «Qobusnoma» necha bobdan iborat va unda qanday voqealar beriladi?
7. Asarda kishilar necha toifaga ajratilgan?
8. So'zlar necha toifaga ajratilgan?

### Topshiriqlar

1. «Qobusnoma»ni sinchiklab o'qib chiqing.
2. Hayotdan «to'rt nav so'zlarga» misol yozing.
3. «Xaloyiq ham to'rt nav»iga hayotdan misol yozing.
4. Asarning yettinchi bobini sinchiklab o'qing va gapirib bering.
5. Badiiy adabiyotlardagi nutq odobi haqidagi hikoyalardan ko'chirib yozing.
6. Asarning yettinchi bobidagi hikoyalarni ko'chirib yozing.

**Kaykovus «Qobusnoma».** Kaykovus qalamiga mansub «Qobusnoma» asari sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Asardagi mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar uni yanada jozibali, o'qishli bo'lishini ta'minlagan.

XI asrning 82-83-yillarida g'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi vao'sha davr an'anasiga ko'ra uni



bobosi podshoh Shamsulmaoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi.

«Qobusnoma» asrlar mobaynida G'arb va Sharq mutafakkirlarining e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Olimlar «Qobusnoma»ni diqqat bilan o'rgandilar va o'z tillariga tarjima qildilar. Masalan: 1702-1705-yillarda turk tiliga, 1786-1787-yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan tatar tiliga tarjima qilinadi.

Bundan tashqari 1886-yilda rus tiliga, shu yili fransuz tiliga, 1811-yilda nemis tiliga, Ye.Ye.Bertels tomonidan 1953-yilda ikkinchi marta rus tiliga tarjima qilinadi. Demak, XIX asrdanoq asar ingliz, farang, olmon, rus tillariga tarjima qilinadi. 1935-yilda Tehronda Said Nafisiy tomonidan bosmadan chiqarildi.

1860-yilda «Qobusnoma» ilk bor o'zbek tiliga buyuk shoir va mutaffakir Muhammad RizoOgahiy tomonidan tarjima qilindi. Ogahiy tarjimalari ichida «Qobusnoma» alohidao'rinlardan birini egallaydi. Bu nodir asar 1965-1973 va 1986-yillardaadabiyotshunos olim Subutoy Dolimovning katta sa'y-harakatlari tufayli uch marta nashr qilingan edi. 1994-yilda «Qobusnoma» Muhammad RizoOgahiy tarjimasi asosida hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida yana S.Dolimov tomonidan nashrdan chiqarildi.[123]

Asarning yettinchi bobi: Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida.

Kishi suxandon, suxango'y (notiq bo'lishi kerak. Ammo ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durug'go'y (yolg'onchi) bo'lmag'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqt zarurat yuzidin yolg'on so'z desang qabul qilg'aylar. Har so'z desang ham rost deg'il va lekin, yolg'onga o'xshag'on rostni demag'ilkim, rostga o'xshag'on durug', durug'ga o'xshag'on

[123] Qarang. Qobusnoma, – T.: 1994, 3-9 betlar.

rostdin yaxshidur, nedinkim ul durug‘ maqbul bo‘lar, ammo ul rost maqbul bo‘lmas. Demak, nomaqbul rostni aytishdan parhez qil, toki mening bila Abu Suvor Shopur bilan Abu al-Fazlning orasindag‘i voqea sening boshingda sodir bo‘lmasin.

## HIKOYAT

Bilg‘il, men amiralmo‘min zamonida bir yil hajdan qaytib kelib, Ganjada qarf tutdim..

Hindistonga ko‘p g‘azot qilmish erdim, Rumga ham yurish qilmoqni o‘ylardim. Abu Suvor Ganjada ulug‘ podshoh erdi. Ul bag‘oyat xushmand, odil, sahiy va fozil kishi erdi. Bir kuni meni ko‘rub, ko‘p hurmat qildi va mening bila so‘zlashmoq maqsadinda har turli so‘z so‘rar va mendin ma’qul javob eshitar erdi. Mening so‘zlarim unga ma’qul tushib, ko‘p karamlar qilib, menga ko‘ngul qo‘ydi. Men ham uning ehsonlarin ko‘rib, unga ko‘ngul qo‘ydim. Shul sabab bila bir necha yil Ganjada muqim bo‘ldim va hamisha podshohning majlisida hozir erdim. Podshoh mendan ham turli so‘zlarni so‘rar erdi. Bir kuni so‘z orasig‘a mening viloyatim tushdi va mendin Gurgon qishlog‘i holidin so‘radi. Viloyatlarning ajoyib – g‘aroyiblaridin so‘z ochildi. So‘z asnosinda men dedim: «Gurgonda Siyovaks deg‘on bir kent bordur va uning bir chashma suvi bordurkim, ul kentdin uzoqroqdur. Xotinlar jam bo‘lub, har biri bir ko‘za ko‘tarib, ul chashmaga borib suv olurlar va ko‘zani boshlariga ko‘tarib, barchasi hamroh bo‘lib uylariga qaytadilar. Ularning orasida bir xotin ko‘za ko‘tarmay, barchadin ilgari yurub, yo‘liga ehtiyot bo‘lub, nazar tashlab boradi. Nedinkim ul yerlarda bir ko‘k qurt bordur. Uni sizak derlar. Agar ul qurtdin birini topsalar, yo‘ldin olib, yiroqqa tashlaydurlar, tokim xotinlar ul qurtni bilmay bosib o‘ldurmasunlar. Agar suv ko‘targ‘on xotinlardin biri qurtni bosib o‘ldursa, boshiga ko‘torg‘on ko‘zadagi suv sasib, badbo‘y bo‘lib ketadi. Shundan keyin avval suvni



to‘kish, ko‘zani yuvish kerak bo‘ladi va ko‘zani tozalag‘on xotin qaytib borib chashmadin suv oladi.

Men bu so‘zni dedim, ammoamir Abu Suvor turshro‘y (badburush, qovog‘i soliq) bo‘lib, mendin yuz o‘gurdi va bir necha kun menga burung‘idek (avvalgidek) muloqot va iltifot qilmadi.

Bir kuni Firuzon Daylimiy bu ahvolni mengaaytdi: «Amir sendin gina qilib dedi: «Falon kishi bag‘oyat donodur, ammo yosh o‘g‘lonlarg‘aaytgudek yolg‘on so‘zni mengaaytadur. Uningdek kishidan meningdek podshoning oldida buningdek durug‘ so‘zni aytmoq munosib emasdur».

Men bu so‘zni eshitg‘ondin so‘ng darhol Ganjadan Gurgonga bir kishi yuborib, ulamoning shahodati bila bir guvoh xat talab qildim. Gurgonning barcha ulamo, qozilari bu kentning, qurtning holi va qissasi rostlig‘i haqida guvoh bo‘lishib, bu bobda bir xat yozib yubordilar.

Bu xat to‘rt oy muddattida menga yetib keldi. Men uni podshohga ko‘rguzdum. Podshoh uni o‘qidi va tabassum qilib dedi: «Men hud[124] tahqiq[125] bulurmankim, seningdek kishidan yolg‘on so‘z zohir bo‘lmag‘usidir, xususan, meningdek podshohning oldida... Ammo to‘rt oy muddatida ikki yuz odil kishining guvohlig‘i bila bir rost so‘zni aytmoq munosib emasdur. Buningdek so‘zlar avval isbot etilg‘ay, undin so‘ng ul so‘zni qabul etgaylar.

Ey farzand bilg‘ilki, so‘z to‘rt nav bo‘lur, undoqkim xaloyiq ham to‘rt nav bo‘lg‘ondek. Biri ulkim, bilur va bilg‘onin ham bilur. Ul olimdur, unga tobe bo‘lmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag‘onin bilur, ul qobildur, ungao‘rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg‘onin bilmas, ul uyqudadur, uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag‘onin ham

---

[124] Hud - o‘z, o‘zim.
[125] Tahqiq – biror narsaning haqiqatini izlash.

bilmas, u johildur… undin qochmoq kerakdur. Ammo deb erdimki, so‘z ham to‘rt navdur; biri, bilinmayturg‘on va aytilmayturg‘on; ikkinchisi, aytilaturg‘on va bilinaturg‘on; uchinchisi, ham bilinaturg‘on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytsa bo‘laturg‘on; to‘rtinchisi, bilinaturg‘on va aytilmayturg‘on. Ammo aytilmayturg‘on va bilinmay turg‘on undoq so‘zdurki... dunyoning salohi unga bog‘liqdir. Ul so‘zdin aytguvchiga ham, eshituvchiga ham ko‘p naf yetar. Ammo bilinaturg‘on, biroq aytilmayturg‘on undoq so‘zdirkim, bir muhtasham odamning aybi senga ma’lum bo‘lur. Lekin aql tariqidin xayolga kelsang, uni aytmoq besharmlikdir. Chunki aytsang ul muhtashamning qahri yo u do‘stning ozori senda hosil bo‘lur, yohud o‘z boshingga ulug‘ sho‘rish vag‘avg‘o paydo qilursan. Shul vajdin ham bul so‘z bilinaturg‘on, ammoaytilmayturg‘on so‘zdur. Bu so‘zlarning yaxshirog‘i ham bilinaturg‘on va ham aytilaturg‘on so‘zdur.

Bu to‘rt nav so‘zning ikki yuzi bordur. Biri xo‘b va biri zisht. Har so‘zni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul bo‘lsun vaxaloyiq sening so‘z bila baland martabaga egalig‘ingni bilsunlar. Nedinkim kishining martabasini so‘z bila bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmaslar. Chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zining ostida pinhondur, ya’ni bir so‘zni bir iborat bilaaytsa bo‘lur, eshitg‘on kishining esa ko‘ngli undin tira[126] bo‘lg‘ay va yanao‘shal so‘zni bir iborat bilaaytsa bo‘lurkim, eshitg‘on kishining joni undin rohatda bo‘lg‘ay.

## HIKOYAT

Undoq eshitdimki, bir kechaXorun-ar Rashid bir tush ko‘rdikim, og‘zidin barcha tishlari to‘kulmish. Erta tong turib bir muabbirni[127] chaqirib so‘radikim, «bu tushning ta’biri nedur?». Muabbir dedi: «Ey

[126] Tira – qorong‘u
[127] Muabbir – tushni ta’bir qiluvchi.



amiralmo‘‘minin, sening oldingda barchaxesh, aqrabo va qarindoshlaring o‘lg‘usidir. Andog‘kim, sendin o‘zga hech kishi qolmag‘usidur». Bu so‘zni eshitg‘on Xorun-ar Rashid: «Mening yuzimga bundoq dardlig‘ vaanduhlig‘ so‘zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o‘lsalar, so‘ngra men qandog‘ ishga yararman va na yang‘lig‘ ro‘zg‘or surarman?» - dedi va unga yuz tayoq urmoq buyurdi. So‘ng boshqa bir muabbirni chaqirib, tushin unga tahrir[128] qildi. Muabbir dedi: «Ey amiralmo‘minin, sening umring barchaaqrabolaring umridin uzoq bo‘lur». Xorun-ar Rashid dedi: «Barchaaqlning yo‘li birdur va ikkovining ta’birining negizi bir yerga borur, ammo bu ibora bila ul iboraning orasida farq bag‘oyat ko‘pdur».Buyurdi, so‘nggi muabbirga yuz tillo berdilar...

Ey farzand, so‘zning yuzin vaorqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har na so‘z desang yuzi bila degil, to suxango‘y bo‘lg‘aysan. Agar so‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang qushgao‘xsharsanki, unga to‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zning ma’nosin bilmas.

Suxango‘y shul kishi bo‘lg‘ayki, ul har so‘zni desa, xalqqa ma’qul bo‘lg‘ay vaxalq ham har so‘z desa unga ma’qul bo‘lg‘ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg‘ay, yo‘q ersa ul inson suratida mavjud bo‘lg‘on bir hayvondur.

So‘zni bag‘oyat ulug‘ bilg‘il, so‘z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdur. Qay bir so‘zniki bilsang joyini o‘tkarmay aytg‘il… vaqtni zoye qilmag‘il, yo‘q ersa donishg‘a sitam qilg‘on bo‘lg‘aysan. Har so‘z desang rost deg‘il va be’manilikni da’vo qilg‘uvchi bo‘lmag‘il.

Bilmag‘on ilmdin dam urmag‘il va undin non talab qilmag‘il. Har na matlubing bo‘lsa, bilg‘on ilm va hunardin hosil bo‘lur. Bilmag‘on hunar da’vosidin hech narsa hosil bo‘lmas, faqat behuda zahmat chekarsan.

[128] Taxrir – maqsadini ogzaki anglatish.

## HIKOYAT

Bundog‘ayturlarki, Anushirovon Odilning zamonida bir xotin Abuzurjmehrning oldiga kelib, undin bir savol so‘rdi. Abuzurjmehr ul savolni bilmamish erdi vaxotinga qarab dedi: «Ey xotin, ul so‘zni sen so‘rorsan, uni bilmasman». U xotin dedi: «Sen bugina so‘zniki bilmassan, podshohning ne’matin nechun yersan?» Abuzurjmehr dedi: «Bilg‘on so‘z uchun yerman, ammo bilmag‘on so‘z uchun yemasman. Har so‘zniki bilmasman podshoh menga ul so‘z uchun hech narsa bermas va harna bersa bilg‘on so‘zim uchun berur».

Ammo, ey farzand, hech kishining oldida ifrot[129] qilmag‘il va ifrotni shumliq deb bilg‘il. Har ishda miyona (o‘rtacha) bo‘lg‘il, so‘z aytmoqda va ish qilmoqda... sangin[130] bo‘lg‘il. Rozingni[131] o‘zingdin o‘zga kishigaaytmag‘il, agar aytsang so‘ngra uni roz demag‘il.

Xaloyiqning orasida bir kishining qulog‘iga so‘z aytish yaxshi emasdur. Agar bu so‘z garchand yaxshi so‘z bo‘lsa ham, tashqarisindan uni yomon so‘z deb gumon qiladilar va ko‘p odamlar bir-birlaridan dargumon bo‘ladilar. Gar so‘z demoqchi bo‘lsang, shunday so‘z degilki, so‘zingning rostlig‘iga guvohlik bersinlar. Agar o‘zingni zo‘rlik bilaaybdor qilmoq tilamasang, biror narsaga guvoh bo‘lmag‘il vaagar guvoh bo‘lsang, guvohlik berar vaqtda ehtiroz[132] bo‘lg‘il. Agar guvohlik bersang, mayl bila bermag‘il.

Har so‘zni andisha bila boshlag‘il, toki aytg‘on so‘zingdin pushaymon bo‘lmag‘aysan.

Andishani ilgari tutmoq ham bir nav karomatdur. Hech so‘zni eshitishdan diltang bo‘lmag‘il. Ul so‘z ishinggaxoh yarasun, xoh

[129] Ifrot – haddan oshish.
[130] Sangin – og‘ir.
[131] Roz – sir.
[132] Ehtiroz – saqlanish, ehtiyotlanish.



yaramasun, uni eshitg‘il, to yuzingga so‘z eshigi beklanmasun va foydasi favt[133] bo‘lmasin.

Sovuq so‘zlik bo‘lmag‘il. Sovuq so‘z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo‘lur.

### Adabiyotlar

1. Kaykovus. Qobusnoma. T. 1994.
2. Kaykovus. Qobusnoma. T. 1986.
3. Kaykovus. Qobusnoma. T. 1973.

[133] Favt – yo‘qotish, o‘lim; favt bo‘lmoq - o‘lmoq.

## ALISHER NAVOIY NUTQ VA NOTIQLIK SAN'ATI HAQIDA

### Savollar

1. Navoiyning fikricha voiz qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
2. Navoiy qaysi asarida voizlik san'atiga alohida to'xtalib o'tadi?
3. Navoiy tan olgan voizlardan kimlarni bilasiz?
4. Voizlik qanday baholanadi?
5. Tilshunoslikka oid qanday asarlarini bilasiz?
6. Navoiyning quyidagi matla'li g'azalini kim yuqori baholagan edi?

Orazin yopqoch ko'zimdan sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...

7. Navoiy haqida qanday rivoyatlar bilasiz?
8. Navoiy haqida qanday she'r va qo'shiqlar bilasiz?
9. Navoiy Husayn Voiz Koshifiy haqida qaysi asarida ma'lumot beradi?

### Topshiriqlar

1. Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutq madaniyati, nutq san'ati haqida aytgan fikrlaridan yozing.
2. Navoiyning notiqligi ifodalangan rivoyatlardan topib yozing.
3. «Ko'p degan ko'p yengilur, ko'p yegan ko'p yiqilur» maqolini izohlang.
4. «Va'zxon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin; to'la kirgan odam esa yengil tortib, holi qaytsin», fikrini izohlang.
5. «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir», ma'nosini izohlang.



### Alisher Navoiy

Alisher Navoiy ibrat bo'lgulik hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. Bolaligidan ziyrak va qobiliyatli bo'lgan Alisherni to'rt yoshida o'qishga beradilar. Ota va ona uning har tomonlama bilim olishi uchun barcha shart – sharoitlarni yaratib beradilar. U adabiy asarlarni qunt bilan o'qiy boshlaydi. Sa'diy, Farididdin Attor asarlarini qayta - qayta o'qir va yod olar edi.Alisher badiiy asarlarni o'qish va o'rganish bilan kifoyalanib qolmadi.Uning o'zi ham she'rlar yoza boshlaydi. 10 – 12 yoshlaridayoq badiiy zavqi va didi hamda ilk she'rlari bilan tanilib, katta san'tkorlar va olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan edi. Navoiyning zamondoshi tarixchi Xondamirning xabar berishicha, kunlardan birida ancha keksayib qolgan Lutfiy shogirdi navqiron Alisherdan yozgan yangi she'rlaridan o'qib berishni so'ragan.Navoiy quyidagi matla'li g'azalni o'qigan;

Orazin yopqoch ko'zimdan sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...

Bu ajoyib g'azaldan qattiq hayajonlangan Lutfiy: «Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming bayt she'rimni shu bir g'azalga almashar edim», - degan.[134]

Navoiy do'sti Husayn Boyqaro taxtni egallagach, uning saroyida muhrdor, vazir lavozimlarini bajardi. Mamlakatning obod va farovon bo'lishi, san'at va adabiyotning rivojlanishiga o'zining bebaho hissasini qo'shdi. Ayni paytda ijoddan bir soat ham bo'shamay, o'zbek adabiyoti xazinasini she'riy durdonalar bilan boyitdi. O'lmas asarlar yaratdi.

Alisher Navoiy ijodida suhbat va nutq odobi qoidalari qiyomiga yetkazib bayon etilgan.

Navoiy so'zning hashamdorligidan ko'ra, haqqoniyligini ulug'laydi. Fikring xalq uchun foydali va tushunarli bo'lsin desang, sodda tilda gapir, deydi: «So'zki fasohat zevaridin muzayyan emasdir,

---

[134] Qarang: N.M. Mallayev. O'sha asar, 363-364-betlar.

anga chinlik zevari basdur. Yolg‘onchi har necha so‘zida fasihroq, so‘zi qabihroq. Chin so‘z nechakim betakalluf, qoyilg‘i iborat soddalig‘idin yo‘q taassuf».

Navoiy yaxshi so‘zli, el uchun foydali notiqlarga yon bosadi. Ularning xizmatini masjid imomlarining qilayotgan ishlaridan yuqori qo‘yadi. Shu tufayli ular uchun imomlarga nisbatan ancha ko‘p mablag‘ ajratishni tavsiya etadi: «Voizga yillik naqdi besh yuz oltun, bug‘doy o‘n yuk. Imomg‘a masjidi jome’da xatib bo‘lib, maktabdag‘i tutg‘ay, yillik naqdi ikki yuz oltun, bug‘doy o‘n yuk».[135]

Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutq madaniyati, nutq san’ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

Navoiy asarlarida nutq odobining talablari haqida fikrlar bor.

1. Tilni, so‘zni qadrla, uni hurmat qil:

Donau dur so‘zini afsona bil,
So‘zni jahon bahrida durdona bil.

(«Xamsa», 34-bet).

2. Yaxshi so‘zli olish (nutq) – san’atdir, noyob hunardir. Uni egallashga intilgin:

Erdin so‘z hunar, enchdin bo‘z hunar

(«Mahbub ul-qulub» 82-bet).

3. Insonning odob ahloqini belgilaydigan omillardan biri uning so‘zi, nutqidir: Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig‘i so‘z bila.

(«Mahbub ul-qulub» 79-bet).

So‘z zohir etar zamir ishi ko‘pragidin,
Til muxbir erur ko‘ngul nihon emgagidin,

[135] B.O‘rinboyev, A.Soliyev. O‘sha asar, 32-bet.



Fahm ayla kishi holini so‘z demagidin,
Kim berdi xabar hadisi ko‘nglidagidin

(«Nazmul-javohir»dan, 41-bet).

4. Kishining so‘zi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

Odamki demak birla kiromiydiru bas,
So‘z durri ishining intizomiduru bas,
Sihhat onchaki, ahli aql komiduru bas,
Aqlig‘a dalil aning kalomiduru bas.

(«Nazmul-javohir»dan,25-bet).

5. So‘zlaganda diling bilan tiling bir bo‘lsin, Chunki dildagi tilga chiqadi:

Haq seni sevgay el bila bo‘lsang,
Tilu ko‘nglungni bir qilib birro‘y,
Nuqta sursang shukuftau xandon,
Zist qilsang, kushodou xushro‘y.

(«Arbain» dan, 59-bet).

6. So‘zlagandao‘ylab so‘zla, tushunib, bilib gapir: So‘zni ko‘nglungda pishqarmaguncha tilga kelturma, Harnakim ko‘nglungda bo‘lsa til surma.

(«Mahbub ul-qulub» 83-bet).

7. Xushmuomala, shirinso‘z bo‘l. Tiling bilan kishilargaozor berma:

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har neki ag‘yor durur yor aylar,
So‘z qattig‘i el ko‘ngligaozor aylar.
Yumshog‘i ko‘ngullarni giriftor aylar.

(«Nazmul-javohir» dan,43-bet).

8. Chin, to‘g‘ri so‘zla, nutqingda halol bo‘l. Yolg‘on so‘z baxtsizlik keltiradi. Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar...

so‘zki fasohat zevaridin muayan emasdur, anga chinlik zevari basdur. Yolg‘onchi har necha so‘zida fasihroq, so‘zi qabih.

(«Mahbub ul-qulub» 63-bet).

Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas,
Vale bari chin ham deguluk emas.
Kishi chinda so‘z zebo, durur,
Necha muxtasar bo‘lsaavlo durur.

(«Mahbub ul-qulub» 83-bet).

9. Yaxshi, ezgu so‘z (nutq) kishigaobro‘, baxt keltiradi. Ezgu so‘zli bo‘l:

Kim istasa mazhari karomat bo‘lmoq,
Har nav’ ishda istiqomat bo‘lmoq
So‘zdir anga mo‘jibi g‘aromat bo‘lmoq,
Til zabtidadur anga salomat bo‘lmoq.

(«Nazmul-javohir» dan,43-bet).

10. Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch, undan nafratlan:

Birovkim yolg‘on so‘zni birovg‘a bog‘lag‘ay, o‘z qaro bo‘lg‘on yuzin yog‘lag‘ay. Kabira gunohdur – oz so‘z hamki o‘trukdur, zahra gunohdur – oz so‘z hamki o‘trukdur, zahri muhlikdur – agarchi miqdori o‘ksukdur.

(«Mahbub ul-qulub» 61-bet).

El aybini ayturg‘a birovkim uzotir til,
O‘z aybini fosh aylagali til uzotur bil.

(«Mahbub ul-qulub» 69-bet).

11. Tilingni tiy. Ko‘p so‘z, ezma va vaysaqi bo‘lma. Bu zararlidir. Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni ko‘p eshiturdin qaytma. Oz degan oz yanchilur, oz yegan oz yiqilur.

(«Mahbub ul-qulub» 82-bet).

Til ildamidin bo‘lur g‘aromat hosil,
Yuz nav’ nadomatu malomat hosil.



Oz so‘zlagandin istiqomat hosil,
Soqitligidin vale salomat hosil.

(«Nazmul-javohir» dan,31-bet).

12. So‘zlaganda sharoitni, suhbatdoshingni hisobgaol, beo‘rin so‘z aytma... «...Zolim va be dard suhbatida nuqta surma, nammom va nomard muloyamatida dam urma. Dono ilikdin borg‘ondin so‘z aytma, o‘tgan yigitlik orzu bilan qaytmas».

(«Mahbub ul-qulub» 84-bet).

13. Bo‘shog‘iz bo‘lma, suhbat sirlarini saqlashga o‘rgan:

Qaysi majlisdakim eshitsang so‘z,
Bilgil ul so‘z sangaomonatdur,
Gar ani o‘zga yerga naql etsang,
Ul omonatg‘a bu xiyonatdur.

(«Arbain» dan, 57-bet).

14. Gapirganda qaytariqlardan qoch, Chunki ular fikrning ta’sirini susaytiradi:

Bir deganni ikki demak xush emas,
So‘z chu takror topti dilkash emas.

(«Xamsa», 484-bet).

Nutq odobining qayd qilingan madaniy – ahloqiy talab vaasoslari nutq me’yorlari sifatida qadimiy davrlardan beri avloddan - avlodgao‘tib kelgan. Ushbu nutqiy me’yorlarning saqlanishi, o‘zgartirilishi va yashab kelishidaoilaviy an’analar, bir til jamoasi doirasidaamal qilingan an’anaviy qoidalar, suhbatdoshlar (so‘zlovchi va tinglovchilar)ning bir-birini o‘zaro nazorat qilishi, ta’lim tarbiya, o‘git-nasihat jarayoni, shuningdek nutqiy odob me’yorlari haqida yozilgan adabiyotlarni mutolaa qilish asosiy o‘rin tutgan.

Demak, kishilarning qandaydir to‘g‘ri, ta’sirchan, chiroyli va yaxshi gapirishga intilishi va ungaoid odatiy qoidalar qadimiy tarixga egadir. Bunday odat qadimiy o‘tmishdan hozirga qadar

mangu an'ana sifatida yashab va takomillashib kelgan. Biroq, nutq madaniyati tushunchasi bilan bog'liq ushbu nutqiy odatlar turli davrlarda muayan xususiyatlari bilan farqlanib turgan. Ayniqsa, adabiy til paydo bo'lgunga qadar mavjud bo'lgan nutq odobi (nutq madaniyati) tasavvurlari, adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davr nutq madaniyati tasavvuridan farqlanadi.[136]

**Nasihat ahli va voizlar zikrida**

Voiz kerakki, «qolalloh» so'z aytsa va «qola rasulullоh» muxolafatidin qaytsa, xudo va rasul yo'lig'a qadam ursa. O'zi kirgondin so'ngra nasihat bila elni ham kivursa. Yurumagon yo'lga elni boshqarmoq – musofirni yo'ldin chiqormoqdur va biyobong'a keturmak va bodiyada iturmakdur. Usrukki, elga buyurg'ay xushyorliq - uyquvchidekdurki, elga buyurg'ay bedorliq. Uyqusida so'z degan jevligon bo'lur va degondek qilmoq ne degon bo'lur.

Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatin qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo'lni bormoq kerak, andin so'ngra elni boshqarmoq kerak. Yo'lni yurmay kirgan itar va g'ayri maqsud yerga yetar.

Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay. Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqqiy – aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Nazoirxon bila surguvchi maqol – dastiyor bila yirlag'uvchi qavvol.

**Qit'a:**

Voizki, dastyorsiz o'lmas suxanguzor,
Anga yorodu munga ayolg'uvchi hukmi bor.
Tengri so'zin ayolg'uvchi bo'lmay deya olmag'ay,
Bir soz bo'lsa ham kerak ul qilg'ay ixtiyor.[137]

[136] R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar, 25-bet.
[137] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-tom –T. 1998. 32-33-betlar.



Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz. Harzago'ykim, ko'p taqallum surgay, itdebdurkim, kecha tong otqunga hurgay. Yamon tillik andoqkim el ko'ngliga jarohat yetkurur, o'z boshig'a ham ofat yetkurur. Nodonning muvahhish-harzag'a bo'g'zin kirmog'i-eshakning jihatsiz qichqirmog'i. Xo'shgo'ykim, so'zni rifq va musovo bila aytg'ay, ko'ngulga yuz g'am keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. So'zdadur har yaxshiliqni imkoni bor, munda debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila o'lukka jon berdi, go'yo bu jihatdin erdi.

Makruheki, harzasi tavil va ovozi karihdur, o'zi savti bila qurbaqag'a shahibdur. Ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig'a manba' ham til, ahli shaqovatlar nahs qavqabig'a matla' ham til. Tiliga iqtidorlig'-hakimi xiradmand; so'ziga ixtiyorsiz – laimi najand. Tilki fasih va dilpazir bo'lg'ay-xo'broq, agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay.

Til va ko'ngul xo'broq a'zodurlar insonda; savsan va g'uncha marg'ubroq rayohindurlar bo'stonda. Odame til bila soyir bila hayvondan mumtoz bo'lur va ham aning bila insonga sarafroz bo'lur. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir.

Ayn ul-quzot til sharafidin Masih guftor bo'ldi va Husayn Mansur til sur'tidin dorg'a sazavor.

**Bayt:**

Har necha biymi hajr so'zi oshiq o'lturur,
Vuslat bashorati yana jismig'a jon berur.

Tildin azubat dilpisanddur va liynat sudmand. Chuchuk tilki, achchig'liqqa evruldi, zarari om bo'ldi, qandniki, muskir boda

qildilar, xarom bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarg‘a qo‘shdur, barcha atfol tab’ig‘a muloyim halvofurushdur.

**Bayt:**

Xush so‘zga kim o‘lsa mastu behush,
Sharbat aro zahrni qilur no‘sh.

Harkimki, so‘zi yolg‘on zohir bo‘lg‘och uyolg‘on. Yolg‘onni chindek aytquvchi suxanvar-kumushni oltun ro‘kach qiluvchi zargar. Yolg‘on afsonalarda uyaltirguvchi, yolg‘onchi uyquda takallum surguvchi. Yolg‘on aytguvchi g‘aflatdadur. So‘zning asnofi bag‘oyat cho‘qdur, yolg‘ondin yamonroq sinfi yo‘qdur.

Ulki yolg‘on bila sarfi avkot etgay, anga bu yamon kelmagay yana mubohot etgay. Agar mustami’inni g‘ofil topqay, yolg‘onin ching‘ao‘tkarsa maqsudin hosil topqay. Zihi tengrig‘a yamon, ne tengridin, nexalqdin sharmanda. Mundoq nahsning chun erur yuzi yamonliq sari, bu nuhusatshior qutlug‘ uydin tashqari.

**Bayt:**

Ul kishini qutlug‘ evdin tashqari surmak kerak,
Qutlug‘ ev dunyo durur, ya’niki, o‘lturmak kerak.

Birovkim, yolg‘on so‘zni birovga bog‘lag‘ay, o‘z qaro bo‘lg‘on yuzin yoqlag‘ay, kabira gunohdur-agarchi miqdori o‘ksukdur.

**Bayt:**

Zahrning oz esa miqdori dog‘i muhlikdur,
Ignaning no‘g‘i zaif ersa dog‘i ko‘r qilur.

Ulki, so‘zni bir yerdin yana bir yerga yetkurgay, elning o‘tgan gunohini o‘z bo‘ynug‘a indurg‘ay. Nammomliq chin so‘zga ma’mnudur. Agar zuhur etgay-xayol qilki, yolg‘on so‘zga ne yetgay. So‘z terguvchining agar ulug‘i, agar kichigi-bilki erurlar tamug‘o‘tining tutrug‘i.

**Bayt:**

Kim so‘zni terib aytguvchi og‘ziga bergay,



Molik ani do‘zaxo‘tining dudig‘a tergay.

Ulki, juz quvvat da’visi izhor qilmas, go‘yoki, haqning qaviy ul-matin erkanin bilmas. Odameki, quvvat xayolin ko‘ngliga kechirur-tufrog‘edurkim, el urg‘och uchurur. Dunyo dor ul-havodisdur vaanga ko‘ngul bog‘lamoqqag‘aflat boisdur. Olam umrdek bevafodur vaaning davlatig‘a e’timod qilmoq xato.[138]

## Adabiyotlar


1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 13 tom. T.: 1997.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 14 tom. T.: 1998.
3. Alisher Navoiy. Vaqfiya. T.: 1991.
4. Alisher Navoiy. Lisonut tayr. 11 tom. T.: 1996.
5. B.Ahmedov. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.: 1985.
6. B.Hasanov. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at T.: 1993.
7. M.Jo‘rayev. El desa Navoiyni T.: 1991.
8. B.O‘rinboyev, A.Soliyev. Notiqlik mahorati T.: 1984.
9. Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Istiqlol va ona tilimiz T.: 1998.
10. N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: 1976.
11. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari T.: 1992.


[138] R.Qo‘ng‘urov va b. O‘sha asar, 23-24-betlar.

## HUSAYN VOIZ KOSHIFIY NOTIQLIK SAN'ATI HAQIDA

### Savollar

1. Husayn Voiz Koshifiyning voizlik san'atiga bag'ishlangan qanday asarlari mavjud?
2. Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy o'rtasidagi munosabat qanday bo'lgan?
3. Voiz va Koshifiy so'zlarining ma'nosi nima anglatadi?
4. Husayn Voiz Koshifiy haqida nimalarni bilasiz?

### Topshiriqlar

1. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy» asaridagi nutqqa, nutq san'atiga oid fikrlarni aniqlang.
2. Husayn Voiz Koshifiy maddohlarni necha guruhga ajratadi.

## HUSAYN VOIZ KOSHIFIY

Husayn Voiz Koshifiy XV asrda Hirotda yashab ijod etgan taniqli olim va notiq bo'lgan. Uning «Tafsiri Husayni», «Axloqi Muhsiniy», «Anvori Suxayliy» kabi asarlari juda mashhur bo'lgan. Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning zamondoshi va do'sti bo'lgan. U notiqlikda, xususan, va'zxonlikda nihoyatda mashhur bo'lganligi uchun ham «voiz» unvoniga sazovor bo'lgan. «Koshifiy» = kashf etuvchi, degan ma'noni anglatadi. Odamlar Husayn Voizning har bir va'zidan so'ng yangi-yangi narsalarni kashf qilganlar, egallaganlar. Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida hikoya, rivoyat, she'riy parchalar joy olgan bo'lib, yuksak axloqiy g'oyalar – poklik, imon, e'tiqod, ezgulik tarannum etiladi. Uning asarlarida pand-nasihat va hikmat keng o'rin olgan. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy» asarida javonmardlik, uning qoida va xususiyatlari asoslab berilgan. Ayniqsa, futuvvat



asoslari va tasavvuf g'oyalari o'rtasidagi o'xshashlik keng talqin etilgan. Husayn Voiz Koshifiy 1505-yilda Hirotda vafot etgan.

## FUTUVVATNOMAI SULTONIY YOXUD JAVONMARDLIK TARIQATI

### Ikkinchi fasl: Ma'raka tuzuvchi so'z ahli haqida.

Ular uch toifa bo'ladilar: birinchi toifa – maddohlar, g'azalxonlar va saqqollar. Ikkinchi toifa – xosago'ylar va bisotandozlar. Uchinchi toifa – qissa so'ylaguvchilar va afsona aytuvchilar (ya'ni, baxshilar). Bularning ayrimlari haqida alohida to'xtab o'tamiz.

### Birinchi qism: Maddohlar va g'azalxonlar haqida

Shuni bilgilki, futuvvat ahli (ahli shadd) orasida maddohlarning martabasi eng balanddir. Buning sababi shuki, ahli bayt, xonadon muhabbati barchaning ko'nglida mavjud va agar birov boshqa birovni sevsa, sevgilisining ta'rifini tilidan qo'ymaydi... Maddohlar shunday xususiyatga ega kishilardirlar va uzluksiz ahli bayt ta'rifida so'z aytadilar va xonadonning yodida so'z aytish bilan vaqt o'tkazadilar.

Agar maddohlar necha xil bo'ladi, deb so'rasalar, to'rt xil deb aytgil: Birinchidan – o'zlari badehatan ijod qiluvchilar, ular o'zlari she'r aytish qobiliyatiga ega bo'lib, hikoyatu rivoyatlarni nazmga tushurib, bayon qilaveradilar. Ikkinchi xili – boshqa shoirlarning she'r, hikoya yoki badehalarini ijro etib, xalqqa foyda yetkazuvchilardir. Bu toifani roviylar deb ataydilar va ular ham maddohlar jumlasidandirlar. Uchinchi xili maddohlik barobarida boshqa ishlar bilan ham shug'ullanib, xalqqa fayz yetkazuvchilardir. Masalan, saqqolar (suv tarqatuvchilar) shunday kishilar bo'lib, ularning ishidan odamlar xursanddirlar. To'rtinchi

toifa har yerdan har xil baytlarni yod olgan kishilar bo‘lib, ular eshikma-eshik yuradilar, qasida aytib non yig‘adilar va maddohlikni gadoylik, deb tushunadilar. Bularni agarchi qiyofalariga qarab maddoh desalarda, aslida ushbu jamoaga muvofiq emasdirlar.

Agar maddohlik odobi nechta bo‘ladi, deb so‘rasalar, beshta deb aytgil: avval shuki, doimo taqvo va tahoratda bo‘lsin... Uchinchidan, g‘arazli niyatda va qasd olish uchun maddohlik qilmasin. To‘rtinchidan, boylikka berilgan bo‘lmasin. Beshinchidan, madhda oshirib mubolag‘a qilish bilan shug‘ullanmasin.

Agar maddohning nechta sifati bo‘lishi kerak, deb so‘rasalar, aytgilki, maddohning yigirma sifati bo‘ladi. Bular: sidh, sabr, shukr, zudh (parhez), toat, qanoat, muhosaba (umr hisobini olish), muroqaba, xudo yodida tafakkurga berilish, (tavozu’, taslim, ixlos, karam, nisor, mujohada (jidu jahd qilmoq), tafakkur, tavakkul, kam yeyish, kam uxlash va shafqatli bo‘lish.

Agar maddoh hazar qiladigan sifatlar nechta, deb so‘rasalar, o‘ttizta deb aytgil. Bular: g‘aflat, g‘urur, aybjo‘ylik, riyo, mayxo‘rlik, qaro ko‘ngillilik, zino, badaxloqlik, janjalkashlik, yaramas va noshoista so‘z aytish, va’dani buzish, masxara-mazax qilish, noo‘rin ta’na, yolg‘on gapirish, yolg‘on qasam ichish, birodarlarni g‘iybat qi-lish, tuhmat qilish, gap tashish, g‘ammozlik, hasad, makkorlik, odamlarni yomonlash, boylikka hirs qo‘yish, zulm, baxillik, ko‘p uxlash va ko‘p yeyish.

Agar maddohlar bir-birlari bilan munosabatda qaysi qoidalarga rioya qilishlari kerak, deb so‘rasalar quyidagi oltita qoidaga deb aytgil: avval shuki, bir-birlari bilan do‘st bo‘lsinlar... Uchinchidan, bir-birlari bilan kelishmay ish boshlamasinlar. To‘rtinchidan, zaif-ojizalarni qatorlaridan surub chiqarmasinlar. Beshinchidan, bir-birlarining hurmatini saqlashda qilcha gumon-



shubhaga yo‘l qo‘ymasinlar, toki hamma yerda muhtaram va aziz bo‘lsinlar.

Agar maddohlar necha xil bo‘ladi, deb so‘rasalar, uch xil deb aytgil. Bir xillari faqat she’r o‘qiydilar, she’rni ravon va ifodali o‘qib, tinglovchilarga zavq bag‘ishlaydilar. Ikkinchi xillari nasriy asarlar, mo‘‘jaz gaplar, ibora va ta’rifu tavsiflar (qasidaxonlikni) nasr bilan ado etadilar va bu toifani g‘arraxon (chiroyli o‘qiydiganlar) deb ataydilar. Uchinchi xillari nasr va nazmni aralashtirib o‘qiydilar. Bu toifani murassa’xon (so‘z ustasi), deb aytadilar. Va bularning kamol fazli, martabalari oldingi ikki guruhdan balanddir.

Agar maddohlarga xos alomatlar nimadan iborat, deb so‘rasalar, aytgil: maddohlarning o‘ziga xos alomati to‘n va xirqa kiyishda emas. Ular har qanday to‘nni kiyib yurishlari mumkin. Ammo ularning boshqalardan ajralib turuvchi tashqi alomatlari bor. Bu - nayza, tavq (xalqa, belbog‘) sufra (dasturxon), chiroq va bolta (qurol) olib yurishlaridir... Nayza - o‘zini himoya qilish belgisi, tavq - maddohning qaysi martabada ekanligini ko‘rsatuvchi belgi, dasturxon - saxiylik va qo‘li ochiqlik alomati, chiroq - ko‘ngil ravshanligi, ya’ni futuvvat yerlari muhabbatini ko‘ngil ichida yoniq saqlash, o‘zini yondirib bo‘lsa ham, o‘zgalarni isitish, o‘zgalar diliga yorug‘lik, safo bag‘ishlash alomati...

**Ikkinchi qism: Qissaxonlar va afsona aytuvchilar haqida**

Shuni bilki, qissa o‘qish va qissa eshitishning foydasi katta. Birinchidan, kishi o‘tgan ajdodlarning ishi va ahvolidan xabardor bo‘ladi. Ikkinchidan, odam g‘aroyib va ajoyib voqea, sarguzasht-larni eshitsa, fikri va ko‘zi ochiladi. Uchinchidan, o‘tganlarning zahmatu uqubatlaridan xabardor bo‘lsa, hech kim bu dunyoda tashvish-g‘amdan ozod emasligini anglab, ko‘ngli taskin topadi, tasalli bo‘ladi. To‘rtinchidan, o‘tgan podsholar davlati va

mulkining zavolini eshitsa, dunyo moliga mehri susayadi, boylik kishiga vafo qilmasligini bilib oladi. Beshinchidan, qissa eshitgan behad ko‘p ibrat oladi, tajriba orttiradi. Bas, ma’lum bo‘ladikim, o‘tmish ajdodlarning qissalarida foyda ko‘p, agar bo‘lib o‘tgan voqealar bo‘lsa, aytuvchi va o‘quvchi bilan birga eshituvchi ham undan naf’ topadi va agar g‘ayri voqe’ (to‘qima) bo‘lsa, aytuvchi uchun gunoh hisoblansa-da, ammo eshituvchi uchun foydali va savobdir...

Agar ma’rakada kursi (sandali) qo‘yishning ma’nosi nima, deb so‘rasalar, javob berib aytgil: buning ma’nosi shuki, kimningkim iste’dodi hunari bo‘lsa, u qolgan odamlardan balandroq o‘tirishga loyiq, Chunki boshqalar uning diydoridan bahramand bo‘lishlari kerak. Agar sandalini kim uchun qo‘yadilar, deb so‘rasalar, san’atkor, hunarmand kishilar uchun deb ayt. Zero podsholar ham pahlavonlikda, so‘z hunarida nom qozonganlarni siylab, ularni kursiga o‘tqazadilar. Bas, so‘z maydonining pahlavoni bo‘lgan kishilarni kursiga o‘tqazib, qadrlasa arziydi. Agar kursining nechta rukni bor, deb so‘rasalar, to‘rtta deb aytgil: ikkita ostki va ikkita ustki ruknlar. Ikkita ustki rukn nimaga ishora, deb so‘rasalar, aytgil: biri - bilim va ikkinchisi - aqlu farosat, zehnu zakovatga ishora. ya’ni sandalida o‘tirgan odam bilimi va zakovati bilan har bir ma’rakada qanday so‘zga talab borligini anglasin va shunga qarab so‘z aytsin. Sandalining ostki ikki rukni nimaga ishora, deb so‘rasalar, biri - sabrga, ikkinchisi - sabotga ishora deb aytgil. Ya’ni, sandaliga chiqib o‘tirgan odam chidamli bo‘lishi, o‘z ishiga mustahkam, sobit bo‘lmog‘i lozim. Har narsaga o‘rnidan turib, yengiltaklik qilmasligi kerak.

Agar qissaxonlik necha xil bo‘ladi, deb so‘rasalar, ikki xil bo‘ladi deb aytgil: birinchisi hikoyat aytish (o‘qish), ikkinchisi – she’rxonlik. Hikoyat aytishning esa sakkizta qoidasi bor. Avval shuki, qissaxonlik boshlanganda, agar kishi qissani boshlovchi



bo‘lsa, u ustoz ta’limini olgan, ustoz huzurida o‘tkargan kishi bo‘lishi kerak. Va agar qissani tugatuvchi bo‘lsa, o‘zi mustaqil takrorlagan bo‘lsin, toki esidan chiqib, tutilib qolmasin. Ikkinchidan, chapdastlik bilan dadil so‘zga kirishsin, xomlik va lanjlik ko‘rsatmasin. Uchinchidan, ma’raka qanday asarni qabul qilishini anglasin va el rag‘bati ko‘proq bo‘lgan asarlarni tanlasin. Ammo me’yorni saqlasin. To‘rtinchidan, hikoya davomida nasrni gohi-gohida nazm bilan qo‘shib olib borsin, lekin bu eshituvchilarga malol kelmaydigan darajada bo‘lsin. Ulug‘ ustozlar: nazm-qissaxonlikda bamisoli taomga solinadigan tuzdir - agar kam bo‘lsa, taom ta’msiz bo‘ladi va agar ko‘paysa sho‘r bo‘ladi, deganlar. Bas, me’yorni saqlash lozim. Beshinchidan, yolg‘on va ishonarsiz so‘zlarni gapirmasin, toki elning nazaridan qolmasin. Oltinchidan, kinoyali tushunilmaydigan so‘zlarni aytmasin, Chunki bu eshituvchilarni ranjitadi. Yettinchidan, tama’ bilan odamlar joniga tegmasin, gadoylik qilmasin. Sakkizinchidan, qissaxon-likni tez tugatmasin va haddan ziyod cho‘zmasin ham, o‘rtalikni saqlasin.

Agar she’rxonlik odobi nechta, deb so‘rasalar, oltita deb aytgil: birinchidan, she’rni ohong bilan o‘qisin, ikkinchidan, so‘zni odamlar qalbiga joylay olsin. Uchinchidan, agar biror mushkil (tushinilishi og‘ir) bayt paydo bo‘lsa, yig‘ilganlarga uni sharhlab, mazmunini izohlab bersin. To‘rtinchidan, eshituvchiga malol keladigan ish qilmasin. Beshinchidan, gadoylik qilmasin, mubolag‘ali qasamlar ichmasin. Oltinchidan, o‘qigan she’rining muallifini ma’raka oxiri yoki boshida tilga olib, duo qilsin.

Afsona aytuvchilar ham qissaxonlarga o‘xshash bo‘lib, aytib o‘tilgan qoidalar ularga ham tegishlidir.

## ABDULLA AVLONIY NOTIQLIK SA'NATI HAQIDA

### Savollar

1. Abdulla Avloniyning qanday asarlarini bilasiz?
2. «Turkiy guliston yoxud axloq» qanday asar va u necha bobdan iborat?
3. Asarda odamlar xulqi, xatti-harakati nuqtai nazaridan necha guruhga bo'linadi?
4. Muallif tarbiyaning qanday turlari haqida fikr yuritadi?
5. Bola tarbiyasida nimalar muhim ekanligini ta'kidlaydi?
6. «Hifzi lison» deb nimaga aytiladi?
7. Abdulla Avloniy milliy tilni saqlash masalasida nima deydi?
8. Axloq nima va uning qanday ko'rinishlari bor?
9. Xulq nima va uning qanday ko'rinishlari bor?
10. Diyonat deganda nimani tushunasiz?

### Topshiriqlar

1. Turkiy guliston yoxud axloq asarini sinchiklab o'qing.
2. Asar yuzasidan bahs-munozara o'tkazish uchun savollar tuzing.
3. Asardan kerakli va muhim o'rinlarni daftaringizga yozib oling.
4. Kishi tabiati bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni izohi bilan yozing.
5. Vijdon, hayo, diyonat, qanoat, sabr, ilm, adolat to'g'risida qisqa yozib oling.
6. Yomon xulqlar: g'azab, jaholat, adovat, g'iybat, haqorat, hasad, tama to'g'risida qisqa yozib qo'ying.
7. Yaxshi va yomon xulqlarni ifodalovchi so'zlarni o'zbek tilining izohli lug'ati yordamida ko'chirib yozing.



8. Vatan tuyg'usi kitobini o'qing va bahsga tayyorgarlik ko'ring.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913-yilda yozgan va 1917-yilda ikkinchi bor nashr qilingan «Turkiy guliston yoxud axloq asari» XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar mazmun tomonidan muallifning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzviy bog'liqdir.

XX asr boshlarida bunday asarni o'zbek tilida birinchi bo'lib Abdulla Avloniy yaratdi va ta'lim-tarbiya ishlarida uni tadbiq etdi. Abdulla Avloniy arab, fors, rus va ozarbayjon tillarini yaxshi bilgan olim edi. Uning qardosh xalqlar va chet tillarini bilishi pedagogik va poetik ijodining taraqqiyoti uchun katta zamin hozirladi.

«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobi katta - kichik 64 bobdan iborat bo'lib, har bir bob ta'lim - tarbiya masalasiga bag'ishlanadi hamda biri ikkinchisini to'ldiradi, takomillashtiradi. Yozuvchi bu asarini yaratishda xalq pedagogikasidan keng foydalanadi.

Abdulla Avloniy «Tarbiya» sarlavhasi ostida tarbiya turlari haqida fikr yuritadi: 1. «Tarbiyaning zamoni», 2. «Badan tarbiyasi», 3. «Fikr tarbiyasi», 4. «Ahloq tarbiyasi». Bolani tarbiyalashda bu to'rt masala g'oyat muhim ahamiyat kasb qilishini ta'kidlaydi.

Bola tarbiyasida muallif bola yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta ekanligini ko'rsatadi va bu soha oila, maktab sharoitini ham nazar-e'tibordan chetda qoldirmaydi. Tarbiya bolaning ahloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta'sir etishni e'tirof qiladi va ota-onalarni o'z bolalarini tarbiya qilishga chaqiradi. Ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy til masalasiga katta e'tibor beradi, tilni xalq bilan bog'lab talqin qiladi: «Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur». U o'z asarida har bir kishining o'z ona tilini mukammal bilishi, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatishi, milliy-adabiy tilning taraqqiy uchun jonkuyarlik qilishi zarurligini qayd qiladi. «Hifzi lison» deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini saqlamakni aytilur».

«Turkiy guliston yoxud axloq»ning birinchi sahifasidan to so'nggi sahifasigacha Avloniyning insonparvarlik g'oyalari ifodalangan. U hamma narsadan avval xalq manfaatini ko'zlashni, xalqqa xizmat qilishni birinchi o'ringa qo'yadi.

Abdulla Avloniy insonning eng yomon xulqlaridan g'iybat va adovatning bir-biriga yaqinligini va g'iybatning oqibati adovat bilan tugashini ko'rsatib o'tadi. U deydi: «G'iybat sohibi lazzat o'rniga o'z boshiga yoki bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlaydur. Chunki so'z borub g'iybat qilinmish kishining qulog'iga yetar, g'azab qoni harakatga kirar, g'iybatchidan o'ch olmak fursatini poylar...Shu tariqa g'iybatdan tug'ilgan adovat cho'zilmoqg'a oid bo'lib, dushmanlik zo'rayib, o'z oralaridagi xususiy janjallar ila aziz umrlarini o'zdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishlanadurgan milliy ishlardan mahrum bo'lmaklari ila barobar aholining orasidan ittifoqning yo'qoluviga sabab bo'lurlar».[139]

**Axloq**

So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,
Yo'qsa jim turmoqing erur yaxshi.
O'ylasang yaxshi fikrlar, o'yla,
Yo'qsa gung bo'lmoqing erur yaxshi.

[139] Qarang. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T. 1992. 3-9-betlar.



Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,
Yo'qsa bekorlig'ing erur yaxshi.[140]

**Fikr tarbiyasi**

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir - biridan oyilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur.

Masalan: joy solinmagan yaxshi bir uyning ichidao'tirmak mumkin o'lmadig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlangan eski imorat ham o'lturishga yaramaydur. Basharti o'ltursa, insonlar: «Eski uyga yangi zoldivor», «Kir ko'ylakka jun jiyak», «Mis qozong'a loy tuvoq» deb hajv, kulgi qilurlar.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikrning oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur.[141]

Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo'lur,
Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo'lur.
Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur[142]

[140] Abdulla Avloniy. O'sha asar. 17-bet.
[141] Abdulla Avloniy. O'sha asar. 15-bet.
[142] Abdulla Avloniy. O'sha asar. 17-bet

## Iffat

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur. Boshimizga keladurgan kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, andozadan ortiq so‘ylaganimizdan kelur.

O‘ylamay so‘ylagan og‘rimay o‘lar,
Fikr ila so‘ylagan yig‘lamay kular.

## Hifzi Lison

Hifzi lison deb har bir millat o‘z ona til vaadabiyotini saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til vaadabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan kun unutmak va yo‘qotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmigaarabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur. Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur.[143]

«Yohu! Bizga na bo‘ldi? Bobolarimiz yo‘lidan chiqub ketduk. Yaxshi qo‘shningdan olguncha yomon uyingni qidir», - demishlar. Bobolarimizga yetushg‘on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O‘z uyimizni qidirsak va ahtarsak, yo‘qolganlarini ham toparmiz. «Yo‘qolsa yo‘qolsun o‘zi boshimga tor edi», - deb Yovrupo qalpog‘ini kiyub, kulgi bo‘lmak zo‘r ayb va uyatdur. Payg‘ambarimiz: «Erlarda jamol lison va tildur», - demishlar.

[143] Abdulla Avloniy. O‘sha asar. 32-bet



Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, rahmonim,
Tug‘ildig‘im kundan aylading ulfat,
O‘lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilmu adab san o‘rgatding,
Chin adib, muallim shonim.
Millating ruhini ko‘targuchisan
Eng muqaddas karamli sultonim.

Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og‘iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdir. Chunki so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgan tarozisidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar. «Quruq so‘z quloqg‘a yoqmas», - demishlar.

Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lub, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgan bo‘lmasa, asallarilari orasidag‘ung‘ullab yurgan qovoqlari kabi quruq g‘ung‘ullamoq faqat bosh og‘rig‘idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattig‘ kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Ko‘p o‘yla, oz so‘yla», - demishlar.

Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilub, oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdur.

Go‘zallik yuzda ermas, ey birodar,
So‘zi shirin kishi har kimga yoqar.
So‘zing oz bo‘lsinu ma’noli bo‘lsun,
Eshitkanlar qulog‘i durga to‘lsun.

So‘zing bo‘lsa kumush, jim turmak oltun.,
Misi chiqg‘ay so‘zing ko‘p bo‘lsa bir kun.
Ko‘paygan so‘zni bo‘lgay to‘g‘risi oz,
Shakarning ko‘pidan ozi bo‘lur soz.

### G‘iybat

Agar jurmu gunah bo‘lsun desang oz,
Tilingni saqlag‘iybatdan qishu yoz.
Quloqqa paxta tiq, g‘iybat eshitma,
Shikoyatchi kishiga bo‘lma damsoz.[144]

### Adovat

Adovat balosi bizlarni netdi,
Adovat qilma deb haq bizgaaytdi.
Zudlik qilduk, mol va davlatlar ketdi,
Moldan o‘tub, oxir jonlarga yetdi.[145]

### Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 1992.
2. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘rayev. Vatan tuyg‘usi T.: 1996.

[144] Abdulla Avloniy. O‘sha asar. 51-bet.
[145] Abdulla Avloniy. O‘sha asar. 15-bet.



## XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN VA DONOLAR BISOTIDAN

### Savollar

1. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi nima uchun xalq qadriyatlarining tarbiyaviy qismi hisoblanadi?
2. Miflar nima?
3. Maqollar va matallar o‘rtasidagi farq nimada?
4. Topishmoqlar boshqa janrlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlandi?
5. Afsonalar qanday xususiyatlari bilan miflardan farqlanadi?
6. Latifa va loflarning umumiy xususiyati nimadan iborat?
7. Ertaklar boshqa janrlardan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
8. Xalq qo‘shiqlarining qanday ko‘rinishlari bor?
9. Nima uchun askiya faqat o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga xos janr hisoblanadi?
10. Dostonchilik an’analari haqida nimalar bilasiz?

### Topshiriqlar

1. O‘rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning o‘tmish hayoti bilan bog‘liq miflar haqida yozing.
2. «Xalq maqollarini bilaman» mavzuida ijodiy musobaqaga tayyorlaning (yozma tarzda, masalalarni izohlang).
3. Topishmoqlar aytish va ularni topish bo‘yicha musobaqaga tayyorlaning (yozma tarzda).
4. Mustaqil ravishda afsona va rivoyatlar yozib oling va tahlil qiling.
5. Afandi obrazi uchraydigan latifalardan yozib keling.
6. «Ertaklarda nutq odobi masalasi» mavzusida yozma ish yozing.
7. Allalardan yod oling.

8. Askiyada nutq madaniyati mavzusida yozma ish yozing.
9. Dostonlardan parchalar yodlang.
10. Marosim qo‘shiqlaridan namunalar keltiring (yozing).

**Maqollar**

1. Aytar so‘zni ayt,
   Aytmas so‘zdan qayt.

2. Haq so‘zga o‘lim yo‘q.

3. Oz so‘z – soz so‘z.

4. Tilni bilish – dilni bilish.

5. Notiq mahmadona bo‘lsa, majlisning burdi ketar.

6. Tildan qoqilishdan ko‘ra, oyoqdan qoqilish afzal.

7. Gapning tagini gap ochar.

8. Befoyda so‘zni aytma, foydali so‘zdan qaytma.

9. Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi.

10. Aytilgan so‘z otilgan o‘q.

11. Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til.

12. Gapni oz so‘zla, ishni ko‘p ko‘zla.

13. Ko‘p bilgan oz so‘zlar, oz bo‘lsa ham soz so‘zlar.



14. Qilichning zahri ketsa ham, so‘zning zahri ketmas.

15. Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi.

**Topishmoqlar**

1. Zarga sotilmas, zo‘rga topilmas. *(vaqt)*

2. Otlari har xil, yoshlari bir xil. *(hafta kunlari)*

3. Temir qo‘rg‘on ichida qizil toychoq o‘ynaydi. *(Til)*

4. Bir nafasda olamni kezar. *(fikr)*

5. Yugurgandan o‘tadi,
   Bir vaqtda yetadi,
   O‘q emas, otiladi,
   Qush emas, uchadi *(fikr).*

6. Uzoqning u yog‘inda,
   Yaqinning bu yog‘inda.
   Ko‘rinmas ko‘zga,
   Tinch bermas bizga *(hayol).*

7. Asaldan shirin,
   Zahardan achchiq *(so‘z, gap).*

8. Birovni suydirar,
   Birovni kuydirar *(so‘z, gap)*

9. Og‘zimni ochdim, uchdi ketdi,
Samarqandu Buxora borib yetdi *(so‘z, gap).*

10. Og‘izdan chiqqancha meniki,
Og‘izdan chiqqani elniki *(so‘z, gap).*

11. O‘t emas, kuydirar,
Pichoq emas, so‘ydirar *(yolg‘on so‘z).*

12. Kim suyaldi,
O‘sha uyaldi *(yolg‘on so‘z).*

13. Tinmas bitta
Tinglar mingta *(radio).*

14. Katta quti, ko‘zi bor,
Ko‘p tomosha, so‘zi bor *(televizor).*

15. Asal emas, yoqadi
Ari emas, chaqadi *(gap, so‘z).*

16. Jo‘shib kuylar akasi
Raqsga tushar ukasi *(shamol, o‘simlik).*

**Hazil so‘roqlar va so‘z o‘yini**

1. Nima hamma tilda ham gapiradi? *(aks sado).*

2. Odamzodda nima ko‘p? *(umid, reja).*

3. Dunyoda nima chaqqon? *(fikr).*

4. Dunyoda nima yugurik? *(fikr).*



5. Dunyoda nima qimmat? *(rostlik).*

6. Dunyoda nima ko‘rinmaydi? *(sevgi).*

7. Yumuq ko‘z bilan nimani ko‘rish mumkin? *(tush).*

8. Qaysi joydaosmon past bo‘ladi? *(suvda).*

9. Dengiz ostida qanday tosh bo‘lmaydi? *(quruq tosh).*

10. Dunyoda bir narsa borki, u bo‘lmasa hech kim bir - birini tanimaydi, u nima? *(ism)*

11. Yuki bo‘lsa yuradi,
yuksiz to‘xtaydi. *(osma soat).*

12. Yomg‘ir yog‘ib turganda, qarg‘a
qanday daraxtga qo‘nadi? *(ho‘l daraxtga).*

13. Qora mushuk qay vaqt uyga
osongina kira oladi? *(eshik ochiq bo‘lsa).*

14. Bir oilada cholu kampir yashaydi.
Ularning ikki o‘g‘li bor.
Har bir o‘g‘lining bittadan singlisi bor.
Shu oilada nechta jon bor?
*(5 ta: cholu kampir, ikki o‘g‘il, bir qiz)*

15. Anhor bo‘yida uch qarag‘ay o‘sadi. Ularning har birida uchtadan yo‘g‘on shoxi bor, har bir yo‘g‘on shoxida beshtadan

novda bor. Har bir novdada yetti donadan olma bo‘lsa, hammasi bo‘lib nechta donaolma bor?

*(bitta ham olma yo‘q, qarag‘aydaolma bo‘lmaydi)*

## RIVOYAT

O‘tmishda ovi yursa ham dovi yurmay, tobora kambag‘allashib borayotgan bir dehqon yo‘l chetida o‘ylanib tursa, faqirgina yo‘lovchi o‘tib qolibdi. Shunda dehqon:

– Ey donishmand, nima eksam, men boyib ketaman? – deb maslahat so‘rabdi.

Yo‘lovchi unga piyoz ekishni tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo‘lovchining gapiga kirgan dehqon o‘sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosar – tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o‘sha odmigina yo‘lovchi uchraganida:

– Ey gado, nima eksam, men yanada boyib ketaman? – deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo‘lida davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag‘allashib ketibdi.

Bundan g‘oyatda g‘azablangan dehqon haligi yo‘lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u notanish yo‘lovchi bilan duch kelibdi va :

– Ey notavon yo‘lovchi, nega meni aldading? Sening gapingga kirib, yanada boyish o‘rniga butkul kambag‘allashib ketdim-ku?, – deb g‘azab qilibdi.

– O‘zingni bos, - debdi yo‘lovchi. – Birinchi yili sen menga «donishmand» deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar esa



menga «gado» so‘zini munosib ko‘rding va men senga gadoning javobini berdim, – degan ekan...[146]

### *«Ye to‘nim, ye...»* Afandi.

«Afandi bir kuni to‘yga borgan edi, usti-boshi eski bo‘lganligi uchun unga hech kim e’tibor bermadi. U to‘yxonadan tezda chiqib, bir oshnasining kiyimlarini kiyib, yana qaytib keldi. Afandini izzat-ikrom bilan to‘rgao‘tkazdilar, oldiga turli-tuman noz-ne’matlar keltirib qo‘ydilar. Bu ahvolni ko‘rgan Afandi ustidagi to‘nga qarab:

– Bu ovqatlardan ye, to‘nim, ye!, – deydi.

Ajablangan odamlar buning sababini so‘raganlarida u:

– Madomiki, butun hurmat, ehtirom yangi to‘nga ekan, taomni ham u yesin-da, – deb javob beribdi».[147]

«Luqmoni hakim yo‘lda borayotsalar, bir uydan nola eshitilibdi. Kirsalar, xasta odam og‘riqqa chidayolmay dod der emish. Tabiblar kelib, uni bugun-ertao‘ladi, deyishibdi ekan. Luqmoni hakim xastaning bilak tomirini ushlab ko‘rib debdilarki: «Dardingizga davo bor. Ilon zahri sizga shifo bergay». Xasta debdiki: «Ilon zahrini men qanday topay? Bir bedavo bo‘lsam... Yo meni shu ahvolda tashlab ketaverasizmi? Olloh mening zorimni eshitib, Luqmoni hakimga ro‘baro qilganida edi, u zot meni tashlamas edilar». Luqmoni hakim bu nolani tinglab, aytibdilarki: - «Zinhor tashlamasman». Xullas, hazrat Luqmoni hakim ilonzorga borib, bir yoshroq ilonni bo‘g‘zidan bo‘g‘ib turibdilar. Shunda ilon ittifoqo tilga kiribdi va debdiki: «Ey inson farzandi, sen nechun meni bo‘g‘ayotirsan? Ollohning menga bergan jabrlari kammi edi?». «Olloh senga qanday jabrlar qildi?», deb so‘rabdilar Luqmoni hakim. «Meni ko‘rimsiz qilib yaratdi, odamlar ko‘rsalar

[146] Qarang. Siddiq Mo‘min. So‘zlashish san’ati. Farg‘ona. 1997. 60-bet.
[147] Siddiq Mo‘min. O‘sha asar. 81-bet.

mendan qochadilar. Meni yertuban qilib qo‘ydi, sudralib yurishga mahkum etdi. Endi sen meni bo‘g‘ib, jonimni olarsanmi?». Luqmoni hakim debdilar: «Shunday qilmasam bir odam hayotdan ko‘z yumar». Ilon debdi: «Ajab! U odamni saqlab qolmoq uchun meni o‘ldirasanmi? Axir u ham Ollohning bir mahluqi, men ham. Bir jonni saqlamoq uchun ikkinchisini mahv etmoq shartmi? Ey inson bolasi, sen ayt: men birovni chaqsam, mening zahrimni daf etaolasanmi?» Luqmoni hakim aytibdilar: «ha, daf etaolaman». Ilon debdi: «Unda mening zahrim kuchli emas ekan. Dunyoda shunday zahar borki, sen uni zinhor daf etaolmassan!». «Qanday zahar?. Qora qurtnikimi?», – debdilar Luqmoni hakim. «E, yo‘q, – debdi ilon. – Dunyoda eng kuchli zahar – odamning zahri. Bunga davo yo‘qtur. Odam odamni chaqsa, albatta, o‘lim haqdir! Olloh biz – ilonlarni tuban qilib yaratdi. Ammo biz bir-birimizni chaqmaymiz. Siz – odam bolalarini yuqori qilib yaratdi, siz bir-biringizni chaqib o‘ldirasiz. Sen saqlab qolmoqchi bo‘layotgan xastaga mening zahrim davo emas, yanglishma. Uni o‘z do‘sti chaqqan. Uning zahriga davo topaolmassan. Bunga xatto Luqmoni hakim ham davo topmagay. Qo‘y, u o‘laversin, azoblaridan qutula qolsin...»[148]

## MEHR BAYTLARI
### (Allalardan namunalar)

Tog‘lardagi shunqorim-a, alla,
Bog‘imdagi bulbulim-a, alla,
Beshikdagi qoplonim-a, alla,
Qo‘limdagi botirim-a, alla.

[148] T.Malik Shaytanat, III kitob, 315-bet.



Ulg‘ayib o‘sa, alla,
Ko‘kdagi yulduzim-aalla,
Belginamning quvvati-ya, alla.
Ko‘zginamning gavhari-ya, alla.

Allaaytib yurayin-a, alla.
Qo‘zichog‘im bolam-a, alla,
Katta bo‘lib jonim-a, alla,
Vatanga sodiq bo‘l-a, alla.

Ko‘zimning nuri-ya, alla,
Mehr-oqibatli bo‘l-a, alla.

* * *

To‘yib-to‘yib o‘pay seni,
Shirin do‘mbog‘im, alla.
Quchog‘imda yashab turgan,
Mash’al chirog‘im, alla.

Erka o‘g‘lim katta bo‘lgin,
Qo‘riqchi bo‘lgin, alla.
Boshga kelgan balolarni,
Yo‘q qilib turgin, alla.

***

Alla-alla aytayin, alla,
Ustingga to‘nim yopayin, alla,
Bu g‘ariblik hasratin, alla,
Kimlarga borib aytayin, alla.

Uxla, erkam, ol orom,
Alla-alla jon bolam, alla.

Mendan zurriyod, mendan nom,
Bog‘daochilgan lolam, alla.

Senga qo‘ydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdur murod, alla,
Yurtu elga suyansang, alla.
Senga bo‘lg‘usi qanot, alla,

Osmonda uchgan qushlar, alla,
Sekin chiqar tovushlar, alla,
Meni solma qayg‘uga, alla,
Bolam to‘ysin uyquga, alla.

Boshingdao‘ltiraman,
Allaaytib tun bo‘yi, alla.
Yuragimni payvand qilay,
Senga jonim shu ko‘yi, alla.

Alla desam bor bo‘lgin, alla,
Menga nomus-or bo‘lgin, alla,
Katta bo‘lgan chog‘ingda, alla,
Xalqqa vafodor bo‘lgin, alla.

Ulg‘ay bolam, gul Vatan, alla,
Botir bo‘lib o‘sgil qo‘zim, alla,
Seni ko‘rib bu chamanda, alla,
Yayray-quvonay, yulduzim, alla.

***

Alla aytay jonim bolam,
Uxlab qolgin-a, alla...



Beshiklarda rohatlanib,
Orom olgin, alla...

Uylarimni yorituvchi,
Yorug‘ yulduzim, alla-yo...
Dillarimni ravshan qilgin,
Ravshan chirog‘im, alla...

Arslon bilakli, sher yurakli,
Qoplonginam bo‘lgin-a, alla,
Katta bo‘lib Vataningga,
Sodiq bo‘lgina, alla...[149]

## HIKMATLAR

1. Odob ila sen ulug‘lik olgin,
   Hikmat gavharin qo‘yningga solgin.

2. To‘g‘ri ishla, to‘g‘ri so‘zla, to‘g‘ri tur,
   To‘g‘ri o‘yla, to‘g‘ri kuyla, to‘g‘ri yur.

3. Istasangkim etmasin senga balo,
   Ota-onangga sita qilma jafo.

4. Shoshqaloqlik – pushaymonlikning singlisi,

5. To‘g‘rilik odamni balodan qutqaradi.

6. Nodondan yiroq qochgan donodir.

[149] Qarang: Tafakkur chechaklari (O‘zbek xalq qo‘shiqlari). –T. 1992.

7. Kishining go‘zalligi uning tilidan bilinur.

8. Gaplarning yomoni bu yolg‘onchilikdir.

9. Imonli odam va’daga vafodor bo‘ladi.

10. Muloyimlik hikmatning boshidir.

11. Pulni ishlatsang, ozayadi,
Aqlni ishlatsang, sayqal topib, ko‘payadi.

12. Hayot eng yaxshi murabbiydir.

13. Har bir yomon ishdan saqla o‘zingni,
Yaxshilar ishidan uzma ko‘zingni.

14. Qilar ishing bo‘lsin yomondan qochish,
Fikru zikring bo‘lsin yaxshilik sochish.

15. Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.
16. Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilgil mudom.

17. Har tirik jon agar qilsa harakat,
Harakatga qarab topar barakat.

18. Yaxshilik ham yomonlik ham qaytadi.

19. Nabiraga bobo bo‘lsa rahnomo,
Ul joyda mo‘jiza undirar dunyo.



20. Odam borki, odamlarning naqshidur,
Odam borki, hayvon undan yaxshidur.

21. Umrni zoye etma, mehnat qil,
Mehnatni saodating kaliti bil.

22. Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on
Shunda bilursan ilm bepayon.

23. Olloh takabburlarni sevmaydi.

24. Otaga itoat – Ollohga itoatdir.

25. Jannat onalar oyog‘i ostidadir.

26. Hayoli kishilar imonlidur,
Imonlilar jannatidur.

27. Xayru sadaqani o‘z oilangizdan boshlang.

28.Kengga keng dunyo, torga tor dunyo.

## DONOLAR BISOTIDAN

Bir hakimdan so‘radilar: “Aqlli kishi kim?” Hakim dedi: “So‘zni me’yori bilan so‘zlagan, hayot qadrini anglagan, butun kuch va qudratini ilm va kamolot hosil qilishga sarflagan kishilar!”

**Bayt:** Cheklanib qolmagin mansabing bilan,
Bilim va fazilat izlasang agar
Nokaslar qo‘lidan shakar olgandan,
Zolim shoh qo‘lidan sen ichgil zahar!

Majididdin Havofiy.

***

Ey o‘g‘il, sen har vaqt gapirmoqchi bo‘lsang, avvalo gapingni yaxshilab o‘yla, so‘ng gapir. Zarurat paydo bo‘lgandagina gapirishga odatlan. Bo‘lmasa jim o‘tir! Ko‘p o‘ylab, oz so‘zlashda hikmat katta.

Barxurdor ibn Mahmud

***

Shirin so‘zning nasimi maqsad kemasini murod sohiliga yetkazadi. Noto‘g‘ri qo‘pol so‘zning chaqmog‘i esa bir onda so‘zlovchining farovonlik xirmonini yondiradi.

Barxurdor ibn Mahmud

***

Kishining boshiga nima kelsa tilidan keladi.

**Bayt:** To‘ti saqlayolsa edi tilini,
Qafas hijil qilmas edi dilini.

Barxurdor ibn Mahmud

***

**Bayt:** Avval o‘ylab so ‘ngra chiqargil nafas,
O‘zing bas aylagin, demay turib bas!

Ibn Kamolposhsho

***

Jahonda “til yugurigi boshga, qo‘l yugurigi oshga” degan maqol yuradi. Nashtar jarohatidan til jarohati og‘irroqdir. Nayza zahmidan, o‘q o‘tmay badan bo‘stoni gulistonga aylana oladi va undan jon-u molga zavol kamdir.

**Bayt:** Hassa zarbi uzoq turmayin ketar,
Tildan yetgan zarba bir umrga yetar!

Ibn Kamolposhsho

***



Aytadilar: “Kishining so‘zi uning fazlini bayon qiluvchi aqliga tarjimonidir!”

**Bayt:** Bilasanmi, tiling nedur og‘zingda,
Aql xonasiga kalitdir doimo!
Eshik yopiq bo‘lsa bilib bo‘lmaydi,
Xona ichra devmi, farishtami yo!

Ibn Kamolposhsho

***

Bir hakim dedi: “Hikmat xazinasi jim turishda, uning kaliti esa kamgaplikdir!”

**Bayt:** Jahonda shunday bir masal yuradi,
Aytilgan so‘z kumush, aytilmasa zar!

Ibn Kamolposhsho

***

So‘z tinglovchining tushuna olish darajasida keladi. Hikmat talab qilinib, tortqilanmaguncha So‘z tinglovchining tushuna olish darajasida keladi. Hikmat talab qilinib, tortqilanmaguncha yuz ko‘rsatmaydi. Kim qancha istasa, u ham shuncha ko‘proq ayon bo‘la boradi. Agar kishi: “Menga so‘z (hikmat) oshkor bo‘lmayapti”, – desa, javob shu: “Sen nega uni talab aylamayapsan, eshitish qudratini bermagan zot, gaprganiga ham gapirish salohiyatini ato etmagan”. Gapirishda so‘zni uzun qilma, o‘ylamay gapirma, bir gapni ko‘p takrorlama, o‘zgalar so‘zini bo‘lma, gapirayotganingda ovozingni o‘rtacha qil, sendan so‘zni maxfiy tutsalar uni bilish uchun zo‘rlik qilma. Rost so‘zla, haq so‘zni yolg‘onga chiqarma, bemavrid so‘z aytma, so‘zni aqlingga yarasha gapir, oyoq-qo‘lingga ehtiyot bo‘l, foydasiz so‘zlarni aytma, chaqimchini o‘tirishga kiritma!

Abulbarakot Qodiriy

***

Behruz Boqliy shunday degan edi: "Dunyoda menga ikki narsa xushdir, biri – dilga yoqadigan so‘z, ikkinchisi – so‘z yoqtiradigan dil. Shodon ko‘ngilli kishi shunday kishiki, uning dili so‘zdan fayz topa oladi. Yoqimli so‘z shunday so‘zki, u kishining diliga shodlik yetkaza oladi!"

**She’r:**

Jon-u tanning quvvati yoqimli shirin so‘zdir,
Masihning nafasidan guvohlik berar elga!

Abulbarakot Qodiriy

***

Ko‘pinchqa so‘z aytib, bo‘ldim pushaymon,
Aytmagan so‘zimdan – doimo shodmon.

Abu Abdulloh Rudakiy

***

Men, aql barkamolligi nuqtayi nazaridan qaraganimda, so‘zdan mo‘tabarroq va qalbimdan buyukroq hech narsa topmadim. Chunki undan afzalroq biror narsa bo‘lganida edi, haq taolo payg‘ambarga (s.a.v.) o‘sha narsa bilan murojaat qilgan bo‘lardi.

Umar Xayyom

***

Oldin bilib olib, keyin so‘zlagil,
Zarin topib, so‘ngra xarjin ko‘zlagil.

Nizomiy Ganjaviy

***

Qalbdan chiqqan so‘z qalbga yo‘l soladi.

Nizomiy Ganjaviy

***

Qarashga noravo narsaga ko‘r bo‘l, tinglashga noloyiq gap-so‘zga kar bo‘l.

Nosir Xisrav Dehlaviy



***

Shunday xastalar borki, ularni faqat so‘z bilan davolamoq zarur.

Abu Ali Ibn Sino

***

So‘z kuchidan yiqilur minbar ham, dor ham,
So‘z birla chiqar indin ilon – murdor ham.

Abu Shukur Balxiy

***

Ey birodar, bilginki, o‘ylamasdan gapirishdan ko‘ngilga ozor yetadi, jimlik va xomushlikdan esa, hech kimga ozor yetmaydi.

Muhammad Jabalrudiy

***

Rizouddin ibn Faxriddin shunday deydi: "Odamlarning ko‘nglini og‘ritmang. Ko‘p o‘ylang, oz so‘zlang. Nodon va xiyonatchilarga siringizni aytmang, ular bilan kengashmang. Olim va fozillarga ergashing…".

***

Farididdin Attor aytadi:
So‘zni yaxshi bilmayin qilma bayon
Ki, qilur so‘z barcha aybingni ayon.

***

Yusuf Xos Hojib aytadi:

– To‘g‘ri so‘z ko‘ngilga achchiq tegadi, hazm qila olsang, uning manfaati maza beradi. To‘g‘rilik maqsadga yetkizadi. To‘g‘ri kishi qayerda bo‘lsa ham kunlari baxtiyorlik bilan kechadi, yorug‘ kunlari qorong‘ilashmaydi. Xalqqa manfaat yetkizgan odam chin odam hisoblanadi. Uyatsiz kishi – kishilarning tubani bo‘lib, uning tili to‘g‘ri so‘zni so‘zlamaydi, kishilarning sarasi – sadoqatli kishidir. Odam farosatli bo‘lsa, unutmaydigan, o‘ylab ish yuritadigan bo‘ladi.

***

Hindiston donishmandlaridan biri o‘z o‘g‘liga nasihat qilib aytadi:

– Yolg‘on so‘zlab, “mening so‘zim to‘g‘ri” deb qasam ichma, to‘g‘ri so‘zlasang, to‘g‘riligiga ham ont ichma... yaxshi so‘zing, yaxshi ishing bilan hammaning izzat va hurmatiga sazovor bo‘lishga g‘ayrat qil, bu nasihatlarimni unutma.

**Bayt:** Ham tavoze’li bo‘lib, ham boadab,
Yaxshilarning suhbatin qilgil talab!

***

Olimlardan Ahmad xoja aytadi.

– Har bir kishining so‘zi – o‘z fazilatlarining dalili va aqlining tarjimonidir. Shuning uchun qisqa va ma’noli etib so‘zlash lozimdir. Behuda so‘zlar so‘zlashdan tilni tiyish kerak. Behuda so‘z yashirin ayblarni oshkora etadi, dushmanlarning qahr-g‘azab va adovatlarini qo‘zg‘atadi.

**Bayt:** El aro ko‘p so‘zlama, saqlab o‘zingni so‘zlagil,
Suxan birla yetkazma ozor, yaxshilikni ko‘zlagil.

***

Aflotundan so‘radilar:

– Olim-u donishmand oddiy kishilardan nima bilan farq qiladi?

Aflotun javob beradi:

– Olim ochiq yuzli, yumshoq so‘zli, tavozeli bo‘ladi. Biror odamdan o‘zi haqida bo‘lmag‘ur so‘z eshitsa, xafa bo‘lmaydi. Maqtashlar va olqishlarga uchib, o‘zini yuqori tutmaydi, kamtar bo‘ladi.

***

Mashhur olimlardan Said Ali Hamadoniy aytadi:



– Xalqga mahbub va marg‘ub bo‘lishni istasak, odobli bo‘laylik, to‘g‘ri so‘zlaylik, to‘g‘ri ishlaylik. Mag‘rur, mutakabbir, yolg‘onchi bo‘lmaylik va shunga o‘xshash yaramas illatlardan pok bo‘laylik.

***

Oddiygina gapirayotgan notiqqa taqlid etish avvaliga juda osonday tuyuladi, holbuki tajriba shuni ko‘rsatadiki, aslida bundan qiyinroq narsa yo‘q.

Sisteron

***

Miyalarida juda ko‘p fikrlari bor-u, ammo gapga usta bo‘lmaganliklari tufayli so‘zlay olmasliklarini ta’kidlaganlar hali o‘zlarini uncha anglayolmagan kishilardir.

M.Monten

***

Kishiga fikr kelsa, u ravshan gapiradi, lekin u fikrni singdirib ololsa, yanada ravshanroq gapiradi.

V.G.Belinskiy

***

So‘z aytishdan avval, har daqiqada sen so‘z ortidan keladigan oqibatni o‘yla...

I.P.Pavlov

***

So‘z – buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so‘z bilan odamlarni birlashtirish, so‘z bilan ularni bir biridan yuz ko‘rmas qilib yuborish mumkin, so‘z bilan mehr qozonish, so‘z bilan nafrat va adovatga yo‘liqish mumkin. Odamlarni bir biridan ajratadigan so‘zni aytishdan saqlan.

L.N.Tolstoy

***

Til tafakkur quroli... Tilga palapartish munosabat palapartish, noaniq, taxminiy, ehtimol bilan fikrlash demakdir.

L.N.Tolstoy

***

So‘zdan qudratliroq narsa yo‘q. O‘tkir dalil va yuksak fikrlar safini yorib o‘tish mumkin emas, so‘z yozuvlarni yakson etadi, qal’alarni yiqadi. U ko‘zga ko‘rinmas qurol. So‘z bo‘lmasa, dunyo dag‘al kuchlar qo‘lida qolar edi.

A.Frans

***

So‘z – insonning buyuk qurollaridan biri. O‘rinda, sidqidildan va vaqtida aytilgan oddiygina so‘z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi. U so‘zlovchining o‘zini qiziqtirib yuborishi, uni va atrofdagilarni o‘z nafisligi bilan mahliyo etishi mumkin.

A.F.Koni

***

Tildagi ravshanlik ravshan fikr natijasida, ravshan fikr turgan gapki, ravshan ifodani talab etadi,

V.Libknext

***

Chinakam notiqlikni ko‘rolmaydigan jamiyatda quruq va’zxonlik, so‘z riyokorligi yoxud bemaza safsatabozlik hukm suradi. O‘tmishda ham, hozirgi vaqtda ham notiqlik madaniyatning eng kuchli tayanchlaridan biridir.

A.P.Chexov

***

Nutqning bosh fazilati aniqlik va ravshanlikdir,

Aristotel

***



So‘zlarning ma’nolarini tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini abglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo‘laiz.

Dekart

***

Sen shunday so‘zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsin.

Kvintilian

***

Agar siz yaxshi suhbatdosh bo‘lishga intilsangiz, avvalo, yaxshi tinglovchi bo‘lib oling. Shunday savollar bering-ki, gaplashayotgan kishingiz bajonidil javob qaytarsin. Esingizda bo‘lsin, suhbatdoshingizni siz va sizning ishlaringizdan ko‘ra o‘zi to‘g‘risidagi fikr, o‘z xohishlari va muammolari ko‘proq qiziqtiradi.

Deyl Karnegi

***

Haqiqiy gapdonlik – kerakli hamma gapni aytish va keragidan ziyod hech narsa demaslikdir.

D.G.Laroshuko

“Ha” so‘zini aytmoqning ellik uslubi “yo‘q” degan so‘zni aytmoqning besh yuz uslubi bor. Bu ikkala so‘zning yozilish uslubi esa bitta, xolos.

Bernard Shou

## Adabiyotlar


1. Aql aqldan quvvat oladi. Hikmatli so‘zlar. T.: 1967.
2. Ipak yo‘li afsonalari. T.: 1993.
3. Mahmud Sattor. O‘zbekninggapiqiziq. T.: 1994.
4. M.Abdurahmonov. O‘zbektopishmoqlari. T.: 1991
5. N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: 1976.
6. O.Madayev, T.Sobitova. Xalq og‘zaki poetik ijodi.T. 2001.
7. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur. T.: 1998.
8. S.Mo‘min. So‘zlashish san’ati. Farg‘ona. 1997.
9. T.Malik. Shaytanat. I–IV kitob. T.: 1997.
10. Tafakkur chechaklari. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. T.: 1992.
11. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Ma’nolar mahzani. T.: 2001.
12. Ma’naviyat yulduzlari. T.: 2001.




## MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| Kirish | 3 |
| «Nutq madaniyati va notiqlik san’ati» fanining maqsadi, vazifasi va muammolari | 5 |
| Nutq madaniyati va muloqot madaniyati | 13 |
| Nutq madaniyati va adabiy til | 16 |
| Nutq madaniyati va adabiy me’yor | 23 |
| Til va nutq. Nutq odobi. | 33 |
| Nutq birliklari | 39 |
| Til ideali, til madaniyati, til etikasi | 43 |
| Nutq madaniyati va madaniy nutq ….. | 46 |
| Nutq madaniyati va nutqning kommunikativ sifatlari | 49 |
| Nutq texnikasi va uning turlari | 60 |
| Nutq madaniyati va uslubshunoslik | 62 |
| Nutq madaniyati va terminologiya | 74 |
| Nutq madaniyati va diplomatik nutq | 82 |
| Notiqlik san’ati tarixi | 88 |
| Notiqlik san’ati turlari | 102 |
| G‘arb notiqlik san’ati | 109 |
| Sharq notiqlik san’ati | 116 |
| Kaykovus nutq va notiqlik san’ati haqida | 136 |
| Alisher Navoiy nutq va notiqlik san’ati haqida | 144 |
| Husayn Voiz Koshifiy notiqlik san’ati haqida | 154 |
| Abdulla Avloniy notiqlik san’ati haqida | 160 |
| Xalq og‘zaki ijodidan va donolar bisotidan | 167 |

R.RASULOV, Q.MO‘YDINOV

# NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATI

*DARSLIK*

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 09.05.2025 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. ‘‘Times New Roman’’
garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 11,875.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 6107796.1.1 .

«Book trade 2022» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01**

QAYDLAR UCHUN

ISBN 978-9910-8650-2-2